

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna**

**FRANSUZ TILI FRAZELOGIYASINING  
SEMANTIK-KOGNITIV VA  
LINGVOMADANIY  
TAVSIFI**

**MONOGRAFIYA**

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti  
Samarqand – 2024

UDK 811.512.133 A 15

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.N.Suvonova. Fransuz tili frazeologiyasining semantik-kognitiv va lingvoadaniy tavsifi. Monografiya. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 149 bet.

*Mazkur monografiyada fransuz frazeologiyasining nazariy va metodologik aspektlari, frazeologik birliklarning lingvokognitiv xususiyatlari, fransuz frazeologiyasini lingvopsixologik jihatdan tadqiq qilish usullari va paremiologik birliklarga xos lingvomadaniy xususiyatlar borasida ilmiy-nazariy tushunchalar berilgan va ular xususida muayyan ilmiy xulosalarga kelingan. Ushbu monografiya frazeologiya sohasining hozirgi zamon lingvistik tendensiyalari asosidagi dolzarb masalalariga qiziquvchilar, xususan, yosh ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, magistrantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.*

**Mas'ul muharrir:** Muso Yo'ldoshev – filologiya fanlari nomzodi, professor.

**Taqrizchilar:** Jamoliddin Yoqubov – filologiya fanlari doktori, professor.

Salohiddin Ismoilov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu monografiya Samarqand davlat chet tillar institutining 2024- yil 30-martdagi 8-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etildi

ISBN 978-9943-6998-0-9

© Nigorabonu Suvonova, 2024

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>6</b>
<b>I BOB. FRANSUZ FRAZELOGIYASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASPEKTI.....</b>	<b>8</b>
<b>1.1. Tilda frazeologik birlik tushunchasi va uning fransuz tiliga xos tasnifiy negizlari. ....</b>	<b>8</b>
1-§. Frazeologik birlik leksik-semantik sath doirasida.....	8
2-§. Fransuz frazeologiyasi tilshunoslikda alohida fan sifatida. ....	10
3-§. Frazeologik birliklarni struktur va funksional jihatdan tasniflash tamoyillari.....	14
<b>1.2. Soʻz va FB oʻrtasidagi leksik munosabat (holat kategoriyasi misolida).....</b>	<b>16</b>
1-§. Holat kategoriyasi tilshunoslar talqinida.....	16
2-§. Holat kategoriyasining fransuz tilidagi ifoda vositalari.....	17
3-§. Holat kategoriyasining FBlar orqali ifodalanishi.....	19
<b>II BOB. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STRUKTUR- SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>23</b>
<b>2.1. Fransuz tilida <i>faire+ot</i> strukturali FBlar.....</b>	<b>23</b>
1-§. <i>Faire+ot</i> strukturali FBlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	23
2-§. Fransuzcha <i>faire+nom</i> strukturali FBlarga xos sinonimik substitutsiya holati.....	26
<b>2.2. Fransuz frazeologiyasida reduplikatsiya hodisasi.....</b>	<b>28</b>
1-§. “Reduplikatsiya” hodisasi va uning oʻziga xos turlari.....	28
2-§. Reduplikativ FBlarning leksik xususiyatlari .....	30
3-§. FBlar tarkibidagi predloglarning reduplikativ shakllari.....	33
<b>2.3. Fransuz tilida leksik va frazeologik antonimiya hodisasi.....</b>	<b>36</b>
1-§. Leksik antonimiya va uning ifodalanish xususiyatlari.....	36
2-§. Frazeologik antonimiya hodisasi .....	39
3-§. Komparativ FBlar antonimiyaning asosiy vositasi sifatida.....	42
<b>III BOB. FRAZELOGIYANING KOGNITIV XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>47</b>
<b>3.1. Frazeologiyada “VAQT” konsepti.....</b>	<b>47</b>
1-§ “Konsept” tushunchasi tilshunoslar talqinida.....	47
2-§. Fransuz frazeologiyasidagi “vaqt” konseptining struktur xususiyatlari.....	49

3-§. “Vaqt” konsepti asosidagi FBlarni modellashtirish mezonlari.	51
4-§. Fransuz frazeologiyasidagi “vaqt” konseptining semantik xususiyatlari.....	53
<b>3.2. Imperativ paremiyalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari</b> .....	55
1-§. Imperativlikning lingvistik mohiyati.....	55
2-§. Imperativ paremiyalarning intensional xususiyatlari.....	56
3-§. Imperativ paremiyalarning struktur-semantik xususiyatlari.....	62
<b>3.3. Yumoristik frazeologizmlar - real voqelikni kulgili baholash vositasi sifatida.</b> .....	66
1-§. Yumor va uning tilshunoslikda o‘rganilish xususiyatlari.....	66
2-§. Fransuzcha frazeologizmlarning yumoristik xususiyatlari.....	68
3-§. Fransuzcha paremiyalarning yumoristik xususiyatlari.....	72
<b>3.4. Frazeologiya va onomatopiyaning ruhiyat tasviridagi o‘zaro semantik munosabatlari</b> .....	80
1-§. Frazeologiyada ruhiyat tasviri va onomatopik fe‘llar tavsifi.....	80
2-§. Onomatopik fe‘llarning frazeologiyadagi emotiv ma‘no ottenkalari.....	81
<b>IV BOB. FRAZEOLGIK SATHNING QIYOSIY ASPEKTDAGI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI</b> .....	90
<b>4.1. Internatsional frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari</b> .....	90
1-§. Internatsionallik - til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa natijasi sifatida.....	90
2-§. Tillarda to‘liq mos keladigan internatsional FBlar.....	92
3-§. Tillarda qisman mos keladigan internatsional FBlar.....	97
<b>4.2. “OQ RANG”ning frazeologik talqini</b> .....	100
1-§. “Rang” tushunchasining umumiy talqini.....	100
2-§. Oq rangning fransuz tilidagi frazeologik ma‘no ottenkalari.....	104
3-§. Oq rangning o‘zbek tilidagi frazeologik ma‘no ottenkalari.....	109
<b>4.3. Frazeologiyada ro‘zg‘or buyumlari leksikasining ayrim referentsial xususiyatlari</b> .....	115
1-§. FBlarda ro‘zg‘or buyumlari leksikasining ifodalanishi.....	115

2-§. FBlarda <i>le couteau - pichoq</i> leksemasining referentsial xususiyatlari.....	118
<b>4.4. O‘zbek xalq maqollarini fransuz tiliga tarjima qilishning lingvomadaniy xususiyatlari. ....</b>	<b>122</b>
1-§. Maqollar – milliy olam tasviri sifatida.....	122
2-§. O‘zbek xalq maqollarini fransuz tiliga tarjima qilishning leksik-semantik xususiyatlari.....	124
3-§. Maqollarni tarjima qilishdagi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq struktur xususiyatlar.....	128
<b>XULOSA.....</b>	<b>135</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>136</b>

## KIRISH

Mazkur monografiyaning tarkibiy tuzilishi 4 bob asosida shakllangan bo'lib, unda birinchi bob - *Fransuz frazeologiyasining nazariy va metodologik aspekti*, ikkinchi bob - *Frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari*, uchinchi bob - *Frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari*, to'rtinchi bob - *Frazeologik sathning milliy - madaniy aspekti* borasida ilmiy-nazariy tushunchalar berilgan.

Tilda frazeologik birlik tushunchasi va uning tildagi tasnifiy negizlari dastlab, FBlarning leksik-semantik sath doirasidagi o'rnini izohlash bilan bog'liq bo'lib, undagi til birliklarini funksional-semantik jihatdan tasniflash tamoyillari, so'z va FB o'rtasidagi leksik munosabat shakllari va FBlarga xos struktur, leksik-semantik xususiyatlar esa frazeologiyaning tilshunoslikda alohida fan sifatidagi maqomini aniqlashga yordam beradi. Fransuz frazeologiyasida struktur-semantik jihatdan reduplikatsiya hamda frazeologik antonimiya kabi hodisalari hanuz tadqiqot talab sohalaridan biri sanaladi.

Fransuz frazeologiyasining lingvokognitiv tadqiqi tadqiqotchilar oldidagi qator vazifalar ko'lamini yanada kengaytirishga undaydi. Xususan, fransuz frazeologiyasining o'ziga xos konseptual olami hamda imperativli, yumoristik va boshqa turfa doiradagi kategorial tushunchalar asosini aynan fransuz frazeologiyasi negizida o'rganish ushbu til frazeologiyasining dolzarb muammolari yechimiga eltuvchi imkon bo'la oladi. Shuningdek, fransuz frazeologiyasining lingvopsixologik aspekti uning lingvistik va psixologik hodisalar o'rtasidagi to'qnashuvidan paydo bo'lgan emotiv frazeologizmlar

tadqiqi bilan izohlanadi. Bu esa “*emotiv frazeologiya*” muammolari yechimining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Fransuz frazeologiyasining milliy-madaniy aspekti o‘ziga yarasha keng qamrovli va mukammal tadqiqotlar ko‘lamidan iborat bo‘lib, bunda fransuzcha FBlarni boshqa tillar bilan qiyoslagan holda o‘rganish frazeologiyaning aynan lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq tarzda tadqiq qilish imkonini beradi. Bu orqali frazeologiyaning milliylik xususiyatlari yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Xususan, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa natijasi hisoblangan internatsionallik, turfa buyum, predmet va an'analarga bog‘liq ko‘plab milliy-madaniy, ijtimoiy tushunchalarning, qolaversa, madaniy fenomenlardan biri bo‘lgan «*kolorizm*» tushunchasining frazeologik olamda frazemalar va paremiyalar orqali aks etishi fikrimiz isbotidir. Ushbu monografiyadan o‘rin olgan bu kabi frazeologik masalalar kelgusida qator tadqiqotlar obyektiga aylanishi shubhasizdir.

## 1.1. TILDA FRAZELOGIK BIRLIK TUSHUNCHASI VA UNING FRANSUZ TILIGA XOS TASNIFIY NEGIZLARI

### 1-§. Frazelogik birlik leksik-semantik sath doirasida.

*Frazeologiya* so'zi grekcha *phrasis* so'zidan olingan bo'lib, *ibora*, *nutq qurilmasi*, degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ikki xil ma'noni ifodalaydi. Birinchisi - tilshunoslikning turg'un birikmalar, ya'ni frazeologik birliklarni o'rganuvchi ma'lum bir qatlami, ikkinchisi esa - frazeologik birliklar majmuini ifodalash uchun xizmat qiluvchi atama.

*Frazeologik birlik* (FB) atamasi tilshunoslikka birinchi bo'lib V.V.Vinogradov tomonidan kiritilgan<sup>1</sup>. *Frazeologik birlik* va *frazeologiya* atamaları bilan bir qatorda, *idioma* va *idiomatika* atamasi ham qo'llanadi. Biroq fransuz frazeologiyasida *frazeologik birlik* atamasi o'rniga *locution* atamasi ishlatiladi. Ushbu atamadan tashqari, fransuz frazeologiyasida *locution figée*, *expression idiomatique*, *idiotisme* kabi atamalar ham keng tarzda qo'llanadi. Shuningdek, *locution phraséologique* atamasi ham mavjud bo'lib, u fransuz frazeologiyasiga Sh.Balli tomonidan kiritilgan, biroq u ham keng tarzda qo'llanilish xususiyatiga ega emas. Frazelogiyaning o'rganish obyektlarini FBlar, ya'ni turg'un so'z birikmalar, iboralar, nutqdagi barcha frazeologizmlar tashkil etadi.

Leksik-semantik sath tilning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limini o'z ichiga oladi. Bular *leksikologiya* (grekcha *lexikos* - so'zga oid va *logos* - o'rganish) va *semasiologiya*. O'rganadigan materialiga ko'ra leksikologiya ikkiga bo'linadi: *xususiy leksikologiya*, ya'ni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, fransuz, o'zbek, rus, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va *umumiy leksikologiya*. Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni o'z ichiga oladi va turli xil til materiallariga e'tibor qaratadi. *Umumiy* va *xususiy leksikologiya* bilan bir qatorda *qiyosiy* va *solishtirma (kontrastiv) leksikologiya* ham mavjud. *Qiyosiy leksikologiya* birinchi navbatda

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. - М., 1982. - С.6, 83-84



qardosh tillarning o'xshash tomonlarini, *solishtirma leksikologiya* esa nafaqat qardosh tillar, balki qardosh bo'lmagan tillardagi o'xshash va mos tomonlarni o'rganadi.

So'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan keng muammolar ko'lamini *semasiologiya* predmeti o'z ichiga oladi. «*Semasiologiya*» atamasi grekcha *semacia* – *ma'no va logos* – o'rganish so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zi hollarda grekcha *semaino* – *ifodalayman* degan ma'noni anglatadi. «*Semasiologiya*» atamasiga sinonim sifatida «*semantika*» atamasi ham ishlatiladi. So'z ma'nosiz umuman mavjud bo'lmasligi kabi *leksikologiya* va *semantika* ham bir-birlarisiz mavjud bo'lmaydi. Tildagi frazeologik sistema tushunchasini ochib berish obyektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Shuni ta'kidlash joizki, sintaktik erkin so'z birikmalar fransuz tilidagi mustaqil so'z turkumlarining bir qancha turlarini to'ldirishning muhim manbai hamda til leksik tarkibini boyitishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanar ekan, erkin *so'z birikmasi* bilan *frazeologik birlik* o'rtasidagi farqni anglab yetish lozimdir. Negaki, ular bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Zero, erkin so'z birikmalar turg'un so'z birikmalardan, ya'ni frazeologik birliklardan o'z tarkibidagi mavjud so'zlarning so'zma-so'z leksik ma'nosi bilan ahamiyatli sanalsa, turg'un so'z birikmalar esa, tarkibidagi mavjud so'zlarning umumiy yig'indisi orqali ifodalanayotgan leksik ma'nosi bilan ahamiyatlidir. Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida *idiomatiklik*, *turg'unlik*, *obrazlilik* va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin.

FBlar so'z va mustaqil so'z birikmalaridan quyidagi xususiyatlari orqali o'zaro farqlanadi:

1) FBlar so'zdan farqli o'laroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlikdir;

2) FBlar mustaqil so'z birikmalaridan farq qilgan holda o'zlaridagi turg'unlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan, so'z birikmalari esa o'z elementlari o'rtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

3) FBlarning eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida so'zlardan yasalganligi bo'lib, bunday xususiyat

fransuz tilidagi FBlarni soʻzlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va maʼno birligiga ega boʻlgan nofrazzeologik birliklardan farqlay olmaydi;

4) FBlar gapiruvchi nutqida oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda boʻlsa, soʻz birikmalari esa nutq jarayonida toʻgʻridan-toʻgʻri hosil boʻladi;

5) Soʻz birikmalari tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap boʻlaklari boʻla olsa, FBlar tarkibidagi elementlar oʻrtasidagi grammatik munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yohud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap boʻlagi oʻrnida kelishi mumkin.

## **2-§. Fransuz frazeologiyasi tilshunoslikda alohida fan sifatida.**

Sh. Ballining frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan gʻoyasidan soʻng fransuz tilshunosligida tadqiqotchilar oʻrtasida munozara va mushohadalarning avj olishi kutilgan edi. Biroq, fransuz frazeologiyasi tarkibi xilma-xil va ancha boy boʻlishiga qaramasdan, frazeologiyaning nazariy asoslarini oʻrganishga hech qaysi bir tilshunos qoʻl urmadi. Bu holat fransuz tilshunosligida FBlar mohiyatini aniq va yagona tarzda tushunish mavjud emasligi bilan izohlanadi. Fransuz tilshunoslari oʻrtasida frazeologiyaning obyektini hisoblanmish FBlar turlicha talqin etilgan. Xususan, mashhur fransuzcha frazeologik lugʻatlar muallifi Moris Ra boshqa tadqiqotchilar singari FBlarni *expression, façon de parler* kabi turli atamalar bilan nomlab kelgan. Tadqiqotchilar oʻrtasidagi bunday nomutanosiblik, yaʼni FBlarni bunday tarzda keng talqin etilishi ularning yakdil bir qarorga jiplasha olmaganligidan va FBlarning nazariy asoslarini ochib bera olmaganligidan, qolaversa, *frazeologik birliklar* bilan *nofrazeologik birliklar* oʻrtasidagi farqni anglab olish mumkin emasligidan dalolat beradi.

Binobarin, Moris Raning frazeologik lugʻatiga nazar tashlasak, u yerda metaforik maʼnoli yakka soʻzlarning ham frazeologik birlik tariqasida berilishi juda ajablanarlidir. Masalan, *bernique, un micmac, une poire* soʻzlari shular jumlasidandir<sup>1</sup>. Vaholanki, J.Maruzo oʻzining lingvistik terminlar lugʻatida *locution* atamasini ikki xil talqin etadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Rat M. Dictionnaire des locutions françaises. – Paris, 1957. -470 p.

<sup>2</sup> Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. Пер. с фр. Н.Д. Андреева; под ред. А.А Реформатского ; предисл. В.А. Звегинцева. – Изд. 2-е, испр. – М. : УРСС, 2004. – С. 278 – 436 с.

Birinchi holatda ushbu atama keng ma'no kasb etib, *iboraning sinonimi* sifatida qo'llanilsa, tor ma'no kasb etganda esa *bir necha so'zlar yig'indisi* ma'nosini anglatadi.

FBlarni frazeologiyaning obyekt sifatida ancha aniqroq va batafsil talqin etilishi P. Giro asarlarida o'z aksini topgan : *expression constituée par l'union de plusieurs mots formant une unité syntaxique et lexicologique*<sup>1</sup>. U bu yerda quyidagi xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi :

1. shakl va ma'no birligi – *unité de forme et de sens* ;

2. grammatik va leksik normalardan chekinish - *écart de la norme grammaticale ou lexicale* ;

3. maxsus metaforik ma'no - *valeurs métaphoriques particulières*.

Bunda birinchi va ikkinchi xususiyat FBlarga xos bo'lishi mumkin. Biroq, uchinchi xususiyat barcha FBlarga xosligi noo'rindir. Negaki, hatto ko'pchilik FBlar o'zlarida metaforik ma'noni aks ettirmasligi ham mumkin. Masalan, *bel et bien, peu ou prou* iboralari shular jumlasidandir. P.Giro keltirgan ikkinchi xususiyat, ya'ni grammatik va leksik normalardan chekinish xususiyati FBlarning aynan o'ziga xosligini namoyon etuvchi holatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Frazeologiya va FBlar borasida Sh. Balli ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi. Afsuski, Sh. Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar. So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda matn va lug'atlar (alohida janr matni sifatida) lingvistikasining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda va matnning ichki lingvistik tipologiyasini har tomonlama o'rganish imkoniyatlari tug'ilmoqda.

Hozirgi zamon umumiy, qiyosiy tipologik tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri - so'zning lingvistik statusi hisoblangan frazeologik birliklar muammosi alohida aspektni tashkil etadi. Alohida tillar, jumladan, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarining frazeologik sistemasini yoritish borasida anchagina tajriba orttirilgan. Biroq, til sistemalar majmui ekan, u har qanday sistema o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi yoki tilning boshqa sistemalari bilan qarama-qarshi o'rganilishini ham taqozo etadi. Bu holat frazeologik sistemani leksik sistema bilan qarama - qarshi qo'yilishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, u frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik - semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil

---

<sup>1</sup> Giraud P. Les locutions françaises. – Paris, 1961. –P 349. / -660 p.

etadimi, degan munozarali muammolarni hal etishda aynan *leksema* va *FB* o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydigan zaruriy material sifatida xizmat qiladi.

Frazeologiyaning hozirgi holati insonning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi FBlarning genetik manbalarini qidirish bilan tavsiflanadi. Bu holat boshqa bir tomondan, ma'lum tillar guruhi va alohida konkret tillar frazeologiyasi shakllanishining ijtimoiy– tarixiy va milliy bog'liqligi jihatidan tadqiq qilinadi. Shuni qayd qilish lozimki, frazeologiyaning shakllanishi va rivojlanishidagi ekstralingvistik omillarga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib borayotganligiga qaramasdan, uni tarixiy manbalarga nisbatan diaxronik asosda, tarixiy–ijtimoiy nuqtayi nazardan o'rganishga kam e'tibor qaratilmoqda. Bu ayniqsa, rus frazeologiyasi va bir qator g'arbiy Yevropa tillari frazeologiyasidan ancha ortda qolgan fransuz frazeologiyasiga tegishlidir. Haqiqatan ham, A.G. Nazaryan<sup>1</sup> bu borada ancha jiddiy kamchiliklarning o'rnini to'ldirdi va uning fransuz tarixiy frazeologiyasi sohasidagi tadqiqotlari bu sohada yangi sahifa ochdi.

Bunda eng muhimi shundaki, romanist–olimlar nafaqat IX asrdan to XX asr frazeologiyasining tarixiy taraqqiyotidagi keng bo'shliqni to'ldirdi, balki birinchi bo'lib, turli xil bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini birma – bir aniq tasvirlab berish orqali frazeologiya tarixini davrlarga bo'lish g'oyasini ilgari surdi.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li shubhasiz, A.G.Nazaryan tomonidan ochib berilgan. U sof FBlar turg'un birikmalar ichidagi maqollar sonini qisqartirish orqali (ulardagi tor tushunchalarda) tilda o'zlariga doimiy yo'l ochib olganini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda tilshunoslar so'zlar o'rtasidagi sistem aloqalar masalasini o'rta tashlamoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, biz "sistem-sath" atamasi orqali frazeologiyani tilning alohida sathi sifatida emas, balki ma'lum bir sath tarkibidagi obyekt sifatida, qolaversa, tilni tasvirlash predmeti sifatida talqin qilmoqchimiz.

Biroq frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil bir sathi bo'la olishligini e'tirof etuvchi olimlar ham yo'q emas. Xususan, rus frazeologi V.L.Arhangelskiy tilning boshqa sistemalari bilan aloqada bo'lgan frazeologik tarkibni "*frazeologik sath*" deb nomlagan edi<sup>2</sup>. Bu g'oyani nemis frazeologi V.Flyasher (W. Fleischer) davom ettirgan

---

<sup>1</sup> Назарян А.Г. Фраzeология современного французского языка. – М.: ВШ, 1987. – 288 с.

<sup>2</sup> Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д: Изд-во Ростов. ун-та, 1964. – С.260.

holda frazeologizmlarni maxsus frazeologik sathni (*phraseologische Ebene*) tashkil etuvchi “avtonom struktura” deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Shuningdek, A.V. Kunin ingliz frazeologiyasi materiali asosida FB va soʻzlar til strukturasi alohida sathlariga tegishli ekanligini, qolaversa, tilning frazeologik sistemasini “frazeologik sath” hisoblab, uni FB komponentlari va oʻzaro FBlar oʻrtasidagi munosabatlar majmui ekanligini taʼkidlaydi<sup>2</sup>. Bundan tashqari, fransuz frazeologiyasi boʻyicha tadqiqot ishlari olib borgan A.G. Nazaryan ham frazeologiyani tilning alohida sathi deb nomlash vaqti yetganligini eʼtirof etadi<sup>3</sup>.

1920- yillarga kelib, til borasidagi ilmiy tadqiqotlar juda avjiga chiqdi. Xususan, Ye.D.Polivanov birinchi boʻlib, frazeologiyani fan sifatida ajratib oʻrganish zarurligini taʼkidladi. 1940-50- yillar davomida V.V. Vinogradovning bu fan rivojiga qoʻshgan hissasi tilshunoslik tarixida muhim iz qoldirdi. Shuningdek, bu davrga kelib, tilshunoslar frazeologik muammolar doirasini kengaytirishga, yaʼni frazeologik birliklarni turli xil aspektlar nuqtayi nazaridan tadqiq etish gʻoyasini ilgari surdi.

V.L.Arxaangelskiy, O.S.Axmanova, L.I.Royzenzon, N.M. Shanskiy singari bir qator tilshunoslar frazeologiyaning maxsus fan sifatida shakllanishiga alohida hissa qoʻshdilar. Qolaversa, rus tilshunoslari nafaqat rus tili, balki xorijiy til frazeologiyasi ustida ham tadqiqot ishlari olib bordi. Jumladan, germanist va romanist tilshunoslardan N.N. Amosova, A.V. Kuninlar ingliz, I.I.Chernisheva nemis tili, V.G.Gak, Ya.I.Resker, Z.N.Levit, O.M.Shvars, A.G.Nazaryanlar fransuz tili frazeologiyasi borasida tadqiqot ishlari olib bordi. Ular oʻz tadqiqotlarida frazeologiyaning umumnazariy va xususiy muammolarini tadqiq etishga harakat qildilar. Frazeologiyani bu kabi nazariy jihatdan oʻrganish koʻpchilik tilshunoslar tomonidan frazeologik hodisalarning maʼlum bir sistema asosida mavjud ekanligini tan olishga yordam berdi. Bu esa tilshunoslar oʻrtasida frazeologiyaning til sathlari orasida oʻz oʻrnini topishi kerak, degan gʻoyaning paydo boʻlishiga olib keldi.

Frazeologiyaning boʻlimlari:

- Frazeologik semantika,
- Frazeologik stilistika,
- Paremiologiya,

<sup>1</sup> Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. –Tübingen: Niemeyer, 1997. – S. 7. 15

<sup>2</sup> Кунин А.В. Фразеологический уровень языка // Уровни языка и их взаимодействие. – М., 1967. –С.90.

<sup>3</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка – М.: ВШ, 1976. –С.23.

- Tarixiy frazeologiya,
- Emotiv frazeologiya,
- Qiyosiy frazeologiya,
- Frazеografiya / lug‘atlar yaratish /paremiografiya.

### 3-§. Frazеologik birliklarni struktur va funksional jihatdan tasniflash tamoyillari.

Fransuz FBlarini tasniflashda quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

- 1) FBlarni struktur jihatdan tasniflash;
- 2) FBlarni tildagi funksiyasiga ko‘ra tasniflash;

FBlarni struktur jihatdan tasniflashdagi ularga xos xususiyat - bu FBlarning struktur va grammatik belgilariga asoslanishi hamda ularning 4 turga ajralishidir:

- 1) Nopredikativ FBlar ;
- 2) Predikativ FBlar;
- 3) Qisman predikativ FBlar;
- 4) Yashirin predikativ FBlar.

**Nopredikativ FBlarda** kesim ishtirok etmaydi va ular ikki turga bo‘linadi: 1) Bir unsurli FBlar ; 2) Frazemalar.

Bir unsurli FBlar bir mustaqil so‘z va bir yoki ikki yordamchi so‘zdan tashkil topadi va unda umumsintaktik aloqaga asoslanadi. Bunga misol tariqasida quyidagi birikmani keltirishimiz mumkin:

*Dans l’intention de (+ l’infinif)- biror bir ishni atayin qilmoq.*

Nopredikativ FBlarning ikkinchi turi, ya’ni frazemalarda ikki va undan ortiq mustaqil so‘z mavjud bo‘ladi va ular tobe va bog‘li aloqaga asoslanadi. Misol uchun :

- a) *Hommes à gages – yollanib ishlovchi odam (yollanma ishchi) ;*
- b) *Une grande affaire- mushkul ish ;*
- c) *Travaux d’Hercule – Gerkulesning o’n ikkita jasorati, ulkan mehnat ;*
- d) *Le fin d’une affaire -ishning mohiyati, asosiy maqsadi ;*
- e) *Jours ouvrables – ish kunlari;*
- f) *Travailler comme une bête de comme - Eshakdek ishlamoq, tinim bilmasdan ishlamoq.*

FBlarning **struktur** turlarini quyidagi jadval asosida ancha tushunarli tarzda tasniflash mumkin:

<b>Nopredikativ FBlar:</b>	
Bir mustaqil soʻzli frazeologizmlar:	Ikki va undan ortiq mustaqil soʻzli frazemalar:
<i>A propos; en effet; a la fois;</i>	<i>Nuit blanche; blanc comme sire; se mettre en quatre;</i>
<b>Qisman predikativ FBlar:</b>	
<i>croire que les enfants naissent dans les choux; vin qui fait danser les chèvres ;</i>	
<b>Predikativ frazeologizmlar:</b>	
Yopiq strukturali predikativ frazeologizmlar:	Ochiq strukturali predikativ frazeologizmlar:
<i>Il y a anguille sous roche; son compte est bon ;</i>	<i>Force lui est de ... ; ça va chercher dans ... ;</i>
<b>Yashirin predikativ frazeologizmlar:</b>	
<i>à petit trou, petite cheville -uzukka koʻz qoʻygandek; à nouvelles affaires, nouveaux conseils- yangi ish – yangi tashvish.</i>	

FBlarning **funksional** turlarini quyidagi jadval asosida tasniflash mumkin:

<b>Nokommunikativ frazeologizmlar</b>	
Nominativ frazeologizmlar:	<b>Nominal</b> – <i>le fils à papa</i> – ota oʻgʻil; <i>paroles en l'air</i> – bekorchi gaplar; <i>mariage sous la cheminée</i> – soxta nikoh ; <b>Adʻektiv</b> – <i>à la page</i> – zamonaviy; <i>fort en gueul</i> -janjalkash; <i>de la main gauche</i> – noqonuniy; <b>Adverbial</b> – <i>à fond</i> – batafsil; <i>sur le pouce</i> – qoʻl uchida / shunchaki ; <i>pour rien</i> – bekorga ; <i>comme un fou</i> – telbalarcha ; <b>Verbal</b> – <i>être chien</i> – badjahl boʻlmoq ; <i>demeurer en suspens</i> – arosatda qolmoq; <i>se trouver mal</i> – hushidan ketmoq; <b>Komparativ</b> – <i>chaude comme dans un four</i> – tez qizishib ketaigan; <i>maigre comme un clou</i> - juda ozgʻin; <i>marcher comme les crabs</i> – toshbaqadek sudralib yurmoq;
<b>Yordamchi frazeologizmlar:</b>	<i>à titre de ... ; à force de ... ; aux yeux de ... ; dans le cadre de ... ; sur le dos de ... ;</i>
<b>Undalma / kiritmali frazeologizmlar:</b>	<i>par exemple</i> - masalan; <i>bonne mère</i> - boʻlishi mumkin emas; <i>Misère de ma vie</i> – qanday baxtsizlik ; <i>Ma foi</i> – chin soʻzim, oʻlay agar ;
<b>Modal frazeologizmlar:</b>	<i>autrement dit... ; en regle générale ... ; à dire vrai... ; comme qui dirait ...</i>

<b>Kommunikativ frazeologizmlar</b>	
Maqol bo'lmagan kommunikativ frazeologizmlar:	Maqollar:
<p>-Il lui manque un clou – bir qaynovi kam ;  -force lui est de ... majbur bo'lmoq ;  -la moutarde lui monte au nez – tepa sochi tikka bo'ldi ;  -l'affaire est dans le sac – bosh yorilsa do'ppi tagida ;</p>	<p>-Il n'est jamais feu sans fumée – shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.  -Le renard mourra dans sa peau – bo'krini go'r to'g'rilaydi.  -Il faut hurler avec les loups – kim nima qilsa sen ham shuni qil.</p>

## **1.2. SO'Z VA FB O'RTASIDAGI LEKSIK MUNOSABAT (holat kategoriyasi misolida)**

### **1-§. Holat kategoriyasi tilshunoslar talqinida.**

Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar muammosini dastlab A.X.Vostokov, A.A. Shaxmatov, L.V.Sherba va V.V.Vinogradovlar ishlab chiqqan. Holatni ifodalovchi so'zlar va ularning so'z turkumlari orasidagi talqini o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkumdagi so'zlardan ajralib turadi. Ma'lumki, so'z turkumlari muammosi tilshunoslar tomonidan minglab yillar davomida o'rganib kelinayotgan bo'lsada, ularning tasnifi borasida hamon aniq bir to'xtamga kelinmagan.

Holatni ifodalovchi so'zlar ham tilshunoslikda xuddi so'zlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa so'z turkumlariga xos so'zlarga nisbatan o'zlarining semantik va funksional xususiyatlari bilan ajralib turadi. So'z turkumlari orasida fe'l, ot, sifat va ravish so'z turkumlari o'zlarida holat kategoriyasini aks ettiruvchi so'zlar guruhi sanaladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda holatni ifodalovchi so'zlarni ba'zilar *fe'l so'zlar* deb atasa, ba'zilar esa *fe'l ma'nosiga ega bo'lgan qisqa sifatlar* deb, yoki *ot* hamda *ravish* so'z turkumiga xos so'zlar deb ataydi. Bundan tashqari, ular *predikativ ravishlar*, *shaxssiz predikativ so'zlar*, *predikativlar* kabi boshqa atamalar bilan ham izohlanadi<sup>1</sup>. Lekin ba'zi tilshunoslar holatni ifodalovchi so'zlarni hech qaysi so'z turkumiga kiritmasdan, alohida o'rganadi. V.V.Vinogradov holatni ifodalaydigan so'zlarni o'zgarmas so'zlar guruhiga kiritib, ularni kesim va bir tarkirbli gaplarda infinitif bilan ifodalangan egani aniqlab keladi, deb ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Розенталь Д.Е., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976. – С.143.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. Русский язык –М.: ВШ., 1972. – С.319.




Fransuz tilida ham boshqa tillardagi kabi holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar maʼlum bir shaxs yoki predmetning sifatiy holatini koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Bunda *sifatiy holat* tushunchasi ostida harkat jarayonida sodir boʻlgan yoki maʼlum bir obyektни tavsiflash jarayonida yuzaga kelgan holat tushunchalari aks etadi.

Fransuz tilida holat holi (*le complément circonstanciel de manière*) vazifasidagi barcha ravishlar tildagi holat kategoriyasini aks ettiruvchi eng asosiy vositalardan biri boʻlib hisoblanadi. Biroq fransuz tilida holatni ifodalovchi soʻzlar chuqurroq oʻrganilganda, ushbu kategoriyaga xos aktualizatsion vositalar xilma-xil ekanligining guvohi boʻlamiz. Bunday vositalar fransuz tilida avvalambor, holatni ifodalovchi ravishlar, soʻngra esa feʼl, sifat, ot, ravishdosh, sifatdosh, soʻz birikmasi va FB (frazeologik birlik)larni oʻz ichiga oladi.

## 2-§. Holat kategoriyasining fransuz tilidagi ifoda vositalari.

Fransuz tilida holat kategoriyasining ifoda vositalarini tadqiq qilish jarayonida ularni ikki katta struktur guruhga, yaʼni, bir elementli va ikki yoki undan ortiq elementli leksik birliklarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunda holatni ifodalovchi bir elementli leksik birliklarga ravish, feʼl, sifat, ot hamda sifatdosh kabilarni, ikki elementli leksik birliklarga esa frazeologik birliklar, soʻz birikmalari va ravishdoshlarni kiritish mumkin. Ushbu keltirilgan fikr-mulohazani yorqinroq ifodalash maqsadida quyidagicha struktur-jadvalga eʼtibor qilaylik:



Ma'lumki, holatni ifodalovchi so'zlar doimo *Comment ? (Qanday?) De quelle façon?, De quelle manière ?( Qay tarzda?)* so'rog'iga javob bo'ladi. Biroq yuqorida keltirilgan izohga ko'ra, ot va fe'l so'z turkumiga xos so'zlar ham holat kategoriyasiga ega ekanligi inobatga olinsa, bunday so'zlar ot va fe'lga tegishli bo'lgan *Qu'est-se qui ? (Kim?)*, *Qu'est-se que? (Nima?)* yoki *Que faire? (Nima qilmoq?)* so'rog'lariga ham javob bo'lishi mumkin. Fransuz tilidagi *craindre, se fatiguer* fe'llari yoki *la tranquillité, la joie* kabi otlar ifodalayotgan semantik ma'no tarkibida ham ma'lum darajada holat ma'nosi mavjuddir.

Holat kategoriyasining bir elementli leksik birliklar orqali aks etish holati fransuz tilida ko'pincha ravish so'z turkumiga xos so'zlar orqali amalga oshadi. Ular ham o'z navbatida nutqda holatni ifodalovchi sof ravishlar hamda yasama ravishlar yordamida faollashadi. Masalan:

-sof ravishlar orqali - *Vous marchez vite. Il écrit mal encore.*

-yasama ravishlar orqali - *Il s'endormit tranquillement.*

*Elle a répondu doucement.*

Holatni ifodalovchi sifatlar yordamida hosil qilinadigan holat kategoriyasi fransuz tilida ma'lum bir shaxs yoki predmetning sifatliy holatini ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu holat fransuz tilida ko'pincha ot-kesimli va postpozitivli aniqlovchili gaplarda uchraydi. Masalan:

1) ot-kesimli gaplarda - *Il est petit. La route est très longue.*

2) postpozitivli aniqlovchili gaplarda - *Il s'endort les yeux ouverts.*

Fransuz tilida sifatdoshlar ham, xususan, hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlari ham tilda holat kategoriyasini ifodalovchi vositalardan biri sanaladi. Chunki, sifatdoshlarning yasalish jarayoni fe'llar bilan bog'liq bo'lganligi sababli fe'llardagi mavjud stativlik xususiyati sifatdoshlarga ham ko'chishi tabiiy. Masalan:

-Hozirgi zamon sifatdoshi: *J'ai lu "La Belle dormante".*

-O'tgan zamon sifatdoshi: *Le tableau accroché au mur est très grande.*

An'anaviy grammatikada fe'llarning doimo *harakat, holat* va *jarayonni* ifodalashi qayd qilinganligini inobatga olgan holda fe'llarning ham leksik-semantik turlari orasida holat ma'noli fe'llar mavjudligiga e'tibor qaratish lozim. Qolaversa, V.G.Gak ham fransuz tilida fe'llar leksik-semantik nuqtayi nazardan dinamik hamda stativ

fe'llarga bo'linishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Shunday ekan, fransuz tilidagi stativ fe'llarni ham holat kategoriyasini ifodalovchi navbatdagi vositalardan biri sifatida qabul qilish mumkin. Masalan: *Je me suis fatigué. Nous effrayeons. Il rougit.*

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tarkibida holat ma'nosini anglatuvchi otlar ham mavjud bo'lib, ular stativ fe'llarning yoki holatni anglatuvchi sifatlarning otlashishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, *rire – le rire, pleurer – les pleurs, courir – la cours, tranquil – la tranquillité, gros – la grossesse* va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan holatni ifodalovchi so'zlarning o'zi semantik jihatdan bir necha turlarga bo'linadi. Xususan, ularning orasidan ruhiy holatni, fizik holatni, harakat holatini ifodalovchi so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, ushbu holatni misollar bilan quyidagicha tavsiflash mumkin:

<b>Fransuz tilidagi holat kategoriyali so'zlarning semantik turlari:</b>		
ruhiy holatni ifodalovchi	fizik holatini ifodalovchi	harakat holatini ifodalovchi
<i>rire</i>	<i>grand</i>	<i>travailler</i>
<i>pleurer</i>	<i>petit</i>	<i>dormir</i>
<i>se fâcher</i>	<i>grosse</i>	<i>écrire</i>
<i>inquiéter</i>	<i>maigre</i>	<i>jouer</i>
<i>troubler</i>	<i>longue</i>	<i>se lever</i>

Yuqorida keltirilgan holat kategoriyasini ifodalovchi leksik birliklar bir elementli vositalar sanalib, ular hozirgi zamon fransuz tili grammatikasida holat ma'nosini ifodalashda keng tarzda qo'llaniladi.

### **3-§. Holat kategoriyasining FBlar orqali ifodalanishi.**

Fransuz tilida holat kategoriyasining aktualizasion vositalariga xos ikkinchi katta guruh ikki yoki undan ortiq elementli til birligidan iboratdir. Bular birinchi navbatda frazeologik birliklar, so'z birikmalari va yasalishi ikki qismdan iborat bo'lganligi uchun ravishdoshlarni o'z ichiga oladi. Bunda fe'lli va ravishli frazeologik birliklar tilda holat kategoriyasini ifodalovchi eng sermahsul

<sup>1</sup> Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М.: ВШ., 1986. –С. 191.

vositalardan sanaladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

<b>Holatni ifodalovchi fransuzcha frazeologik birliklar:</b>	<b>O'zbekcha talqini :</b>
<i>à pas feutres</i>	<i>ohista qadam bilan</i>
<i>à boulets rouges</i>	<i>beshafqat, ayovsiz</i>
<i>à gorge déployée</i>	<i>ovozining boricha, baralla</i>
<i>mourir á petit feu</i>	<i>asta – sekin jon bermoq</i>
<i>à grosses gouttes</i>	<i>terlab – pishib, qora terga botib</i>
<i>en sabots</i>	<i>achinarli ahvolda</i>
<i>mettre en peine</i>	<i>mushkul ahvolga qo'ymoq</i>
<i>être sous les armes</i>	<i>doim qurollanib yurmoq</i>

Hozirgi zamon fransuz tilida gapda hol vazifasida keladigan ravishli frazeologik birliklarni A.G.Nazaryan nopredikativ adverbial frazeologik birliklar, deb hisoblab, ularni tobe aloqali va tobe aloqasiz birliklarga ajratadi<sup>1</sup>. Masalan, *à toute force – bor kuchi bilan* (tobe aloqali); *à peine – zo'rg'a* (tobe aloqasiz).

Fransuz tili sintetik qurilishdan analitik qurilishga o'tish davridagi o'z tarixiy taraqqiyotida asta-sekinlik bilan analitik qurilishning yangi elementlarini o'zlashtirib oladi. Analitik qurilish elementi hisoblangan artikllarning qo'llanilishi ma'lum bir davrlar ichida umuman cheklangan. Hozirgi vaqtga kelib esa, aynan biz tadqiq qilayotgan frazeologik birliklar tarkibida ham artikllarning tushib qolishi kuzatiladi: *à poings fermes, à gorge déployée, à bride abattue, à boule vue, à tombeau ouvert, à main fermée, à pas feutres, à dépêche compagneon*.

Fransuz frazeologiyasida holat kategoriyasini ifodalovchi birliklarning yana bir turi fe'lli frazeologik birliklar hisoblanadi. Ular semantik jihatdan tahlil qilinganda ayrim farqli xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Xususan, bunday fe'lli frazeologik birliklar ifodalayotgan semantik ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linishi mumkin, ya'ni, sof holatni ifodalovchi va harakat orqali holatni ifodalovchi frazeologik birliklar. Masalan:

Sof holatni ifodalovchi FBlar:

*Être enrhumé comme un loup*- nihoyatda qattiq shamollamoq ;


<sup>1</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка.- М.: VIII.,1976. -С. 110.

### Harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

*Faire des yeux de basilic- nafrat ko'zi bilan qaramoq;*

Harakat orqali holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning o'zi yana bir necha turlarga bo'linadi: jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi, nutqiy faoliyat orqali holatni ifodalovchi, aqliy faoliyat orqali holatni ifodalovchi frazeologik birliklar.

Fransuz tilida holatni ifodalovchi FBlar xususidagi yuqorida qayd etilgan fikr mulohazalarni umumlashtirgan holda ularni quyidagicha struktur jadval orqali aniqroq namoyon etish mumkin:



Fransuz tilidagi erkin so'z birikmalari ham holat kategoriyasining aktualizasion vositalaridan biri hisoblanadi. Ular ko'pincha komparativlik asosidagi *comme* bog'lovchisi, *sans* predlogi va turli xildagi tobe aloqaga ega bo'lgan so'z birikmalari orqali amalga oshadi. Masalan:

-*sans* predlogi yordamida - *Il va sans hésiter.*

-*comme* bog'lovchisi yordamida - *Il courait comme un lapin*

-so'z birikmasi yordamida - *Ils se regardèrent d'un air étonné.*

Fransuz tilidagi ravishdoshlar ham tildagi holat kategoriyasining ifoda shakllaridan biri hisoblanadi. Masalan:

*Il attendit, en écoutant. "Oui", dit Pierre en souriant.*

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar asosan, ot, feʼl, sifat va ravish soʻz turkumlari orasida keng tarqalgan boʻlib, ularning har biri oʻziga xos struktur-semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, oddiy leksemalarga nisbatan yuqori leksik birlik, yaʼni soʻz birikmasi va frazeologik birliklar tilda holat kategoriyasining eng asosiy ifoda vositalari boʻlib hisoblanadi.

## 2.1. FRANSUZ TILIDA *FAIRE-OT* STRUKTURALI FBLAR

### 1-§. Fransuzcha *faire+ot* strukturali iboralarning leksik-semantik xususiyatlari.

Ma'lumki, frazeologik birliklar deyilganda, tilda tayyor holda mavjud bo'lgan, nutqqa shundayligicha olib kiriladigan, shaklan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan, mazmuni esa ko'chma ma'noga asoslangan til birliklari tushuniladi. Ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan frazeologik birliklar ma'lum bir tushunchani ifodalashi va bir so'zga ekvivalent bo'lishi mumkin. Odatda ular bir so'zli sinonimik ekvivalentga ega bo'ladi hamda sintaktik jihatdan gapning bir bo'lagini hosil qiladi.

Tilda frazeologik birliklar o'zlarining tuzilishiga ko'ra nihoyatda rang-barang olamni o'zida namoyon eta oladi. Ayniqsa, ularning tarkibiy elementlari o'rtasidagi semantik bog'lanishlar turlicha munosabatlarni ifodalashi orqali ajralib turadi. Bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so'zlar o'zlarining ma'no mustaqilligini ma'lum darajada, ya'ni kuchli yoki kuchsiz darajada saqlab qoladi. Frazeologik birliklarning nutqqa tayyor holda olib kirilishi ularning til hodisasi sifatida ta'riflashni taqozo etadi. Xususan, frazeologik birliklar ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan til birligi sifatida talqin qilinganda ularning aynan ana shu jihati e'tiborga olinadi. Shunday ekan, ularni struktur jihatdan o'rganish ham tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelgan. Ushbu o'rinda ularning bunday struktur xususiyatlarini *faire* fe'li ishtirokidagi frazeologik birliklar misolida ko'rib chiqmoqchimiz.

Fransuz tilida eng ko'p qo'llaniladigan *faire* fe'li ko'p funksiyali fe'llardan bo'lib, u fransuz tilida o'zining leksik ma'nosidan tashqari, grammatik ma'no berish yoki turli xil fe'lli iboralarni yasash uchun xizmat qiladi. Avvalo, *faire* fe'lining lug'aviy ma'nolariga e'tibor qilaylik. U quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

<b><i>faire</i></b> fe'lining lug'aviy ma'nolari:		
✓ qilmoq;	✓ mashg'ul bo'lmoq ;	✓ chorlamoq;
✓ tayyorlamoq ;	✓ tayinlamoq ;	✓ taklif qilmoq;
✓ yasamoq;	✓ chiqarmoq;	✓ sabab bo'lmoq ;
✓ bajarmoq ;	✓ ishlab chiqarmoq ;	✓ kashf qilmoq.

Bu fe'l frazeologik birliklar tarkibida kelganda o'zining yuqoridagi lug'aviy ma'nolarini yo'qotadi va birikma tarkibidagi boshqa so'zlar bilan birgalikda batamom yangicha ma'no kasb etadi. Masalan:

***faire balle*** - nishonga urmoq;

***faire ballon*** - qamoqda o'tirmoq.

Fransuz frazeologiyasida ***faire*** fe'li yordamida ko'plab frazeologik iboralar paydo bo'lgan. Ularning orasida aynan ***faire+ot*** shaklidagi va shu shaklda davom etuvchi iboralar o'ziga xos turg'unlik xususiyatiga ega bo'lgan iboralar sirasiga kiradi. Binobarin, ***faire+ot*** shaklidan ham ko'rinib turibdiki, ot so'z turkumiga xos so'zning okkazional tarzda, ya'ni grammatik qoidalarga bo'ysinmagan holda fe'ldan so'ng artiklsiz qo'llanilishi ularning sof turg'un birikma ekanligini ko'rsatadi. Masalan, quyidagi iboralarga e'tibor qilaylik:

*faire autorité* - obro'sidan (mansabdan) foydalanmoq;

*faire arme de tout* - barcha choralarni ishga solmoq;

*faire affaire* - kelishib olmoq;

*faire amitié avec qn-* birov bilan do'stlashmoq;

*faire banqueraute-tanazzulga uchramoq, sinmoq.*

Fransuz tilidagi bu turdagi iboralarni ularni tashkil qiladigan komponentlari soniga ko'ra ikki va undan ortiq komponentli turlarga ajratish mumkin. Masalan:

Ikki komponentli FBlar	O'zbekcha tarjimasi	Uch va undan ortiq komponentli FBlar	O'zbekcha tarjimasi
<i>faire loi;</i>	<i>xo'jayinlik qilmoq;</i>	<i>faire arme de tout ;</i>	<i>barcha choralarni ishga solmoq;</i>
<i>faire balle ;</i>	<i>nishonga urmoq;</i>	<i>faire maison neuve ;</i>	<i>tag-tubi bilan yangilamoq;</i>
<i>faire eponge;</i>	<i>hamma narsani o'ziga olmoq;</i>	<i>faire match nul ;</i>	<i>durang o'ynamoq ;</i>



<i>faire mouche ;</i>	<i>maqsadga erishmoq, mo'ljalga urmoq ;</i>	<i>faire main basse sur... ;</i>	<i>birovning adabini bermoq;</i>
-----------------------	---	----------------------------------	----------------------------------

Fransuzcha *faire+ot* ko'rinishida boshlanadigan uch va undan ortiq komponentli FBlar tarkibida predloglar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan, *de* predlogi bunday turdagi FBlar tarkibida juda keng tarqalgandir. Biroq *sur, en, avec* predloglari esa ayrim hollardagina uchraydi. Fransuz tilidagi *de* predlogining ham bir necha ma'nolari, ya'ni, yo'nalish ma'nosidagi - *dan*, tegishlilik ma'nosidagi - *ning*, hamda *haqida* kabi ma'nolari mavjud bo'lib, ushbu turdagi FBlar tarkibida esa faqat tegishlilik ma'nosidagi - *ning* qo'shimchasi o'rnida ishlatiladi. Masalan:

- faire acte de présence - xizmat yuzasidan hozir bo'lmoq ;*
- faire acte de bonne volonté-bajonidil xohlamoq;*
- faire acte de complaisance- muruvvat qilmoq ;*
- faire arme de tout- barcha choralarni ishga solmoq;*
- faire acte de déférence-yon bosmoq, hurmat qilmoq;*
- faire acte de contrition- tavba qilmoq.*

Keltirilgan bu misollardan *faire+ot* shaklidagi FBlar strukturasi o'z ichiga oid yana bir xususiyatni anglash mumkin. Bu xususiyat ularning *acte* so'zi ishtirokidagi ma'lum bir struktur modelga ega ekanligidan iborat. Ya'ni bu struktur model *faire + acte + de ...* strukturasi o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, *faire+ot* shaklidagi FBlar strukturasi ko'ra ochiq va yopiq strukturali FBlarga bo'linadi. Bunda ochiq strukturali FBlar ma'no nuqtayi nazardan tugallikka ega bo'lmaydi, yopiq strukturali FBlar esa tugal ma'noni aks ettira oladi. Biroq ular orasida yopiq strukturali FBlar fransuz frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan:

Yopiq strukturali FBlar :

- faire balle - nishonga urmoq;*
- faire ballon - qamoqda o'tirmoq.*

Ochiq strukturali FBlar :

- faire main basse sur... - birovning adabini bermoq;*
- faire oeuvre de... - o'zini xuddi ...dek tutmoq.*

Fransuz tilidagi *faire+ot* shaklidagi FBlarning semantikasiga e'tibor qilsak, ular orasida ko'p ma'noli, aynan ikki xil ma'noli FBlar ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan:

*Faire corps neuf (avec)* - **a)**kasallikdan so'ng sog'aymoq;  
**b)**semirmoq ;

*Faire main basse sur...* -**a)**birovning adabini bermoq ;  
**b)**birovga qo'pol muomala qilmoq;

*Faire naufrage* - **a)**taqdirga tan bermoq ;  
**b)**halok bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq;

*Faire état de...* - **a)**... ni hisobga olmoq ; **b)** ... ni hurmat qilmoq;


*Faire oeuvre de...* - **a)**o'zini xuddi ...dek tutmoq ;  
**b)**birovning xizmatini qilmoq.

## 2-§. Fransuzcha *faire+nom* strukturali FBlarga xos sinonimik substitutsiya holati.

Bunday turdagi frazeologizmlarda struktur tarkibdagi asosiy komponentlar, ya'ni fe'l so'z turkumiga tegishli *faire* fe'li hamda ot so'z turkumiga tegishli otlar o'zining sinonimik qatorlari bilan o'zaro almashinish – substitutsiya holatini uchratish mumkin. Tishunoslarning fikricha bunday almashinish natijasida leksik birliklar o'zlarining sof lug'aviy ma'nosini yo'qotishi mumkin<sup>1</sup>.

Fransuzcha *faire + nom* strukturali FBlarda fe'lning sinonimik variantlari bilan almashinish holatiga e'tibor qilaylik:

Bunday strukturali FBlar tarkibidagi *faire* fe'li quyidagi fe'llar bilan almashinishi mumkin:



Fransuzcha *faire+nom* strukturali FBlarda ikkinchi komponent – otning ham sinonimik qatorlari bilan o'rin almashinish holati:

<sup>1</sup> Gross G. Les expressions figées en français: noms composés et autres locutions / Gaston Gross. — Paris: Ophrys, 1996. — 124 p

1. *faire l'enfant – faire le bébé;*
2. *faire un bout de toilette – faire un brin de toilette ;*
3. *faire un brin de cour – faire un doigt de cour ;*
4. *faire le beau – faire la belle.*

Bunday substitutsiyali variantlanish holatiga uchragan FBlar tarkibiy o'zgarishlaridan qat'iy nazar o'zlarining asosiy frazeologik ma'nolarini o'zgartirmaydi. Fransuz frazeologiyasida aynan *faire+nom* strukturali FBlar tarkibida asosan, sinonimik substitutsiya uchraydi, biroq antonimik substitutsiya esa deyarli uchramaydi.

Bunday sinonimik substitutsiya natijasida *faire+nom* strukturali FBlarga xos variantlanish hodisasi paydo bo'ladi. Binobarin, FBlar tarkibidagi ma'lum bir komponent shu turkumdagi boshqa bir komponent bilan almashishiga qaramasdan, frazeologik ma'noda o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Variantlanish holati nafaqat mustaqil ma'noli leksik birliklarda, balki, yordamchi unsur sanalgan determinativlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan:

1. Artikllar orqali:
  - faire un dépôt - faire le dépôt ;*
  - faire les avances - faire des avances ;*
  - faire le bout – faire les bouts ;*
  - faire la chambre - faire les chambres ;*
2. Artikl va egalik sifatleri orqali:
  - faire le capon - faire son capon ;*
  - faire une déclaration - faire sa déclaration ;*
  - faire la cuisine - faire sa cuisine ;*
3. Artikl va predlog orqali:
  - faire la morale - faire de la morale ;*

Xulosa tariqasida shularni qayd etish mumkinki, *faire+nom* strukturali FBlar tarkibini tahlil qilish orqali ulardagi okkazional xususiyatlarni, sinonimik substitutsiya holatini va uning natijasida paydo bo'ladigan variantlanish hodisasini tadqiq etish mumkin. FBlni bunday struktur modellashtirish orqali tadqiq etish tilshunoslarni o'tgan asrdan buyon qiziqtirib kelishiga qaramasdan, fransuz frazeologiyasida hanuz o'z tadqiqini kutayotgan boshqa turli xil modellar mavjud bo'lib, ularni ketma-ket izchil tarzda o'rganish fransuz frazeologiyasi muammolari doirasini ma'lum darajada toraytirishga xizmat qiladi.

Ma'lum bir kichik obyekt misolida bu kabi frazeologik muammolarni tadqiq etish tildagi ayrim lingvistik muammolar yechimini topishga yordam beradi hamda FBlarga xos struktur xususiyatlarning frazemalar ichki sistemasidagi semantik jihatlarini kashf etish imkonini beradi. Shuningdek, FBlarni modellashtirish jarayonida, qolaversa, ularning hali o'rganilmagan struktur turlarini tadqiq qilish jarayonida keng imkoniyatlar eshigini ochishga yordam beradi.

## 2.2. FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA REDUPLIKATSIYA HODISASI

### 1-§. "Reduplikatsiya" hodisasi va uning o'ziga xos turlari.

Turli tizimdagi barcha tillarga xos hodisa sifatida keng tarzda tadqiq etilgan "takroriy so'z" yoki "takroriy shakl" tushunchalari tilshunoslikda "reduplikatsiya" deb nomlanib, u lotincha *reduplicatio* - *ikkilanish, qo'shaloqlanish* ma'nosini anglatgan holda so'zdagi dastlabki bo'g'inni yoki o'zakni, butun so'zni takror qo'llash bilan tilda takroriy so'z yoki grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa bo'lib hisoblanadi<sup>1</sup>. Mazkur til hodisasining turli xil shakllari mavjud bo'lib, ular til birliklarining, xususan, fonema, morfema va so'z kabilarning so'z birikmasi, gap, abzats va matn tarkibida takror tarzda qo'llanilishi orqali namoyon bo'ladi hamda u takrorlanish, davomiylik va kuchaytirish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Bu xususda O.S. Axmanova shunday ta'rif beradi: *"ПОВТОР (удвоение, редупликация, повторение) ..., (реприза) фигура речи, состоящая в повторении звуков, слов и выражений в известной последовательности"*<sup>2</sup>

Ushbu til hodisasi aynan frazeologik birliklar misolida tadqiq etilsa, ularning frazeologik ibora yasash jarayonida eng sermahsul vosita ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Binobarin, frazeologik birliklarda takroriy elementlarning mavjudligi ularga xos lingvomadaniy, lingvodidaktik, shuningdek, leksik-semantik va stilistik xususiyatlarni tadqiq etishga yordam beruvchi asosiy

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. -Б. 128. / [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

<sup>2</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: СЭ, 1969. -С. 407 / [https://classes.ru/Akhmanova/source\\_51.htm](https://classes.ru/Akhmanova/source_51.htm)

fenomenlardan biri sanaladi<sup>1</sup>. Shunga ko'ra N.M.Shteynberg, o'zining "Редупликация в современном французском языке" nomli monografiyasida mazkur hodisaning fransuz tilidagi umumiy shakllari xususida kengroq ma'lumot berib o'tgan<sup>2</sup>. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar frazeologiyada takroriy elementlarni modellashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan<sup>3</sup>.

Tilda lingvistik birliklarning ma'lum bir doirada takroriy tarzda qo'llanilishining o'ziga xos bir necha shakllari mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan o'zlarining xilma-xil fonetik, leksik, grammatik va struktur xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra ularni turli xil shakllariga qarab turlicha turkumlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ayrim fransuz tilshunoslarining qarashlari nuqtayi nazaridan reduplikatsiya o'ziga xos quyidagi turlari bilan o'zaro farqlanadi<sup>4</sup>:

Reduplikatsiya shakllari:	Shaklning lingvistik mohiyati:	Misollar (FBlar):
<b>Prosonomaziya</b>	Ma'lum bir gap yoki ibora tarkibida bitta so'zning uyushgan holda takror kelishi;	<b>-Aussitôt dit, aussitôt fait.</b> (Aytilgan so'z - otilgan o'q.)
<b>Poliptota</b>	Bir xil o'zakli so'zning yoki bitta fe'lning turli shakllarda qo'llanilishi;	<b>Vous avez la serrure, nous avons la clef.</b> (Ikki yorti bir butun.)
<b>Omeoptota</b>	Ma'lum bir gap yoki ibora tarkibida morfo-sintaktik shakllarning grammatik parallelizm asosida takrorlanib kelishi ;	<b>Qui aime Martin, aime son chien, qui aime le cavalier, aime l'écuyer.</b> (Meni sevsang, itimni ham sevasan.)
	Takrorlanuvchi elementning turli xil	<b>De grand seigneur, grande rivière et</b>

<sup>1</sup> Панков Ф. И., Овтина Е.А. Языковая картина мира и механизм редупликации: фрагмент лингводидактической модели русской грамматики. / Pedagogical Journal. 2018, Vol. 8. Is. 1A. – С. 140.

<sup>2</sup> Н.М.Штейнберг. Редупликация в современном французском языке. -Ленинград : Изд. Ленингр. ун-та, 1969. – С. 74.

<sup>3</sup> Молчкова Л.В. Модели повтора во фразеологии // Актуальные вопросы современной науки (Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение» ), №28. – Новосибирск, 2013. –С. 194-202. eLIBRARY ID: 20273065.

<sup>4</sup> Bacry P. Les Figures de style et autres procédés stylistiques. -Paris, Belin, coll. « Sujets », 1992, -P.74.

<b>Antanaklaza</b>	ma'noda takror qo'llanilishi;	<i>grand chemin, fuis, si tu peux d'être voisin-yomon o'tliq bo'lishdan uzoqroq yur.</i>
<b>Epanadiploza</b>	Ma'lum bir so'zning gap yoki she'riy satrlar boshida hamda oxirida takror kelishi;	<i>L'abîme appelle l'abîme. – Yo'qchilik yo'qchilik chaqiradi. L'âne frotte l'âne – Gadoning dushmani gado bo'ladi.</i>

## 2-§. Reduplikativ FBlarning leksik xususiyatlari.

Tildagi takrorlanish hodisasining bu kabi ko'rinishlari yuqoridagi kabi frazeologik birliklarga nisbatan kuzatilganda, ularga xos xilma-xil takroriy elementlar mavjudligi va ularda o'ziga xos shakliy xususiyatlar aks etishi ko'zga tashlanadi. Masalan, fransuzcha frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlarning takrorlanish holati mustaqil ma'noli so'zlar misolida juda keng tarqalgandir. Bunda asosan, ot, fe'l, sifat, son kabi so'z turkumlari shular jumlasidandir. Masalan, ot so'z turkumiga xos so'zlarning *epanadiploza*, fe'l so'z turkumiga xos so'zlarning esa *poliptota* shaklida takroriy tarzda kelishi fransuz frazeologiyasida juda keng tarqalgan.

Shuningdek, frazeologik birliklar tarkibida sifat va ravish so'z turkumiga xos so'zlarning takroriy tarzda qo'llanilishi *prosonomaziya* shaklida ko'p uchraydi. Masalan:

*A bon salut, bon accueil. – Salomiga yarasha aligi.*

*A rude âne rude anier. – Ko'p gap eshakka yuk.*

*Bon champ sémé, bon blé rapporté – Nimani eksang shuni o'rasan.*

Bundan tashqari, fransuz tilidagi turli xil determinativlar, xususan, artikllar, egalik va ko'rsatish sifatlari hamda bog'lovchi va predloglar ham *prosonomaziya* shaklida takrorlanib kelishi mumkin. Masalan:

*avoir des si et des mais – har xil bahona topmoq;*

*avoir son bon et son mauvais côté -yaxshi va yomon tarafga ega bo'lmoq;*

*ne connaitre ni le blanc ni le noir - oq-qorani ajrata olmaslik;*

*par bonds et par sauts – ko'z ochib yumguncha ;  
sans pilote et sans boussole – o'zini idora qilaolmaslik ;  
de bric et de broc – aralash – quralash...*

Tilshunoslikda bu kabi takrorlanish hodisasini tilning barcha birliklarida kuzatish mumkin. Xususan, fonema, morfema, leksema, qolaversa, so'z birikmasi va gaplarning ma'lum bir distributiv vaziyatlarda takroriy tarzda qo'llanilishi ham shular jumlasidandir.

Bir frazeologik birlik tarkibida fonemalarning ham takroran qo'llanish hodisasi mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda *alliteratsiya* va *assonans* nomlari bilan ataladi. Undosh tovushlarning takrorlanishi *alliteratsiya* deb ataladi. Masalan:

*être belle á la chandelle – chiroyda tengsiz bo'lmoq.*  
[ɛtr - bɛl - a -la - ʃan -dɛl ]

Unli tovushlarning takrorlanishi *assonans* deb ataladi. Masalan:

*Une faute avouée est à demi pardonnée.- Egilgan boshni qilich kesmas.* [yn - fot - a -vu -e -e -də-mi -par -do -ne].

Fransuz tilida ham boshqa tillardagi kabi ma'lum bir frazeologik birlikning tarkibida albatta, ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashishi shart. Bunday birliklar gapdan yaxlitligicha ahqlanishi mumkin bo'lgan va frazeologik ma'no kasb etadigan sintaktik birlik emas, balki semantik birlik sifatida talqin qilinadi. Shu sababli frazeologik iboralarning birikmaga va gapga tenglik xususiyati haqida gapirilganda iboraning ichki grammatik tuzilishi inobatga olinadi, ya'ni ibora tarkibini grammatik jihatdan tahlil qilish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi grammatik bog'lanish o'z kuchini yo'qotmaydi, vaholanki, undagi so'zlar o'rtasidagi munosabat faqat ichki munosabat, ya'ni shu ibora doirasidagi munosabat hisoblanadi. Fransuz frazeologik birliklaridagi takroriy elementlarni morfologik jihatdan tahlil qilganimizda bunday frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan takroriy elementlarning nafaqat aynan bir xilligi, balki bir o'zakli reduplikativ elementlarning turli xil grammatik shakllari orqali ham ifodalanishi ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ularning rod va sonda moslashish hodisasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida sifat so'z turkumiga oid bir so'z ikki marta qo'llanilganda ikki xil rodga moslashgan shakli ham uchraydi.

Bu xususda otli sintagmalarga xos quyidagi moslashuv holatlari orqali hosil bo'lgan reduplikatsiya hodisasini kuzatish mumkin :

1.FBlarda otlar oldidan qo'llaniladigan determinativlar reduplikatsiyasi ularning rod va soniga ko'ra moslashishi asosida yuzaga keladi. Ularga son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin. Masalan:

Fransuzcha FB :	O'zbekcha talqini:
<i>voilà <b>une</b> grande cage pour <b>un</b> petit oiseau</i>	-yo'q bolaga tut beshik;
<i>ne former qu'<b>un</b> coeur et qu'<b>une</b> âme ;</i>	-ko'ngilni ko'ngilga qo'yib yashamoq ;
<i>casser <b>les</b> jambes et <b>les</b> bras à qn</i>	-birovni ipsiz bog'lab ketmoq;

2. Aniqlovchi vazifasidagi sifatlar reduplikatsiyasi ham moslashish (*l'accord de l'adjectif épithète*) natijasida hosil bo'lishi mumkin. Bunda otni aniqlab kelayotgan sifat otning rod va son ko'rsatkichlarini o'zida namoyon qiladi. Masalan :

Fransuzcha FB :	O'zbekcha talqini:
<i><b>bon</b> jour, <b>bonne</b> œuvre;</i>	-kun xayrli boshlansa, ish unumli bo'ladi ;
<i>les <b>bons</b> bras font les <b>bonnes</b> lames;</i>	-chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.
<i>à <b>petit</b> trou, <b>petite</b> cheville ;</i>	-uzukka ko'z qo'ygandek;
<i>à <b>nouvelles</b> affaires, <b>nouveaux</b> conseils ;</i>	-yangi ish – yangi tashvish.
<i>la <b>belle</b> plume fait le <b>bel</b> oiseau ;</i>	-kiyim kishiga zeb beradi;
<i>De <b>grand</b> seigneur, <b>grande</b> rivière et <b>grand</b> chemin, fuis, si tu peux d'être voisin ;</i>	-yomon otliq bo'lishdan uzoqroq yur;

Bundan tashqari, FBlar tarkibidagi takroriy otlarda ham ikki xil rodga takrorlanish hollari ko'p uchraydi. Masalan:

Fransuzcha FB :	O'zbekcha talqini:
<i>garder à qn un <b>chien</b> de sa <b>chienne</b></i>	-birovga upka-gina qilmoq;



<i>chaque crapaud trouve sa crapau</i> <b>de</b> ;	-dunyoda hamma narsa juft-juft qilib yaratilgan;
<i>réponse du berger à la bergère</i> ;	-munozarada oxirgi so'zni gapirmoq;

Shuningdek, rod kategoriyasida o'zgarib keluvchi takroriy elementlar qatorida olmosh so'z turkumiga xos so'zlar ham FBlar tarkibida sermahsul sanaladi. Masalan: **chacun avec sa chacune-hamma o'zi bilan o'zi**.

Frazeologik birliklar tarkibidagi takroriy elementlarga xos moslashuv hodisasi nafaqat rod kategoriyasi, balki, son kategoriyasi orqali ham ko'zga tashlanadi. Lekin ularning sonda o'zgaruvchanlik holati yuqorida tahlil qilingan rodga o'zgaruvchanlik holatiga nisbatan ancha kam uchraydi. Bunday holat asosan, FBlar tarkibidagi ayrim ot va sifatlarda ko'zga tashlanadi. Masalan:

<b>Fransuzcha FB :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>avoir plus d'une corde, plusieurs cordes</i> ;	- har qanday usul bilan maqsadga erishmoq;
<i>sottes gens, sotte besogne</i> ;	- ahmoq kalladan ahmoqona fikr.


Shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar tarkibidagi takroriy elementlar har qanday tilda ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarni yuqoridagi singari qarama-qarshi tarzda qiyoslab o'rganish tadqiqot obyektni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi<sup>1</sup>. Binobarin, FBlardagi takroriy elementlar orqali moslashuv hodisasini tahlil qilish orqali ushbu FBlar reduplikatsiya shakllaridan *prosonomaziya* shakliga mansubligini aniqlash mumkin. Shuningdek, *prosonomaziya* usuli asosan, *ot, sifat, olmosh* so'z turkumlarining moslashishi orqali namoyon bo'ladi.

### **3-§. FBlar tarkibidagi predloglarning reduplikativ shakllari.**

Fransuz frazeologiyasida takroriy elementlar tahliliga e'tibor qilar ekanmiz, ularda predloglarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan takroriy elementlarning predloglar ishtirokidagi reduplikativ shakllarini o'rganish maxsus izlanishni talab etadi, ya'ni FBlar tarkibidagi takror elementlarni bir-biri bilan bog'lovchi

<sup>1</sup> Grevisse M., Goosse A. Le Bon Usage. - Bruxelles : Duculot, 2007. - 529 p.

predloglar frazeologiyada simmetrik takrori hosil qilishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunda simmetriya o'qi vazifasini ma'lum bir predlog va uning o'ng hamda chap qurshovlarini esa bir xil leksik-grammatik maqomdagi takroriy so'zlar tashkil etadi. Masalan, hammaga mashhur fransuzcha *tête à tête* iborasini olaylik. Ushbu iborada "absolyut simmetrik reduplikatsiya" o'z aksini topgan. Ushbu holatni bunday nomlashga asosiy sabab shundaki, simmetriya o'qini *à* predlogi tashkil etsa, uning o'ng hamda chap qurshovlarini esa bir xil leksik-grammatik maqomdagi takroriy so'z, ya'ni *tête* so'zi egallaydi. Ushbu iboradagi *tête* so'zini bir xil leksik-grammatik maqomdagi so'z deyishimizga sabab, reduplikatsiyaning *poliptota* va *antanaklaza* kabi turlarida takrorlanish hodisasi bir xil leksik-grammatik maqomdagi so'zdan iborat bo'lmasligi ham mumkin, ya'ni, *poliptota* takror so'zning grammatik, *antanaklaza* esa leksik-semantik ma'nolari turlicha ekanligi bilan asoslanadi. Simmetriya o'qining ikki tomonidagi qurshovlari o'zaro almashtirilganda ham baribir bir xil ma'no ifodalanadi. Ushbu *tête à tête* iborasining "absolyut simmetrik reduplikatsiya" namunasi ekanligini quyidagi chizma orqali shunday izohlash mumkin:



Bunday simmetrik reduplikatsiya fransuz frazeologiyasida *à*, *en*, *de*, *contre* kabi predloglar orqali amalga oshadi. Masalan, *à* predlogi ishtirokidagi FB'larga quyidagi iboralarni keltirish mumkin:

Fransuzcha FB :	O'zbekcha talqini:
<i>bord à bord;</i>	- <i>qarama-qarshi;</i>
<i>botte à botte;</i>	- <i>yonma-yon ;</i>
<i>but à but;</i>	- <i>teppa - teng ;</i>
<i>bec à bec;</i>	- <i>yuz-yuzma;</i>

<i>mettre bout à bout;</i>	- ichak-qorin bo'lmoq;
<i>parler à qn bouche à bouche;</i>	-yuzma -yuz gaplashmoq;

Shuningdek, à predlogi fransuzcha maqollar tarkibida ham simmetrik reduplikatsiya hosil qilishda ancha sermahsul vosita sanaladi:

<b>Fransuzcha maqollar :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>Corsaires à corsaires, l'un l'autre s'attaquant ne font pas leurs affaires.</i>	-Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.
<i>Pas à pas, on va loin.</i>	-Qimirlagan qir oshar.
<i>Quitte à quitte et bon amis;</i>	-Hisobli do'st ayrilmas.

Bundan tashqari, fransuz tilidagi boshqa *contre, pour, en* kabi predloglar ham ayrim FBlar tarkibida simmetrik reduplikatsiya hosil qila oladi. Masalan:

<b>Fransuzcha FBlar :</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>Corsaires contre corsaires, n'est pas bon à faire doublure.</i>	-O'g'rinikidan o'g'irlash vaqtni bekorga sarflashdir.
<i>Fin contre fin n'est pas bon à faire doublure.</i>	-Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur.
<i>rendre bec pour bec ;</i>	-muloyimlik bilan javob qilmoq;
<i>de branche en branche;</i>	-shoxdan-shoxga ;
<i>aller de mieux en mieux;</i>	-hayol surmoq ;
<i>d'âge en âge;</i>	- avloddan avlodga; nasldan naslga ;
<i>passer de bouche en bouche;</i>	- og'izdan - og'zga o'tmoq.

Yuqoridagi tahlil turlaridan shuni ta'kidlash mumkinki, simmetrik reduplikatsiya hosil qilish jarayonida *à, contre, pour, en* kabi predloglar asosan, otlarni takrorlagan holda faqat ravishli FBlarni hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular maqollarda ham simmetrik reduplikatsiya hosil qilish vositalari bo'lib hisoblanadi.

Xulosa tariqasida shuni qayd etish lozimki, fransuz frazeologiyasida reduplikatsiya hodisasining yuqoridagi singari hali

tadqiq etilmagan qirralari anchagina bo'lib, ularni alohida tadqiqot obyekti doirasida o'rganish ayrim frazeologik muammolar yechimiga sabab bo'lishi mumkin.

## 2.3. FRANSUZ TILIDA LEKSIK VA FRAZEOLOGIK

### ANTONIMIYA HODISASI

#### 1-§. Leksik antonimiya va uning ifodalanish xususiyatlari.

Til universaliyalaridan biri sanalgan antonimiya hodisasi qarama-qarshi turish kategoriyasini o'zida aks ettirgan holda tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik shakllar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, ya'ni antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu leksik hodisaga nisbatan keltirilgan quyidagi ta'riflar ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir: *Antonymie : relation entre deux mots de sens opposée<sup>1</sup>; Le terme d'antonymie est, en générale, utilisée dans les dictionnaires pour suggérer qu'il y a un relation d'opposition ou de contrariété entre deux termes<sup>2</sup>.*

V.Fon Gumboldt tilshunoslik fani problematikasi, predmeti va shegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim bo'lib, u tilshunoslikni tarixiy, falsafiy, etnografik kabi fanlar qatoriga qo'shishga harakat qilgan. Uning ta'rifisha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir<sup>3</sup>. Shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning asosiy mohiyatini tushunishda antonimik (qarama-qarshi) metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mohiyatan grek tilidan o'zlashgan *anti* (*"en fase de, contre et de onoma"* signifiant *"nom" ou "mot"*) so'zi qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi<sup>4</sup>. Til universaliyalaridan biri sanalgan antonimlar asosini esa antiteza tashkil etadi. Binobarin, antiteza

---

<sup>1</sup> M.F.Mortureux. *La lexicologie entre langue et discours*. Armand Collin VUEF, 2001. –P. 188.

<sup>2</sup> M.Arrivé, F.Gadet, M.Galmiche. *La grammaire d'aujourd'hui*. –Paris, 1986. –P. 66.

<sup>3</sup> [www.mnogobook.ru](http://www.mnogobook.ru) / Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — Москва: ОАО ИГ «Прогресс», 2000. - 400 с.

<sup>4</sup> Sylvie Blanchard, Dominique Korach, Jean Pencreach, Mèriem Varone. *Vocabulaire*. - Paris : Editions Nathan 1995, -P. 169.

badiiy asarlarda keng qo'llaniluvchi hamda ma'no jihatdan ifodali g'oyalar va so'zlarning tabiiy oppozitsion usulidir<sup>1</sup>. Masalan :

*“Rien n'est si dangereux qu'un ignorant ami;*

*Mieux vaudrait un sage ennemi.”* (Jean de LA FONTAINE *Fables*)<sup>2</sup>.

Fransuz tilida antonimlarning yasalish usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki so'zga bir xil suffiksning qo'shilishi orqali:

**Anglophile**- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlash.;

**Anglophobe**- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam;

**centririète**-markazga intiluvshi;

**centrifuge**-markazdan qochuvchi.

Bu misollarda sifatlarning almashinishi orqali antonimik so'zlarni yasash mumkinligi ifodalangan.

Bundan tashqari bir o'zakli so'zga **in-/il-/im-/ir-** kabi prefikslarning qo'shilishi orqali ham antonim so'zlarni hosil qilish barcha tillarga xos sermahsul usullardan biridir. Masalan: *capable-qobiliyatli / incapable-qobiliyatsiz; lettré-savodli / illettré-savodsiz; prudence-ehtiyotkorlik / imprudence-ehtiyotsizlik; réel-real / irréel-noreal;*

Shuningdek, **mal-/mé-, dis-, a- /an-** prefikslarining sifat yoki ot oldidan qo'shilishi orqali ham antonimik so'zlarni hosil qilish mumkin. Masalan: *aimé-sevilgan / mal-aimé-sevilmagan, yomon ko'rilgan; entente-kelishuv / mésentente-kelishmaslik; courtois-xushmuomalali / discourtois-muomalasiz; normal-normal, o'rtacha / anormal-odatdagidek emas ;*

Fransuz tilida antonimik so'zlar aynan fe'llar misolida ko'rib chiqilganda, ularning **dé-/dés-, mé-/més-** kabi prefikslar orqali hosil bo'lishi eng sermahsul usullardan biri sanaladi. Masalan: *Faire-qilmoq, bajarmoq / défaire-buzmoq, s'intéresser-qiziqmoq / se désintéresser-befarq qaramoq, connaître-tanimoq, bilmoq / méconnaître-tanimaslik, bilmaslik.*

Bundan tashqari, fransuz tilida antonimlar yasashning shunday bir turi mavjudki, ular prefikslar o'rnida ishlatilib, ma'no jihatdan ham ancha antonimik xususiyatlarni o'zlarida aks ettiradi. Masalan,

<sup>1</sup> Abdouchoukourova L.A. Stylistique du français modern. – Tachkent, 2004 . –P. 30.

<sup>2</sup> [beq.ebooksgratuits.com](http://beq.ebooksgratuits.com) // Lafontaine-fables.

quyidagi misollarga e'tibor qilaylik, ular **hypo/hyper, sous/sur, micro/macro...**kabi antonimik prefikslarni o'z ichiga oladi. Masalan:

**Hypocalorique**-kam kaloriyali,

**Hypercalorique**-ko'p kaloriyali;

**Sous-estimer**- past baho bermoq, nazar-pisand qilmaslik ;

**Sur-estimer**- ortiqcha, yuqori baho bermoq ;

**Microcosme**-mikroskop orqaligina ko'rinadigan kichik unsur;

**Macrocosme**- koinot, olam;

Son oppozitsiyasini yasashda **mono/poly, uni/omni, uni/bi** prefikslarining o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Masalan:

**Monogame**-bir nikohli, monogam, bir jinsli;

**Polygame**-ko'p xotinli, ko'p nikohli;

**Unidirection**-yagona boshqaruv ;

**Omnidirection**-ko'p tarmoqli boshqaruv ;

**Unilateral**-bir tomonlama, bir tomonga yo'naltirilgan;

**Bilateral**-ikki tomonlama, ikki yoqlama;

Ikki hodisa o'rtasidagi qarama-qarshi holatnini yuzaga keltiradigan yana shunday prefiksli shakllar mavjudki, ular berilgan so'zning ma'no ko'lamini o'zgartirishga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat : **exo / endo, extra / intro, intra / intro, ex / in, im, infra / supra, super**. Ularga shunday misollar keltirish mumkin:

**Exogène**-(qui provient de l'extérieur);

**Endogène**-(qui prend naissance à l'intérieur);

**Extraverti**-odamga qo'shiladigan, ulfat bo'ladigan, dilkash;

**Introverti**-odamovi, o'zi bilan o'zi ovora bo'luvchi odam;

**Exporter**-jo'natmoq;

**Importer**-qabul qilmoq;

**Infrastructurale**- ishki struktural;

**Superstructurale**- tashqi struktural.

Fransuz tilida vaqt konseptini ifodalovshi oppozitsion prefikslar ham mavjud. Ular fransuz tilida **néo/paléo, anti/post, avant/après, pro/retro** kabi prefikslardir:

**Néolithique**-neolitik yangi tosh davri;

**Paléolithique**-paleolit, eng qadimgi tosh davri;

**Antidater**-o'tgan, o'tib ketgan sana bilan rasmiylashtirmoq;

**Postdater**-oldingi sana bilan belgilamoq;

**Avant-guerre**-urushdan oldin;

*Après-guerre-urushdan keyin;*

*Prospective-jamiyatning ertangi rivojiga oid;*

*Retrospective-o'tmishga qaratilgan, o'tmishga oid.*

Shu tariqa fransuz tilida antonimik so'zlarning yasash usullaridan prefiksasiya usuli juda keng tarzda mavjud ekanligini ta'kidlash o'rinlidir.

Yuqorida keltirilgan ushbu holatlar fransuz tilidagi leksik antonimiya hodisasining morfemik tarzda yasash usullari bo'lib sanaladi.

## **2-§. Frazologik antonimiya hodisasi.**

Leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yiladi. Xuddi ushbu holat frazeologik birliklar ifodalaydigan semantik ma'nolarga nisbatan qo'llanilganda, ikki frazeologik birlik o'tasidagi qarama-qarshi ma'no, ya'ni frazeologik antonimiya hodisasi paydo bo'ladi. Masalan:

<i>n'avoir pas froid aux yeux;</i>	→	<i>avoir du sang de poulet;</i>
Ma'nosi : <i>être courageux ;</i>	→	Ma'nosi : <i>être lâche, poltron,</i>
Tarjimasi : <i>mard, jasur</i>	→	<i>sans énergie;</i>
<i>bo'lmoq;</i>		Tarjimasi : <i>qo'rqqoq,, lapashang bo'lmoq;</i>

Agar fransuz tilidagi *courageux* va *lâche* so'zlari o'rtasidagi qarama-qarshi ma'nosini so'zlararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda *leksik antonimiya*, deb hisoblasak, *n'avoir pas froid aux yeux;* hamda *avoir du sang de poulet;* kabi frazeologik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshi ma'noning frazeologik iboralararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda *frazologik antonimiya* hodisasi, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Biroq, frazeologiyada leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, bunda ushbu hodisa ikki qarama-qarshi ma'noli frazeologik birlik o'rtasida amalga oshmaydi, balki, bitta frazeologik birlik tarkibidagi ikki qarama-qarshi ma'noli so'zlar o'rtasida amalga oshadi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

*Qui ne travaille pas, ne mange pas. – Ishlamagan tishlamaydi.*

*Avoir de bon et mauvais quarts d'heures.-Bir qarasa yomon, bir qarasa yaxshi bo'lmoq.*

Frazeologiyadagi bu kabi leksik antonimiya hodisasi frazeologik iboralarni tashkil etuvchi elementlardan mustaqil ma'noli so'zlar, yordamchi so'zlar yoki so'z birikmalari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Xuddi shunday nuqtayi nazardan olib qaraganda, fransuz frazeologiyasida leksik antonimiya hodisasi juda keng tarqalgan bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibidagi leksik qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Frazeologik antonimiya umumlug'at antonimiyasiga xos muammoning xususiy bir bo'lagi sifatida o'rganiladi. Shunday ekan, ushbu semantik kategoriyaga tegishli aloqalarning xususiyatlari to'g'risidagi muammoning paydo bo'lishi tabiiydir.

Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish ma'no jihatdan zid tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi. Umumiy kategorial tushunchalarni o'zida aks ettirgan antonimik frazeologik birliklarning mantiqiy asosini bir-biriga teskari bo'lgan tushunchalar tashkil etadi. Shu tariqa antonimiya hodisasi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligini taqozo etadi va tilda til birliklarining semantik qarama-qarshi munosabatlarini kuzatadi<sup>1</sup>.

Tilshunoslikda frazeologiyaga doir muammolar avvalambor, A.V.Kunin, N.N. Amosovlar tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa, antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab shiqilgan<sup>2</sup>. Biroq, hozirgi kunda bu xususdagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning o'zbekcha talqini nuqtayi nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlash yanada dolzarb sanaladi.

---

<sup>1</sup> Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. – М., 2000. - №4. – С. 56-57.

<sup>2</sup> Алехина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке. (Пособие для студентов и преподавателей языковых и неязыковых вузов). - Челябинск, 1968. - 43 с.



Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan qarama-qarshi tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi<sup>1</sup>.

Frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi tadqiqot obyekti paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon fransuz tilida qolaversa, boshqa bir qator tillarda leksik va frazeologik antonimlar hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o'rganish tilda sistem aloqalarni o'rnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni o'rganishni taqozo etadi.

Fransuz tili frazeologiyasida antonimiya hodisasi insonlarning his-tuyg'ulari va ichki kechinmalarini ifodalash uchun keng qo'llaniladi. Masalan: *être content*-xursand bo'lmoq

*être mécontent* -xafa bo'lmoq

Aynan simmetrik tarzda qarama-qarshi bo'lgan antonim FBlar ma'nosi jihatidan ham mazmuni jihatidan ham bir-biriga mos keladigan antonimlar hisoblanadi. Masalan:

*Être fort de* - kuchli bo'lmoq

*Être faible de* - kuchsiz bo'lmoq

*Avoir la main heureuse* - omad kulib boqmoq

*Avoir la main malheureuse* - omad yuz o'girmoq

*Avoir peur de* - qo'rqmoq

*Avoir du courage* - jasur bo'lmoq

Aynan simmetrik bo'lmagan antonimiya, ya'ni bunga mazmun jihatdan qandaydir farq qiladigan antonimlar kiradi. Masalan:

*avoir le coeur noyé* - juda ko'p suv ichmoq / juda chanqamoq ;

*avoir le gosier sec* - suvsizlikdan chanqamoq ;

*vivre en seigneur* - boy-badavlat yashamoq ;

*être dans le lac*- iqtisodiy tang ahvolda qolmoq.

---

<sup>1</sup> Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке//филологические науки. М., 1999, №6, -С. 37-38 .

### 3-§. Komparativ FBlar antonimiyaning asosiy vositasi sifatida.

Aynan simmetrik bo'lgan antonim FBlar va aynan simmetrik bo'lmagan antonim FBlar fransuz frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, fransuz tili frazeologik birliklari o'rtasidagi antonimiya hodisasini o'rganishda asosan fransuzcha "comme" o'xshatish vositasi orqali ifodalangan frazeologik birliklar muhim o'rin tutadi.

Fransuzcha "comme" komponentli frazeologik birliklar antonimik ma'no hosil qilishning eng sarmahsul vositalaridan biri sanaladi. Fransuz frazeologiyasida bunday frazeologik birliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan: *fort comme un boeuf* ; *rond comme une boule*; *fleurer comme baume*; *écrire comme un ange*; *froid comme (du, le, un) marbre*; *mince comme un fil* ; *paresseux comme un Loir*; *sobre comme un chameau*; *doux comme un agneau*; *mou comme du cotton*; *savant comme un livre*; *muet comme une carpe*.

Fransuz tilida "comme" komponenti ishtirokidagi bunday frazeologik birliklar asosan sifatli va fe'lli frazeologik birliklarni tashkil etadi. Ma'lumki, antonimik ma'no hosil qilish morfologiyada ham asosan sifatlar orasida juda keng tarqalgan. Biroq ularni o'zbek tiliga talqin qilishda aynan ulardagi o'xshatish komponentlari bo'yicha ancha e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Tilda mavjud o'xshatish vositalari asosan ma'lum bir obyekt boshqa bir obyektning xususiyatiga ko'ra o'xshash ekanligini ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Lekin fransuzcha "comme" komponentli frazeologik birliklarni boshqa tillarga talqin qilishda ularning ikki tomonidagi o'xshatish obyektlari aynan tarjima qilinsa, talab qilingan ma'no kelib shiqmasligi mumkin. Masalan, *lent comme un escargot* iborasini olaylik. Ushbu frazeologik ibora o'zbek tiliga talqin qilinganda ularni aynan tarjima orqali talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Negaki, uni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, *chig'anoq kabi sekin* deb tarjima qilinadi. Ammo o'zbek tilida juda sekin harakatlanishga nisbatan *chig'anoq* obrazi emas, balki *toshbaqa* obrazi orqali ifodalash an'ana tusiga kirgan, ya'ni *lent comme un escargot* iborasi o'zbek tiliga *toshbaqadek sekin*, deb talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Ushbu frazeologik birlikning antonimi, ya'ni bu ma'noga qarama-qarshi bo'lib hisoblangan *rapide comme l'éclair* iborasi

o'zbek tiliga *yashin kabi tez*, deb talqin qilinadi. Chunki o'zbek tilida *yashin tezligida* degan ibora mavjud. Shunga asosan *rapide comme l'éclair* iborasini *yashin kabi tez*, deb talqin qilish mumkin. Bunda fransuz tilidagi *l'éclair* so'zi *nur* yoki *yog'du* degan ma'noni anglatadi. Biroq u aynan tabiat hodisasi hisoblangan *yashin* ma'nosini anglatmaydi.

Bunday frazeologik iboralarni fransuz tilida ko'plab ushratish mumkin. Ularni boshqa tillarga tarjima yoki ma'nosini talqin qilish jarayonida asosan ular tarkibidagi qiyoslash obyektlari muhim ahamiyatga ega. Agar ulardagi qiyoslash obyektlari fransuz tilida qanday bo'lsa, ularni boshqa tillarga o'girishda ham aynan shu obrazlardan foydalanilsa iboraning to'liq ma'nosi chiqmasligi mumkin.

Bunday hollarda aynan ushbu iboraning shu tildagi variantlari bilan talqin qilish o'rinlidir. Masalan, *laborieux comme une abeille* iborasini o'zbek tiliga *asalaridek mehnatkash* deb emas, balki, *chumolidek mehnatkash*, deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, fransuz tilida yana shunday iboralar uchraydiki, ularni o'zbek tiliga o'girishda o'xshatish obrazlarisiz tarjima qilinishi ham mumkin. Masalan,  *paresseux comme un Loir* iborasini o'zbek tilida tushunarli bo'lishi uchun hech qanday qiyoslash obrazlarisiz *o'taketgan dangasa* yoki *o'ta yalqov* deb talqin qilish mumkin. Chunki, Fransiyadagi Luara daryosi eng sekin va tinch oqadigan daryo sanaladi. Shunga ko'ra  *paresseux comme un Loir* iborasining so'zma-so'z tarjimasi *Luaradek dangasa* degan ma'noni anglatadi.

Biroq fransuzcha *comme* komponentli frazeologik birliklar orasida aynan qiyoslanish komponentlari bilan to'liq o'zbek tilidagi shakllariga mos keladiganlari ham uchraydi. Masalan, *leger comme un oiseau* iborasi o'zbek tiliga talqin qilinganda *qushdek yengil* ma'nosini anglatadi. Bunda *yengillik* xususiyatining ikkala tilda ham bir xil obraz, ya'ni *qush* obrazi bilan taqqoslanishini kuzatish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, *comme* komponentli fransuzcha antonimik ma'noli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga talqin qilishda fransuz tilidagi qiyoslash obyektlari o'zbek tiliga umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda ularni ushbu til sohiblarining madaniyati va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda umumiy semantik ma'noni

saqlagan tarzda talqin qilish maqsadga muvofiq. Qolaversa, A.M.Bushuy ta'kidlaganidek, tildagi FB'larni semantik nuqtayi nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkoni paydo bo'ladi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi<sup>2</sup>. Shunday ekan, FB tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

Frazeologik antonimiya hodisasi fransuz tilida umumiy tarzda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

➤ **Leksik antonimiya:**

- ***Bien** mener sa barque - o'z ishini yaxshi olib bormoq ;*
- ***Mal** mener sa barque- o'z ishini yomon olib bormoq ;*
- *Il est **facile** de dire- aytish oson ;*
- *Il est **difficile** de dire- aytish qiyin;*

➤ **Morfologik antonimiya:**

- *C'est **croyable** - bo'lishi mumkin ;*
- *C'est **incroyable** -bo'lishi mumkin emas ;*

➤ **FB tarkibidagi ichki antonimiya:**

- *Il faut **beaucoup** faire et **peu** parler*
- *Ko'p ishla, oz so'zla.*
- *Se qu'on apprend au **berceau** dure jusqu'au **tombeau**.*
- *Beshikdan qabrgacha ilm izla.*
- *Bouche de **miel**, coeur de **fiel***
- *Tili shakar, ichi zahar.*
- *Avoir de **bon** et **mauvais** quarts d'heures.*
- *Bir qarasa yomon, bir qarasa yaxshi bo'lmoq.*

➤ **Kontekstli antonimiya:**

- *Qui ne **travaille** pas, ne **mange** pas.*

<sup>1</sup> А. Бушуй. Язык и действительность. – Ташкент: Фан, 2005. -С 102-103

<sup>2</sup> Suvonova, N.N., 2009. Adaptation of the principles of nomination of lexical and phraseological antonyms in language (on the example of French). In *Derivative laws of language development: Proceedings of the Republican scientific-theoretical conference.-Samarkand* (pp. 163-167).

- *Ishlamagan tishlamaydi.*
- **Ikkikarrali (dubl) antonimiya:**
- *Celui qui **travaille** mange la **paille**, celui qui **ne fait rien** mange le **foin** .*

➤ **Mazmuniy antonimiya:**

- *n'avoir pas froid aux yeux - mard, jasur bo'lmoq;*
- *avoir du sang de poulet - qo'rqqoq, lapashang bo'lmoq;*

Xulosa tariqasida aytadigan bo'lsak, til universalialaridan biri sanalgan antonimiya hodisasi tilning nafaqat leksik qatlamida balki, frazeologik qatlamida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ushbu hodisa frazeologik antonimiya deb yuritiladi va u ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik va morfologik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish va antonimik morfemalar shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlash joizki, qarama-qarshi turish, ya'ni antonimiklik kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi bunday antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanganligi bois ushbu hodisa tilning frazeologik sistemasida ham leksik sistemasidagi singari sinonimlar, polisemiyalar va antonimlarning paradigmatic munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Xususan, ular til lug'at tarkibini yagona bir sistemaga birlashtiruvshi asosiy vosita bo'lib hisoblanadi.

Leksik antonimiyaning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yiladi. Xuddi ushbu holat frazeologik birliklar ifodalaydigan semantik ma'nolarga nisbatan qo'llanilganda, ikki frazeologik birlik o'tasidagi qarama-qarshi ma'no, ya'ni frazeologik antonimiya hodisasi paydo bo'ladi.

Tilda leksik antonimiya hodisasi asosan, alohida so'zlarning turli xil qarama-qarshi ma'nolari hamda qarama-qarshi ma'noli suffikslarning qo'shilishi orqali hosil qilinadi. Frazeologik antonimiya esa FBlar tarkibidagi leksik antonimiya, ya'ni qarama-qarshi ma'noli so'z-komponentlarning qo'llanilishi hamda FBlarning bir butunlikdagi semantik ma'nolari o'rtasidagi oppozitsiya orqali namoyon bo'ladi.

Antonimiya hodisasi frazeologik birliklarda kuzatilganda ularning maxsus lug'atlari shakllanmaganligi, qolaversa, ularning har birini alohida semantik ma'nolariga ko'ra farqlagan holda bir-biriga qarama-qarshi ma'nodagi FBlarni tanlash lozimligi ko'zga tashlanadi.

## 3.1. FRAZELOGIYADA “VAQT” KONSEPTI.

## 1-§. “Konsept” tushunchasi tilshunoslar talqinida.

So‘nggi paytlarda tilshunoslik sohasida “konsept” atamasi tez-tez uchrashiga, hamda ko‘plab lingvistik birliklarning konsept sifatida tadqiq qilish natijasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Inson obyektiv voqelikni mushohada qilar ekan, u bo‘yicha barcha bilimlarini, turli “konseptual semantikalar”, ya‘ni “konseptlar” orqali egallaydi, ularni shakllantiradi, boyitadi va kundalik muloqotda qo‘llaydi. Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki *kognitiv tilshunoslik* – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, *konsept* kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir.

Umuman olganda, konsept atamasi kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi. Tilshunoslikda konseptlarni o‘rganish va ularning nazariy asoslarini yaratish bo‘yicha turli xil olimlar tomonidan turfa fikr-mulohazalar keltirilgan bo‘lib, biroq ularning o‘rtasida hanuz yakdillik yo‘qligi seziladi.

“Konsept” termini o‘tgan asrning 90 – yillaridan beri tilshunoslikda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o‘rganilishi bo‘yicha eng taniqli tilshunoslarning quyidagicha fikrlarini tahlil qilgan holda konsept tushunchasining mohiyatini yaqindan anglashga harakat qilamiz:

Tilshunos olimlar:	Konsept borasidagi izoh va ta‘riflar:
S.A.Askoldov	<i>Konsept</i> - bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir <sup>1</sup> .
D.S.Lixachev	<i>Konsept</i> - so‘zning lug‘aviy ma‘nosi va insonning o‘z milliy qarashlari bilan to‘qnashuvi natijasida hosil bo‘ladigan

<sup>1</sup> Асколдов С.А. Мысль и действительность. –М.: Путь, 1914. –С. 32.

	fikrlash jarayonining mahsuli <sup>1</sup> .
E.Komarov	<i>Konsept</i> - mazmun strukturasi ko'ra leksik ma'nodan ancha kattadir. Buning sababi konseptning mental hodisa ekanligi bilan bog'liq <sup>2</sup> .
N. Arutyunova	<i>Konsept</i> - ham mental birlik, ham tafakkur elementi sifatidadir. U olam va odam o'rtasidagi madaniy unsur <sup>3</sup> .
E.S Kubryakova	<i>Konsept</i> - mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi <sup>4</sup> .
S. G. Vorkachev	<i>Konsept</i> - tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik jihatdan o'ziga xos tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir <sup>5</sup> .
A.Solomonik	<i>Konsept</i> - bu real hayot tushunchalari asosida ishlov berilgan mavhum ilmiy tushuncha <sup>6</sup> .
Yu.Shvedova	<i>Konsept</i> bu - tushuncha bo'lib, uning ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun yotadi <sup>7</sup> .
V.V.Kolesov	<i>Konsept</i> - o'zining mazmunda shaklida - obraz, tushuncha va ramzda namoyon bo'lgan tushuncha mohiyati <sup>8</sup> .
Sh. S. Safarov	Moddiy dunyo idroki - predmet-hodisalar haqidagi tushunchaning tug'ilishi bo'lib, ushbu tushuncha mental namuna, ya'ni <i>konsept</i> sifatida shakllanadi <sup>9</sup> .
O'.Q. Yusupov	<i>Konsept</i> - tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmui, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir <sup>10</sup> .
D. U. Ashurova	<i>Konsept</i> - mantiqiy, milliy xususiyatga ega bo'lgan bir hodisa. Uning negizini aynan shu o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilim tashkil qilsa, ifodalanishini esa leksik, frazeologik, parameologik va boshqa til vositalari tashkil qiladi <sup>11</sup> .

<sup>1</sup> Д.С. Лихачев «Концептосфера русского языка

[https://www.gumer.info/bibliotek\\_Buks/Literat/lihach/koncept.pdf](https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Literat/lihach/koncept.pdf)

<sup>2</sup> Комаров Е. «Ценностные ориентиры в заголовках французских и российских средств массовой информации» <https://www.dissercat.com/content/tsennostnye-orientiry-v-zagolovkakh-frantsuzskikh>

<sup>3</sup> Арутюнова Н.Д. Логический анализ языка. Культурные концепты. -М.: Наука, 1991. -С.43 / -204 с.

<sup>4</sup> Кубрякова Е. С. О когнитивной лингвистике и семантике термина "когнитивный" // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. - Воронеж, 2001. 90-с.

<sup>5</sup> Воркачев С. Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. - №4.

<sup>6</sup> Соломоник А. Семиотика и лингвистика. - М.: Молодая гвардия, 1995. С.246.

<sup>7</sup> Шведова Ю. Большая российская энциклопедия - электронная версия

<https://bigenc.ru/linguistics/text/4691954>

<sup>8</sup> Колесов В. В. Язык и ментальность. - СПб, 2004.С.19-20.

<sup>9</sup> Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. - Б. 91.

<sup>10</sup> Юсупов Ў.Қ- Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. - Тошкент, 2011. - Б. 49.

<sup>11</sup> Ашурова Д. У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. - Тошкент, 2008. - Б. 11.



Ushbu keltirilgan ta'riflarni tahlil qilgan holda ularni quyidagicha tarzda umumlashtirish mumkin, ya'ni konseptni to'rt xil nuqtayi nazardan tavsiflovchi ta'riflar mavjud bo'lib, ularning mualliflari quyidagichadir:

Tilshunoslar konseptni tavsiflashda quyidagilarga asoslanadi:											
✓ turli xil tushuncha va bilimlar majmui; ✓ mental hodisa;						✓ milliy xususiyat; ✓ mantiqiy hodisa;			✓ mental birlik; ✓ madaniy unsur;		✓ mavhum ilmiy tushuncha;
S. A. Askoldov	E. S. Kubryakova	Sh. S. Safarov	E. Komarov	V. V. Kolesov	O' . Q. Yusupov	D. S. Lixachev	S. G. Vorkachev	Yu. Shvedova	D. U. Ashurova	N. Arutyunova	A. Solomonik

Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanada ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etadi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shuni aytishimiz mumkinki, konsept tushunchasi bizning ongimizda kechuvchi bir necha jarayonlarning asosiy natijasidir va u kognitiv tilshunoslik sohasidagi alohida tadqiqni talab etadi.

## **2-§. Fransuz frazeologiyasidagi “vaqt” konseptining struktur xususiyatlari.**

Fransuz tili frazeologiyasida “VAQT” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. “VAQT” konseptini

<sup>1</sup> Аноркулова О. Концепт тушунчаси ва унинг ўзбек тилшунослигидаги тадқиқига доир мулоҳазалар. / Вестник магистратуры. 2022. № 4-2 (127). – Б. 52-55. [file:///C:/Users/User/Downloads/kontsept-tushunchasi-va-uning-zbek-tilshunosligidagi-tad-i-iga-doir-mulo-azalar%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/kontsept-tushunchasi-va-uning-zbek-tilshunosligidagi-tad-i-iga-doir-mulo-azalar%20(2).pdf)

ifodalovchi komponentlar orasida vaqt tushunchasini aks ettiruvchi fransuzcha *le jour (kun), le temps (vaqt), l'heure (soat), la saison (fasl), aujourd'hui (bugun), la semaine (hafta), le siècle (asr)* kabi maxsus so'zlar juda keng qo'llaniladi. Ushbu bo'limda aynan *la saison (fasl)* va *l'heure (soat)* so'zlari ishtirokidagi "VAQT" konseptini ifodalovchi FBlarning struktur tahliliga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Binobarin, hozirgi kunda FBlarni turli xil xususiyatlariga ko'ra tasniflash muammosi tilshunoslar o'rtasidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu xususda, Yevropa frazeologiya jamiyatining a'zosi M.Pekman shunday e'trof etadi : "*La problématique de la classification des phénomènes collocatifs se trouve au cœur des études en phraséologie. Classer signifie identifier les unités linguistiques présentant des traits communs. Si les manières d'aborder les unités phraséologiques varient sensiblement selon les différences travaux qui leur sont consacrés à travers le monde, la classification apparaît comme un élément stable des recherches en phraséologie.*"<sup>1</sup>.

"VAQT" konseptini ifodalovchi FBlarni struktur nuqtayi nazardan kuzatganimizda ularga xos struktur-grammatik xususiyatlar bu xususdagi asosiy mezonlardan biri ekanligining guvohi bo'ldik. FBlarni bunday tarzda tasniflash A.G.Nazaryan nazariyasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi, ya'ni nopredikativ, predikativ va qisman predikativ FBlar<sup>2</sup>.

Fransuz frazeologiyasida tadqiq qilinayotgan FBlar, aynan *la saison (fasl)* va *l'heure (soat)* so'zlari ishtirokidagi "VAQT" konseptini ifodalovchi FBlar orasida nopredikativ va predikativ FBlar ko'pchilikni tashkil etadi, biroq qisman predikativ FBlar umuman uchramaydi. Ushbu holatni quyidagicha misollar bilan izohlash mumkin:

Nopredikativ FBlar	Predikativ FBlar	Qisman predikativ FBlar
<i>dans la saison</i> - o'z vaqtida;	<i>il faut devenir vieux de bonne heure si l'on veut l'être longtemps</i> - uzoq umr ko'rish uchun qarilikni tezroq tan olish kerak;	Fransuzcha <i>saison</i> va <i>heure</i> so'zlari ishtirokida bu turkumga
<i>à l'heure</i>	<i>avant l'heure c'est pas l'heure,</i>	misollar mavjud

<sup>1</sup> Pecman M. *L'enjeu de la classification en phraseologie* // Actes du congrès EUROPHRAS, 2004. - Baltmannsweiler : Schneider Hohengehren Verlag, -P. 127-146.

<sup>2</sup> Назарян А.Г. *Фразеология современного французского языка*. – М.: ВШ, 1987. – С. 28 с.

<i>battante</i> - aniq ko'rsatilgan vaqtda;	<i>après l'heure c'est plus heure</i> - qolgan ishga qor yog'ar; hammasini o'z vaqtida qilish kerak;	emas.
---	--	-------

Fransuz frazeologiyasida *la saison* (fasl) va *l'heure* (soat) so'zlari ishtirokidagi "VAQT" konseptini ifodalovchi nopredikativ FBlarning o'zini yana ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin, ya'ni bir unsurli FBlar va frazemalar. Bunda bir unsurli FBlar bitta mustaqil so'z va bir yoki bir necha yordamchi elementdan iborat bo'lsa, frazemalar esa ikkita mustaqil so'z va bir yoki bir necha yordamchi elementdan iborat bo'ladi. Ushbu tasnif turini quyidagicha misollar orqali ifodalash mumkin:

Bir unsurli FBlar :	Frazemalar :
<i>pour l'heure</i> - hozircha;	<i>heures de pointe</i> - tig'iz payt, qizg'in payt;
<i>de saison</i> - o'z vaqtida;	<i>en bonne saison</i> -qulay fursatda; kezi kelganda;

Keltirilgan bu misollardagi bir unsurli FBlar umumsintaktik aloqalarga asoslansa, frazemalar esa subordinativ va koordinativ sintaktik aloqaga asoslanadi.

Fransuzcha FBlarning ikkinchi katta struktur guruhi predikativ FBlar xususida tuxtaladigan bo'lsak, ular ham o'z navbatida ikkiga, ya'ni ochiq va yopiq strukturali FBlarga ajratiladi. Bunda ochiq strukturali predikativ FBlar tugallanmagan fikrni ifodalasa, yopiq strukturali FBlar esa tugallangan fikrni ifodalaydi. Masalan :

<i>la saison</i> va <i>l'heure</i> so'zlari ishtirokidagi predikativ FBlar	
O'chiq strukturali FBlar :	Yopiq strukturali FBlar:
<i>il est saison de...-...</i> vaqti bo'ldi, ... vaqti;	<i>avant l'heure c'est pas l'heure, après l'heure c'est plus heure</i> -qolgan ishga qor yog'ar; hamma ishni o'z vaqtida qilish kerak;

### 3-§. "Vaqt" konsepti asosidagi FBlarni modellashtirish mezonlari.

Fransuzcha *la saison* va *l'heure* so'zlari ishtirokidagi FBlarni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida ularga xos maxsus struktur

modellar mavjudligi ma'lum bo'ladi. Masalan, *la saison* va *l'heure* so'zlari o'zlariga ma'lum bir aniqlovchini qabul qilishi orqali frazeologik ibora hosil qila oladi, ya'ni *Det.+Adj.+saison* va *Det.+Adj.+heure* yoki aksincha, *Det.+saison + Adj.* va *Det.+heure+Adj.* Fransuz tilida bu struktur modellardan *Det.+ saison + Adj.* shakli juda kamchilikni tashkil etadi. Biroq yuqorida keltirilgan boshqa modellar fransuzcha FBlar yasashning eng sermahsul usullaridan bo'lib hisoblanadi. Ushbu struktur modellarni aniq misollar orqali quyidagicha izohlash mumkin:

<b><i>Det.+Adj.</i></b> + <b><i>saison</i></b> :	<i>la forte saison</i> -yilning eng issiq fasli (yoz); <i>la mauvaise saison</i> -yilning yog'ingarchilik fasli (kuz); <i>la belle saison</i> - o'smirlik davri;
<b><i>Det.+ saison</i></b> + <b><i>Adj.</i></b> :	<i>la saison nouvelle</i> - bahor;
<b><i>Det.+ Adj.</i></b> + <b><i>heure</i></b> :	<i>à la bonne heure</i> - xayrli onda; o'z vaqtida; <i>de la dernière heure</i> - eng so'ngi daqiqada ;
<b><i>Det.+ heure</i></b> + <b><i>Adj.</i></b> :	<i>à l'heure battante</i> - aniq ko'rsatilgan vaqtda; <i>aux heures libres</i> - bo'sh vaqtda;

Bundan tashqari, *la saison* va *l'heure* so'zlari orqali yasalgan FBlni struktur jihatdan modellashtirishda ularning harakat, ya'ni fe'l bilan bog'liq xususiyatlari ham mavjud bo'lib, bu holat ularni *Verbe+ Det.+saison* va *Verbe+ Det.+heure* ko'rinishida modellashtirish imkonini beradi. Masalan, bunda determinativlarning miqdor, egalik va aniqlik yoki noaniqlik ma'nolarini ifodalovchi turlari ishtirok etishi mumkin:

<b><i>Verbe+ Det.+saison</i></b>	<b><i>Verbe+ Det.+heure</i></b>
<i>être de saison</i> - o'z vaqtida bo'lmoq;	<i>être a l'heure</i> - o'z vaqtida kelmoq;
<i>faire une saison</i> - vaqtni dam olishda o'tkazmoq;	<i>davancer l'heure</i> - erta kelmoq;

Yuqorida keltirilgan ushbu modellar fransuzcha *saison* va *heure* so'zlari ishtirokidagi nopredikatativ FBlargacha xos modellardir. Biroq ushbu turkumdagi predikatativ FBlni ma'lum bir struktur modellar

asosida tasniflashning imkoni yo‘q. Negaki, ular doimo o‘zlarida tugal fikrni aks ettiradi. Tugal fikr tushunchasi esa gapga teng hodisa bo‘lganligi uchun ham ularni struktur nuqtayi nazardan tasniflash mumkin emas.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, “VAQT” konseptini ifodalovchi fransuzcha *saison* va *heure* so‘zlari ishtirokidagi FBlarning yuqorida keltirilgan struktur xususiyatlari asosida boshqa komponentlar ishtirokidagi FBlni ham struktur jihatdan tasniflash imkoni paydo bo‘ladi.

#### **4-§. Fransuz frazeologiyasidagi “vaqt” konseptining semantik xususiyatlari**

Fransuz tilidagi “Vaqt” konsepti doirasidagi FBlni o‘zlarining ifodalayotgan semantik ma’nolariga ko‘ra bir necha mazmuniy turlarga ajratish mumkin. Masalan, hozirgi zamon fransuz tili frazeologiyasining frazeologik lug‘atlaridan yig‘ilgan misollar asosida ularni “*qisqa muddat*”, “*uzoq muddat*”, “*aniq vaqt*”, “*qulay fursat*”, “*erta*”, “*kech*”, “*o‘z vaqtida*”, “*davriy jarayon*”, “*davomiylik*” kabi tushunchalarni ifodalovchi FBlni guruhi bo‘yicha tasniflash maqsadga muvofiqdir. Ularni bunday semantik turlarga ajratish nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini quyida alohida misollar yordamida izohlash mumkin.

1) “**Qisqa muddat**” tushunchasi:

- *en (toute) hate - zudlik bilan; ildamlilik bilan;*
- *à tout bercingue - shitob bilan; chaqqonlik bilan;*
- *de (d’un) plein saut – bir zumda; birdaniga;*
- *au (grand) galop – shu zahoti; bir zumda; ko‘z ochib yumguncha;*
- *comme la foudre – yashin tezligida;*
- *à toutes pompes – nihoyatda tezlik bilan.*

Keltirilgan bu misollardan ko‘rinib turibdiki, “qisqa muddat” ma’nosi FBlni ifodalangan tezlik, chaqqonlik, ildamlilik kabi semantik tushunchalar orqali aks etmoqda.

2) “**Uzoq muddat**” tushunchasi:

- *à longue écheance – uzoq muddatli;*
- *à la venue des coque ci grues - tuyaning dumi yerga tekkanda;*
- *mardi s’il fait chaud – qizil qor yoqqanda.*

Bu misollarda “vaqt” konsepti asosidagi “uzoq muddat” ma’nosi biror bir ishning amalga oshishidagi uzoq muddatli cho‘zilish va hatto

umuman amalga oshmaslik kabi tushunchalari yordamida ifodalanganligini ko'rish mumkin.

3) “**Aniq vaqt**” tushunchasi:

- *d'ici en huit (en huitaine)* – bir haftadan so'ng;
- *les cinq huit* – besh kunlik ish haftasi;
- *les trois huit* – sakkiz soatlik ish kuni;
- *à midi sonante–roppa-rosa kunduz soat 12 da;*
- *à minuit sonante* – roppa-rosa yarim tunda.

Keltirilgan ushbu FBlarda “vaqt” tushunchasi asosidagi “aniq vaqt” ma'nosi ma'lum bir ish-harakatning belgilangan aniq muddatdan so'ng amalga oshishi hamda real borliqdagi aniq vaqtli izohni o'z ichiga olgan vaziyat nomi orqali ifodalanganligi ko'zga tashlanadi.

4) “**Qulay fursat**” tushunchasi:

- *attendre (prendre) sa belle* - payt poylamoq;
- *trouver une ouverture pour... - ... uchun qulay fursatni kutmoq.*

Ushbu tushuncha biror bir voqea-hodisaning amalga oshishidagi qulay fursat hamda ayni muddao yoki mavridini kutish ma'nolari bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

5) “**Kech**” tushunchasi :

- *sur le tard* – kech; kech oqshom;
- *donner tard c'est refuser* – kechiktirish, bu- makkorlik;
- *mieux vaut (il vaut mieux) tard que jamais* – hechdan ko'ra kech yaxshi;

- *il n'est jamais trop tard pour bien faire* – xayrli ishning kechi yo'q.

Fransuz frazeologiyasidagi “kech” tushunchasi ko'pincha fransuzcha maqollar orqali yorqin namoyon bo'ladi. Ya'ni, ularda biror bir ish-harakatning bajarilishidagi kechikish jarayoniga xos oqibat va natijalar mazmuni aks etadi.

6) “**Erta**” tushunchasi :

- *au (le) plus tôt (possible)* – imkon qadar ertaroq;
- *le plus tôt sera le mieux* – qancha erta bo'lsa shuncha yaxshi;
- *devancer la lumière* – kun chiqmasdan.

Keltirilgan bu misollardan FBlar ifodalayotgan “vaqt” ma'nosiga nisbatan “erta” tushunchasi imkoniyat darajasidagi “erta” semantikasi hamda aniq belgilangan erta vaqt va shuningdek, erta amalga oshgan harakatning oqibat va natijalari orqali namoyon bo'lmoqda.

7) “**O'z vaqtida**” tushunchasi :

- *en son lieu* – o'rni kelganda;

- *à temps* – o‘z mavridida;
- *en son temps* – o‘z vaqtida.

Ushbu tushuncha “*Har bir narsaning o‘z vaqti bor*” naqliga amal qilingan holda aks etgan.

8) “**Davriy jarayon**” tushunchasi:

- *la fleur des ans* – o‘spirinlik davri; yoshlik chog‘i;
- *depuis sa prime jeunesse* – yoshlik (bolalik) yillaridan;
- *n‘aller pas loin* – sanoqli kuni qolmoq; o‘lim yoqasida;
- *au couchant de la vie* – yosh qaytganda; qariganda;
- *au retour des hirondelles* – erta bahorda;
- *il gèle dur* – qahraton qish.

Fransuzcha FBlar ifodalayotgan “davriy jarayon” tushunchasi ko‘proq, inson hayotining ma‘lum bir bosqichlari yoki yil fasllarining nomlari bilan bog‘liq tarzda amalga oshadi.

9) “**Davomiylik**” tushunchasi:

- *n‘avoir ni paix ni trève* – kecha-yu kunduz tinim bilmasdan ishlamoq;

- *à la vie (et) à la mort* - umrbod;
- *à longueur de journée* – kun bo‘yi; ertalabdan kechgacha.

Ushbu tushuncha FBlarda ma‘lum bir voqea-hodisa yoki ish-harakatning uzluksiz tarzda davom etish asosidagi jarayon orqali amalga oshishini ko‘rsatadi.

“Vaqt” konsepti asosidagi fransuzcha FBarni bu kabi semantik turlarga ajratish ularni ushbu turlar asosidagi lingvomadaniy xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi.

## 3.2. IMPERATIV PAREMIYALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

### 1-§. Imperativlikning lingvistik mohiyati.

“*Kategorik imperativ*” tushunchasi I.Kantning axloqiy falsafiy ta‘limotidagi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, u axloqning eng yuqori tamoyili hisoblanadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, kishida iroda mavjudligi tufayli inson hayot tamoyillari asosida harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, inson uchun axloqiy qonun qat‘iy buyruq beradigan imperativdir, chunki inson turli ehtiyojlarga ega ekan, unga hissiy impulslar doimiy tarzda ta‘sir qilib turadi.



*Imperativ* deganda, inson irodasining ushbu qonunga majburiyat sifatidagi munosabati, ya'ni axloqiy harakatlarga nisbatan oqilona majburlash tushuniladi<sup>1</sup>. Bunday vaziyatda professor Sh.Safarov ta'kidlaganidek, so'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun barcha shartli lisoniy belgilarni jo'yali, o'z o'rnida ishlata olishi darkor. Faqat shundagina u tinglovchini buyruq ijrosiga unday oladi. Xuddi shuningdek, tinglovchi - adresat ham grammatikalashtirish usul va vositalari bilan tanish bo'lgan holdagina nutqiy harakat mazmunini anglaydi, shartli belgilarni mantiqan idrok etadi va ularning sirli, yashirincha ma'no jilolarini ocha oladi<sup>2</sup>.

Buyruq kategoriyasi o'z kommunikativ xususiyatiga ko'ra *buyurish, iltimos, maslahat* yoki *nasihat* kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Buyruq ma'noli maqollar esa odatda *nasihat* yoki *maslahat* xususiyatidan kelib chiqqan holda kishining shaxsiy fikri yoki xohishini emas, balki xalq falsafasini yoki boshqacha qilib aytganda, xalq tafakkuri va donishmandligini ifodalaydi. Masalan, buyruq ma'noli fransuzcha maqollarda asosan, *nasihat* va *maslahat* ma'nosi ancha keng tarqalgan bo'lib, ular imperativ paremiyalarning asosiy kommunikativ maqsadini ifodalaydi:

<b>NASIHAAT ma'nosi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Choisissez votre femme par l'oreille bien plus que par les yeux.</i></li> <li>• <i>Fais ce que tu peux, si tu ne peux faire ce que tu veux.</i></li> <li>• <i>Gouverne ta bouche selon ta bourse.</i></li> </ul>
------------------------------	--

## 2-§.Imperativ paremiyalarning intensional xususiyatlari.

Imperativ paremiyalarga xos *nasihat* tushunchasi zamirida avvalambor, yaxshilikka undash va yomonlikdan qaytarish fikri mavjud, zero *nasihat* bir kishining boshqa bir kishiga xolis niyat bilan to'g'ri yo'l ko'rsatishi demakdir. Xalq orasida ushbu tushunchaning asl ma'nosi xususida ikki xil o'xshatish mavjud. Birinchisi, "*kiyim tikish*" degani. Bundan nasihat qiluvchi nasihat qilinuvchiga o'z nasihati ila ma'naviy kiyim tikib berganidek, kiyimida yirtig'i bo'lsa, uni yamab bergandek bo'ladi, degan ma'no kelib chiqadi. Kiyim esa o'z egasini issiqdan, sovuqdan saqlaydi, aybini berkitadi,

<sup>1</sup> Категорический императив. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б. 178. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/146-ona-tili-va-adabiyot>



ziynatlab ko'rsatadi, chang yuqtirmaydi va shunga o'xshash ko'plab foydalar keltiradi. Nasihat ham ma'naviy jihatdan shu kabi foydalidir. "Nasihat" so'zining ikkinchi ma'nosi "*asalni mumdan tozalash*" ma'nosidir. Nasihat qiluvchi har xil aldov, xiralik va gina-kuduratdan xoli gapni aytgani uchun shunday deyiladi. U toza va musaffo asaldek gapni aytgan, ishni qilgan, xolislik bilan, pokiza qalb bilan samimiy ish yuritgan bo'ladi. Bu esa nasihat qiluvchi uchun o'ta foydali ma'lumot sifatida xizmat qila oladi<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan misollarda ham xalq donishmandligining hikmatli nasihatlar aks etgan, masalan, *Choisissez votre femme par l'oreille bien plus que par les yeux* paremiyasi o'zbek tilida *Ot olsang minib ol, xotin olsang ko'rib ol*, degan maqolga, *Fais ce que tu peux, si tu ne peux faire ce que tu veux* maqoli esa *Xohlaganingdek emas, balki, imkoningga yarasha yasha*, degan maqolga hamda *Gouverne ta bouche selon ta bourse* maqoli esa o'zbek tiliga talqin qilinganda *Daromadga qarab buromad* maqoliga mos keladi. Ushbu paremiyalarning o'zbek tiliga mos keladigan semantik muqobillari aynan olinganligi sababli ularning hammasida ham buyruq shakli aks etmasligi mumkin. Masalan, *Gouverne ta bouche selon ta bourse* - *Daromadga qarab buromad; Hâte-toi lentement!*- *Qimirlagan qir oshar!* kabi paremiologik birliklar shular jumlasidandir.

Xalq donishmandligiga asoslangan bunday nasihatimiz buyruqlar orasida maslahat tushunchasiga yaqin paremiyalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. *Maslahat* nasihatdan biroz farqli o'laroq, foydali maslahat, ya'ni biror ishni qanday qilish va umuman qilmaslik borasidagi kerakli yo'l-yo'riq tarzidagi fikr va mulohazadir<sup>2</sup>. Boshqacha qilib aytganda, *nasihat* pand – o'git o'rnida qo'llanilsa, *maslahat* esa yo'l-yo'riq ko'rsatishdir, chunki uni aksariyat hollarda pand-nasihat sifatida qo'llab bo'lmaydi. Bundan tashqari, *nasihat* o'rgatish va ta'lim berish asosiga qurilgan bo'lsa, *maslahat* esa rioya etilishi to'liq talab etilmaydigan tavsiya xarakteridagi fikr va mulohaza sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, ular o'rasidagi ko'zga tashlanadigan yana bir asosiy semantik farqlardan biri, ijobiy va salbiy tushunchalarni qamrab olish qobiliyatining mavjudligidir. Umuman olganda, *nasihat* kishini doimo ijobiy yo'lga boshqarsa, *maslahat* esa ham ijobiy, ham

<sup>1</sup> «Насихат» сўзининг маъноси ва таърифи. <https://mehrob.uz/article/454>

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 ortiq so'z va so'z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. -B. 551.

salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Biroq, ushbu nuqtayi nazar umumsemantik ma'no jihatidan to'g'ri bo'lib, paremiologik birliklar esa albatta, bunday salbiy maslahat turidan holidir. Quyida bu ikkala tushuncha o'rtasidagi umumiy, differensial va nodifferensial xususiyatlarni keltirib o'tamiz:

Paremiyalarga xos kommunikativ-semantik maqsad turlari:	Yo' l-yo' riq tarzidagi fikr	Pand -o' git	Ta' lim berish	To' liq rioya qilinmaydigan tavsiya	Ijobiy tushuncha	Salbiy tushuncha
<b>Nasihahat</b>	+	+	+	-	+	-
<b>Maslahahat</b>	+	-	-	+	+	+

Xalq donishmandligi asosidagi fransuzcha paremiyalar yuqorida ta'kidlanganidek, nafaqat *nasihat*, balki ayrim o'rinlarda nasihatomuz *maslahat* tushunchasini ham ifodalashi mumkin. Masalan:

<b>MASLAHAT ma'nosi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Aide toi, le ciel t'aidera.</i></li> <li>• <i>Demandez à un malade s'il veut la santé.</i></li> <li>• <i>Occupe-toi de tes oignons.</i></li> </ul>
--------------------------	--

Ushbu keltirilgan misollarning o'zbekcha so'zma-so'z ma'nosi yordamida ularning nasihatomuz mulohazali fikr orqali shakllangan maslahat xarakteridagi paremiologik birliklar ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, *Aide toi, le ciel t'aidera* paremiyasi *O'zingga-o'zing yordam qil, osmon senga qarashadi*, ya'ni *Sendan harakat, Allohdan barokat*; *Demandez à un malade s'il veut la santé* – *Agar bemor sog'ayishni istasa, uning o'zidan so'ra*; ya'ni *Tabib tabib emas, kasalni boshidan o'tkazgan tabib*; *Occupe-toi de tes oignons* – *Sen o'zingning piyozlaring bilan shug'ullan*, ya'ni *Har qanday ishga burningni suqma*; kabi ma'nolarni anglatishi suhbatdoshning tinglovchiga tavsiya sifatida bergan maslahati kabi qabul qilinadi.

Fransuzcha imperativ paremiyalar nafaqat, *nasihat* va *maslahat* tushunchalarini, balki, nasihatomuz *buyruq* va nasihatomuz *ta'qiq* ma'nolarini ham ifodalaydi. Masalan:

<b>SOF</b>	• <i>Montre-moi un menteur et je montrerai un voleur.</i>
------------	---

<b>BUYRUQ ma'nosi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Nourris un corbeau, il te crevera l'oeil.</i></li> </ul>
----------------------------	--

Keltirilgan misollarda harakatni bajarishga undash fikri boshqalarga qaraganda ancha ustunlik qiladi. Ya'ni ularning ma'nosidan kelib chiqqan holda bunday paremiyalarda ham boshqa paremiyalar singari buyruq ohangi ostida yana boshqa tagma'no mavjudligi namoyon bo'ladi. Xususan, *Nourris un corbeau, il te crevera l'oeil* – (Qarg'ani boq, u sening ko'zingni uyib oladi) *It qutursa, egasini qopadi*; va *Montre-moi un menteur et je montrerai un voleur* – (Menga yolg'onchini ko'rsating, men sizga o'g'rini ko'rsataman) *Yolg'onning (o'g'rilikning ) oxiri voy*; ma'nolari o'z kommunikativ maqsadi zahirida *birovga tekkizib gapirish*; va *asl haqiqatni boshqa narsaning mohiyatidan qidirish*; kabi tagma'nolarni aks ettirmoqda.

Paremiyalarning kommunikativ mazmunidagi *ta'qiq* ma'nosi fransuzcha maqollarda tez-tez ko'zga tashlangani bois ularni ham aynan imperativ paremiologik birliklar tarkibida nasihatimiz ma'noda uchratish mumkin. Masalan, quyidagi imperativ paremiyalarga e'tibor qilaylik:

<b>TA'QIQ ma'nosi:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Ne crie pas sur les toits ce qu'on t'a confié a l'oreille.</i></li> <li>• <i>Ne remets pas au lendemain ce que tu peux faire aujourd'hui.</i></li> <li>• <i>Ne laissez pas croître l'herbe sur le chemin de l'amitié.</i></li> </ul>
----------------------------	--

Ushbu keltirilgan misollarning o'zbekcha talqini, jumladan:

*Ne crie pas sur les toits ce qu'on t'a confié a l'oreille* – (Qulog'ingga aytilgan sirni, tomga chiqib, baqirib aytma) *Sirni sirtga chiqarma*;

*Ne remets pas au lendemain ce que tu peux faire aujourd'hui* – *Bugungi ishni ertaga qo'yma*;

*Ne laissez pas croître l'herbe sur le chemin de l'amitié* – (Do'stlik so'qmog'ida o'tning o'sishiga yo'l qo'yma) *Do'stni izla, topsang uni asra*; ma'nolari inkor grammatik kategoriyasi orqali ifodalanib, maqollar mazmunidagi kommunikativ maqsad nasihatimiz ta'qiq orqali amalga oshmoqda.

Nutqda imperativni foydalanishdan ko'zlangan maqsad har qanday harakatni amalga oshirish yoki oldini olishdan iborat bo'lib,

u nutq harakatini bajarishda tinglovchining irodasini belgilaydi. Chunki, buyruqning barcha semantik turlari nutq momentidan keyingi jarayonga bog'liq. Shuning uchun ham buyruq kategoriyasi ko'rsatilgan nutq vaziyatidan keyin sodir bo'lishi ko'zda tutiladi<sup>1</sup>. Imperativ maqollarning o'ziga xosligi ham shundadir, ya'ni so'zlovchi tinglovchiga buyruq qilishi va tinglovchi nutq momentidan so'ng buyruqni bajarishi yoki bajarmasligi mumkin. Binobarin, har qanday shaxs o'z xohishiga ko'ra pand-nasihatga amal qilishi yoki amal qilmasligi tabiiy. E.L. Dotsenko ta'kidlaganidek, muloqotning ko'plab sohalarida suhbatdoshning intensional maqsadini aniqlash ham ma'lumotlarning qabul qilinish sifatini yaxshilash hamda samarali aloqani o'rnatish imkonini beradi<sup>2</sup>.

Shuning uchun ular ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri nasihatimiz buyruq asosida *sof buyruq, talab, maslahat, ogohlantirish, ta'qiq, istak* va boshqalarni ifodalay oladi. Ushbu tavsif ularni kommunikativ-semantik va pragmatolingvistik hodisa sifatida tavsiflash imkonini beradi. Shuningdek, agar B.I.Karadjev ta'kidlaganidek, buyruq gaplar bir vaqtning o'zida turli xil intensiyalarni ifodalay olishi hamda imperativ maqollarning grammatik strukturasi aynan buyruq gaplardan tashkil topganligi inobatga olinsa, demak, ma'lum bir imperativ maqollar ham bir vaqtning o'zida nutqning turli xil intensiyalarini ifodalashi mumkin, degan xulosaga kelish o'rinlidir<sup>3</sup>. Masalan, *Ne crie pas sur les toits ce qu'on t'a confié a l'oreille - Senga ishonib qulog'ingga shipshitilgan narsani tomga chiqib baqirib aytma*, ma'nosidagi ushbu maqol o'zbek tiliga muqobillashtirilganda, *Sirni sirtga chiqarma!* maqoliga mos keladi va u bir vaqtning o'zida *nasihat, maslahat, uqtirish, buyurish, ogohlantirish* singari keng kommunikativ maqsadlarni ifodalay oladi. Buni aniqlash uchun esa albatta, mazkur maqol qo'llanilgan nutqiy vaziyatni hamda kontekstni o'rganish maqsadga muvofiqdir va shu orqali imperativ maqollarning kommunikativ-semantik maydonini aniqlash mumkin bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Боднарук Е. В. Семантика и прагматика императива (на материале немецкого языка) // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2018. Т. 16, № 3. –С. 69. / -С. 67-76.

<sup>2</sup> Доценко Е.Л. КОММУНИКАТИВНЫЕ ИНТЕНЦИИ УЧАСТНИКОВ СУДЕБНОГО ДИСКУРСА И ЯЗЫКОВЫЕ СРЕДСТВА ИХ ВЫРАЖЕНИЯ // Речевая коммуникация на современном этапе: социальные, научно-теоретические и дидактические проблемы: Материалы Междунар. научн.-метод. конф. В. 2 ч. Ч. 1. Москва, 5-7 апреля, 2006. – М.: ГОУВПО «МГУС», 2006. / -С.98-104. <https://www.researchgate.net/publication>

<sup>3</sup> Караджев Б.И. Коммуникативно-прагматический потенциал русских пословиц. Автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата филологических наук. - Москва, 2009. - 24 с.

Biroq imperativ maqollar orasida faqat bir kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan turlari ham uchraydi va ular nutqning bir intensionalli shakliga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, quyidagi maqollar shular jumlasidan bo'lib, har qanday maqol xalq tafakkuri va donishmandligining bir namunasi bo'lganligi bois ularning birlamchi kommunikativ maqsadi pand-nasihatdan iborat bo'lsa, ikkilamchi kommunikativ maqsadi, ya'ni maqoldan ko'zlangan asosiy maqsad zahirida yashiringan maqsadi har bir maqolning o'ziga xos tarzda *ogohlantirish, maslahat, qat'iy buyruq, uqtirish* va *nasihat* kabi kommunikativ - semantik ma'nolarni ifodalab keladi:

<b>Fransuzcha maqol:</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasini:</b>	<b>O'zbekcha muqobili:</b>	<b>Birlamchi kommunikativ maqsadi:</b>	<b>Ikkilamchi kommunikativ maqsadi:</b>
<i>Nourris un corbeau, il te crevera l'oeil.</i>	Qarg'ani boq, u sening ko'zingni uyib oladi.	<i>It qutursa, egasini qopadi.</i>	Nasihat	Ogohlantirish
<i>Gouverne ta bouche selon ta bourse.</i>	Maoshingga qarab, og'zingga egalik qil.	<i>Daromadga qarab buromad</i>	Nasihat	Maslahat
<i>Ne jetez pas vos perles aux pourceaux.</i>	O'z marvarid-laringni cho'chqalarga sochma.	<i>Qadringni bilmagang a qaddingni egma</i>	Nasihat	Qat'iy buyruq
<i>Ne fait pas à autrui ce que tu ne voudrais pas qu'on te fasse .</i>	Sizga qilishni xohlamagan narsani boshqalarga qilmang.	<i>Tig'ni avval o'zingga, og'rimasa o'zgaga ur !</i>	Nasihat	Uqtirish
<i>Ne dites jamais - jamais, ne dites</i>	Hech qachon hech qachon dema, hech qachon har	<i>Yetti o'lchab bir kes!</i>	Nasihat	Nasihat

<i>jamais – toujours.</i>	<i>doim dema.</i>			
-------------------------------	-------------------	--	--	--

Albatta, ushbu maqollarning faqat bir intensiyaga yo'naltirilganligini nutq momentining vaziyatidan yoki matn kontekstidan to'liq anglash mumkin bo'ladi.

Mantiqiy grammatikada buyruq kategoriyasi kommunikativ-semantik jihatdan talqin qilinganda, gapning kimga qaratilganligiga qarab uch xil yo'nalishga ega ekanligi ko'zga tashlanadi: 1) obyektga – tinglovchiga; 2) subyektga – so'zlovchining o'ziga; va 3) neytral shaxsga – muloqotda ishtirok etmagan shaxsga<sup>1</sup>. Ushbu fikrdan tegishli xulosa chiqargan holda imperativ paremiyalarning mantiqiy – kommunikativ maqsadini ham yuqoridagi kabi uch xil yo'nalishda tahlil qilish mumkin. Biroq izlanish natijasida fransuzcha imperativ paremiyalar tarkibi faqat obyektga – tinglovchiga qaratilgan shakllari bilan to'la ekanligi ma'lum bo'ladi. Mantiqan olib qaralganda ham so'zlovchi o'ziga-o'zi pand-nasihat qilishi yoki ishtirok etmagan shaxsga qarata nasihat qilishi juda kamdan-kam hollarda uchrashi mumkin. Maqollar mazmunida esa umuman uchramaydi. Ushbu jarayonda tahlil qilingan fransuzcha paremiologik birliklar bunday keskin xulosa qilishga asosiy sabab bo'ladi.

### **3-§. Imperativ paremiyalarning struktur-semantik xususiyatlari.**

Imperativ paremiyalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni struktur-semantik tahlil nuqtayi nazaridan ham tavsiflash o'rinlidir. Zero, professor, Sh.Safarov urg'u berganidek, pragmalingvistikaning sintaksis bilan aloqasi, ayniqsa, uning nutqiy aktlarni guruhlash va tasniflashga oid sohasida yaqqol namoyon bo'ladi. Gaplarning an'anaviy kommunikativ turlari - darak, buyruq, undov gaplar guruhlarining illokutiv maqsadni ifodalash darajasini aniqlash sintaktik tuzilmalarning pragmatik imkoniyatlarni bilish uchun zarurdir<sup>2</sup>. Ushbu vaziyatda albatta, imperativ paremiyalarning asosiy struktur shakllaridan ularning

<sup>1</sup> Буйруқ гап. / <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/buyruq-gap-uz/>

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б. 257. / – 318  
6. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/146-ona-tili-va-adabiyot>

sodda va qo'shma gap turlari orqali ifodalanganligi tahlil jarayonini ancha yengillashtiradi. Binobarin, bunday maqollarning ichki strukturasi e'tibor qaratilsa, dastavval, sodda yoki qo'shma gap shakllari yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra ularni ikki katta struktur-semantik guruhga bo'lib o'rganish joiz. Ya'ni 1) sodda gap bilan ifodalangan va 2) qo'shma gap bilan ifodalangan imperativ paremiyalar. Masalan:

<b>Sodda gap bilan ifodalangan imperativ paremiyalar.</b>	<b>Qo'shma gap bilan ifodalangan imperativ paremiyalar.</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Ne jetez pas vos perles aux pourceaux.</i> - Qadringni bilmaganga qaddingni egma !</li> <li>• <i>Hâte-toi lentement!</i> - Qimirlagan qir oshar !</li> <li>• <i>Occupe-toi de tes oignons.</i> - Keraksiz joyga burningni suqma!</li> <li>• <i>Gouverne ta bouche selon ta bourse</i> - Daromadga qarab buromad.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Dis-moi qui tu hantés, je te dirai qui tu es.</i> – Do'stingni ayt, sening kimligingni aytib beraman!</li> <li>• <i>Ne remets pas au lendemain ce que tu peux faire aujourd'hui.</i> – Bugungi ishni ertaga qo'yma!</li> <li>• <i>Demandez à un malade s'il veut la santé</i> – Tabib tabib emas, boshidan o'tkazgan tabib .</li> </ul>

Bundan tashqari, ularni tarkibidagi bog'lovchilarning qo'llanilish turlariga qarab ham ajratish mumkin. Masalan, bunday maqollar bir necha xil ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Bular quyidagilar :

1. Biriktiruv ma'nosini (*le sens copulatif*) ifodalaydi va *et, ni* (inkor gaplarda), *aussi, enfin, ensuite, puis, de plus, bien plus, même, or* kabi bog'lovchi va ravishlarning birortasi bilan birga keladi.

2. Ayiruv ma'nosini (*le sens disjonctif*) ifodalaydi va *ou, ou bien, tantôt, plutôt* kabi bog'lovchilarning birortasi bilan birga keladi.

3. Zidlov ma'nosini (*le sens adversatif*) ifodalaydi va *mais, au contraire, par contre, toutefois, du moins, néanmoins, sinon, pourtant, cependant* kabi bog'lovchilarning birortasi bilan birga keladi.

4. Sabab-natija ma'nosini (*le sens causal et de consequence*) ifodalaydi va *car, en effet, tant, donc* kabi bog'lovchilarning birortasi bilan birga keladi.



5. Izohlash ma'nosini (*le sens explicatif*) ifodalaydi va *au fait, au reste, du reste, d'ailleurs, un peu plus, c'est-à-dire, de toute façon* kabi bog'lovchi va ravishlarning birortasi bilan birga keladi<sup>1</sup>.

Fransuzcha imperativ maqollarning aksariyati asosan, sabab-natija, biriktiruv va zidlov munosabatlarini ifodalab keladi. Masalan:

Sabab-natija ma'nosi: *Jupiter, tu te fâches, **donc** tu a tort.*

*- Jahl chiqqanda aql ketadi !*

Biriktiruv ma'nosi: *Montre-moi un menteur **et** je montrerai un voleur.*

*- Yolg'onni oxiri voy!; Dîne sobrement, soupe honnêtement, dors paisiblement **et** tu vivras longuetemps. - Sog'liqning garovi me'yor. Rendez à Cesar ce qui appartient à Cesar, **et** à Dieu ce qui appartient à Dieu. - Kattani katta bil, kichikni kichik!*

*- Zidlov ma'nosi: Usez, **mais** n'abusez pas. - Tuzini yeb tuzlig'iga tupurma. Allons, allons, se dit la grue, **et cependant** ne se remue. - Dangasaga ish buyursang aql o'rgatadi !*

Shuningdek, ergashgan qo'shma gap shaklidagi imperativ paremiyalarda nisbiy bog'lovchilar eng ko'p qo'llaniladigan bog'lovchi turlari sanaladi va ular maqol mazmunini to'ldirish va undagi ayrim bo'laklarga aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi. Masalan:

○ *Fais ce que dois, advienne **que** pourra* – O'ychi o'yini o'ylaguncha tavakkalchi ishini bitiradi !

○ *Dis-moi **qui** tu hantés, je te dirai **qui** tu es.* – Do'stingni ayt, sening kimligingni aytib beraman!

○ *Fais **ce que** tu peux, si tu ne peux faire **ce que** tu veux-* O'zingiz xohlaganCHA emas, qo'lingizdan kelganicha yashang!

○ *Rendez à Cesar **ce qui** appartient à Cesar, **et** à Dieu **ce qui** appartient à Dieu.* - Kattani katta bil, kichikni kichik!

○ *Ne crie pas sur les toits **ce qu'on** t'a confié à l'oreille* - Sirni sirtga chiqarma!

Shu bilan birga, bog'lovchisiz bog'langan imperativ paremiyalar ham mavjud bo'lib, ular asosan, kommunikativ maqsadni yanada aniqroq va tushunarli tarzda ifodalash vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Ya'ni, ular nasihat, maslahat, ogohlantirish, uqtirish va

---

<sup>1</sup> Suvonova N. Matn tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. –B. 13. / - 47 b. <https://arm.samdchti.uz/library/book view/117>



buyurish kabi kommunikativ semantik turlarni prosodik vositalar orqali namoyon etadi va bu holat paremiyalardagi pauza, tembr, melodiya, tessitura kabi ohangga xos hodisalar yordamida nutqda aniq faollashadi. Masalan:

<b>Fransuzcha imperativ maqollar:</b>	<b>Kommunikativ maqsadi:</b>
<i>Nourris un corbeau, il te crevera l'oeil.</i>	Ogohlantirish
<i>Ne dites jamais -jamais, ne dites jamais – toujours.</i>	Nasihat
<i>Dis-moi qui tu hantés, je te dirai qui tu es.</i>	Buyruq
<i>Aide toi, le ciel t'aidera.</i>	Uqtirish
<i>Je le dis à toi, ma fille; entends-moi bien, ma fillâtre.</i>	Maslahat
<i>Entends premier, parle dernier.</i>	Nasihat

Xulosa sifatida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

1. Imperativ maqollardagi buyruq kommunikativ maqsadini so'zlovchi o'z kommunikativ istagiga erishish yo'lida barcha shartli lisoniy belgilarni jo'yali, o'z o'rnida ishlata olgan holda axloqiy harakatlarga nisbatan oqilona undash, deb tavsiflash mumkin.

2. Nutqda imperativni foydalanishdan ko'zlangan maqsad har qanday harakatni amalga oshirish yoki oldini olishdan iborat bo'lib, ular nafaqat, *nasihat* va *maslahat* tushunchalarini, balki, nasihatimiz *buyruq* va nasihatimiz *ta'qiq, ogohlantirish, buyurish, uqtirish* kabi tagma'nolarini ham ifodalaydi.

3. Imperativ maqollardan ko'zlangan intensional maqsadni aniqlash avvalambor, ma'lumotlarning qabul qilinish sifatini yaxshilashga hamda samarali aloqani o'rnatish imkonini beradi va ularning ushbu xususiyati imperativ paremiyalarni kommunikativ-semantik va pragmatik hodisa sifatida tavsiflash imkonini beradi.

4. Imperativ paremiyalarning o'ziga xos kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganish nutqiy aktlarni guruhlash va tasniflash hamda sintaktik tuzilmalarning pragmatik imkoniyatlarini namoyon etishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

### 3.3. YUMORISTIK FRAZELOGIZMLAR - REAL VOQELIKNI KULGILI BAHOLASH VOSITASI SIFATIDA

#### 1-§. Yumor va uning tilshunoslikda o'rganilish xususiyatlari.

Yumor - bu insonlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy ta'sirning barcha turlarida paydo bo'ladigan faoliyat shakli bo'lib, kishilar kun davomida uning turfa ko'rinishlari hisoblangan kulgili voqea-hodisalarga ko'plab duch kelishadi. Rod Martin va Tomas Fordlarning fikriga ko'ra, yumor oddiy kulgili hazillardan iborat bo'lishiga qaramasdan kognitiv, lingvistik, psixologik va ijtimoiy xarakterdagi bir qator jiddiy funksiyalarga ham egadir<sup>1</sup>. Binobarin, yumor qadimdan inson dunyoqarashining mazmun-mohiyati bo'lganligi sababli ko'plab izlanuvchilar, xususan, tilshunos, adabiyotshunos, faylasuf, psixolog va madaniyatshunoslarning diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. U asosiy estetik kategoriyalardan biri sifatida asosan, Platon va Aristotel davridan boshlab, kamida ikki yarim ming yillik tarixga ega.<sup>2</sup>

Tilshunoslik nazariyasida yumorni o'rganishga bo'lgan qiziqish dastlab, an'anaviy tarzda yumor paydo bo'lish jarayonidagi ifoda vositalari va ularning usullarini o'rganishdan boshlanib, ulardagi yumoristik buyoqdorlik hosil qilishning lingvistik mexanizmlarini ishlab chiqish kabi masalalar yechimiga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar orqali davom etmoqda. Masalan, I. Arnold<sup>3</sup>, S. Poxodnya<sup>4</sup>, L. Orletskaya<sup>5</sup>, V. Bondarenko<sup>6</sup>, E. Arsenteva<sup>7</sup> va boshqa tilshunoslarning ilmiy izlanishlari asosan, tilning barcha sathlarida sodir bo'ladigan komik buyoqdorlik, qolaversa, badiiy matnlardagi yumoristik frazeologiya tamoyillariga qaratilgandir.

V. Devkin ta'kidlaganidek, tilshunoslik sohasida yumorga bo'lgan munosabat ancha keng qamrovli bo'lib, har qanday til

---

<sup>1</sup> *Martin, R., Ford, T., The Psychology of Humour. An Integrative Approach. Elsevier, Burlington. 2018. <https://www.elsevier.com/books/the-psychology-of-humor/martin/978-0-12-812143-6>*

<sup>2</sup> *Рюмина М. Т. Эстетика смеха: Смех как виртуальная реальность. М.: УРСС : Едиториал УРСС, 2003. -С.17 /-311 с.*

<sup>3</sup> *Арнольд И.В. Нарушение сочетаемости на разных уровнях языка -лингвистический механизм комического эффекта // Сб. науч. тр. МГППЯ им.М.Тореза. -М., 1979. № 145. - С. 100-109.*

<sup>4</sup> *Походня С.И. Языковые виды и средства реализации иронии. -Киев: Наукова Думка, 1989. -128 с.*

<sup>5</sup> *Орлецкая Л. Фраzeологизмы как средство создания юмористического эффекта в тексте. Автореф.канд.фил.наук. -Москва, 1994. -26с.*

<sup>6</sup> *Бондаренко В. О смехе русской фразеологии // Тульский научный вестник. Серия История. Языкознание. 2021. Выпуск № 1 (5). -С. 69-75. <https://elibrary.ru/item.asp?id=45043384>*

<sup>7</sup> *Арсентьева Е. Роль контекстуальных преобразований фразеологизмов в создании юмористического эффекта в литературном анекдоте //Ученые записки Казанского государственного университета, Том 148, кн. 3-Гуманитарные науки, 2006. -С.36-41 <https://elibrary.ru/item.asp?id=9484094>*

birlikini “hazil” tushunchasi bilan bog‘lash mumkin, ya’ni so‘z, so‘z birikmasi, frazeologik iboralar, maqol va matallar, klishe iboralar, gap va matnlar shular jumlasidandir. V.Devkin ushbu birliklarni umumlashtirgan holda *yumoremalar*, deb ham ataydi<sup>1</sup>.

Ma’lumki, kulgili iboralarning yumoristik xususiyati nafaqat ulardagi obrazlilikka asoslanadi, balki, so‘zlovchilar ularni tom ma’noda tushunishi orqali yuzaga keladi<sup>2</sup>. Ushbu fikrga qo‘shimcha tarzda A. Bergsonning “*dès que notre attention se concentre sur la matérialité d’une métaphore, l’idée exprimée devient comique*” (Agar diqqat e’tiborimiz metaforalarning moddiy tushunchasiga qaratilgan bo‘lsa, unda ifodalangan ma’no haqiqatdan komik ma’no kasb etadi.) ta’rifini ham keltirish joizdir<sup>3</sup>. Tilshunoslikda kulgili iboralar absurd hodisa sifatida ham talqin qilinadi. Aynan “absurd” tushunchasi zamirida esa so‘z birikmalarining ichki tuzilishidagi semantik moslashuvning nomutanosibliigi inobatga olingan<sup>4</sup>. Shunga ko‘ra yasaliş jarayonida metaforik ma’no asosidagi kinoya, tabassum yoki kulgiga asoslangan frazeologik birliklarni yumor hosil qiluvchi, boshqacha qilib aytganda, *yumoristik frazeologizmlar* turkumiga kiritish mumkin.

Tilshunoslik fanida bunday iboralarni ifodalash uchun bir qancha turli xil atamalar ishlatiladi. Ushbu mavzuga eng ko‘p e’tibor qaratgan tilshunoslarning aksariyati rus tadqiqotchilari bo‘lganligi uchun ham bunday yumoristik frazeologizmlarni ifodalash uchun ular tomonidan *шутливые фразеологизмы, смешные фразеологизмы* yoki *весёлые фразеологизмы* kabi atamalar qo‘llanilib kelingan<sup>5</sup>. *Hazilomuz* (*шутливые*), *kulgili* (*смешные*) yoki *quvnoq* (*весёлые*) kabi sifatlarning barchasi umumiy tarzda yumorga ishora qilayotganligi sababli bunday turdagi frazeologik birliklarni soddaroq qilib *yumoristik frazeologizmlar*, deb atash mumkin. Chunki o‘zbek tilidagi *yumoristik* sifati “O‘zbek tilining

---

<sup>1</sup> Девкин В. Д. Юморемы // Слово в словаре и дискурсе : сб. науч. ст. к 50-летию Харри Вальтера. М.: Элпис, 2006. С. 71–76.

<sup>2</sup> Скоробогатова Т.И. Юмористический потенциал французских фразеологизмов // Социально-гуманитарные науки: Приложение к журналу “Вестник МГОУ”. М.: МГОУ, 2010. Вып. 27.–С.20./-С.17–21.

<sup>3</sup> Bergson H. Le rire. Essai sur la signification du comique // UQAC. Les classiques des sciences sociales. –P. 52. [http://philo.breucker.org/Bergson\\_le\\_rire.pdf](http://philo.breucker.org/Bergson_le_rire.pdf)

<sup>4</sup> Черданцева Т.З. Итальянская фразеология и итальянцы. М.: ЧеРо, 2000. –С. 21-27./ -304 с.

<sup>5</sup> Веселые и шутливые фразеологические обороты для дошкольников. - Маам.ру <https://www.maam.ru/detskijasad/veselye-i-shutlivye-frazeologicheskie-oboroty-dlja-doshkolnikov.html>

izohli lug'ati"da *yumorga asoslangan; kulgili; degan* ma'noni anglatishi zikr etilgan<sup>1</sup>.

## 2-§. Fransuzcha frazeologizmlarning yumoristik xususiyatlari.

Kishilarning nutqda kulgili frazeologik birliklardan foydalanish qobiliyati so'zlovchilarda muloqotga xos nostandart fikrlash, shuningdek, hazil-mutoyiba hissini paydo qiladi va bu orqali so'zlovchining tinlovchiga bo'lgan ta'siri ortadi, ya'ni so'zlovchining tinglovchini o'z tomoniga og'dirishdagi kulgili tarzda jilolangan eng oson, qo'lay va ishonchli vositalaridan biri shakllanadi.

Mazkur bo'limda biz ham kishiga tabassum baxsh etadigan va estetik zavq beradigan, shuningdek, kommunikativ-pragmatik xususiyatga ega fransuzcha yumoristik frazeologizmlar (keyinchalik YUF) to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Fransuz yumorining o'ziga xos diskursiv va antropotsentrik xususiyatlari asosan qiyosiy aspektda, ya'ni rus va ingliz tili bilan taqqoslangan holda M. Balandina<sup>2</sup>, E.Xrusheva<sup>3</sup>, E.Aleksandrova<sup>4</sup>, L.Borodinalar<sup>5</sup> tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosan badiiy matnlar doirasida amalga oshirilgan. Frazeologizmlarga xos yumoristik xususiyatlar sof fransuz tili misolida T.Skorobogatova<sup>6</sup> tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, so'nggi vaqtlarda fransuz frazeologiyasining yumoristik xususiyatlari tadqiqi frazeolog tilshunoslar tomonidan biroz e'tibordan chetda qolmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, yumor individual xatti-harakatlar va muloqot faoliyati bilan o'zviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin

<sup>1</sup> *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. Мадвалиев А. таҳрири остида. 2006-2008. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

<sup>2</sup> *Баландина М. Р.* Юмор, его соотношение с другими эстетическими категориями и средства их передачи во французско-русских переводах. Дисс.канд.фил.наук. –Москва, 2006. –197 с. / <https://elibrary.ru/item.asp?id=16077372>

<sup>3</sup> *Хрущева Е.* Национально-культурная основа анекдота: сопоставительный анализ английского, французского и русского языков. Автореф.канд.фил.наук. –Москва, 2009 -28 с.

<sup>4</sup> *Александрова Е. М.* Перевод анекдота: проблемы адекватности и эквивалентности: на материале французских и русских анекдотов. Автореф.канд.фил.наук. –Москва, 2006. –28с. <https://www.dissercat.com/content/perevod-anekdota-problemy-adekvatnosti-i-ekvivalentnosti-na-materiale-frantsuzskikh-i-russki>

<sup>5</sup> *Бородина Л. В.* Антропоцентризм юмористического дискурса: на материале русского и французского анекдота. Автореф.канд.фил.наук. –Волгоград, 2015. -18с. <https://www.dissercat.com/content/antropotsentrizm-yumoristicheskogo-diskursa-na-materiale-russkogo-i-frantsuzskogo-anekdota>

<sup>6</sup> *Скоробогатова Т.И.* Юмористический потенциал французских фразеологизмов // Социально-гуманитарные науки: Приложение к журналу "Вестник МГОУ". М.: МГОУ, 2010. Вып. 27. -С. 17–21.

qilinadi<sup>1</sup>. Shunday ekan, har bir xalqning o'ziga yarasha hazil va mutoyiba usullari mavjud bo'lib, ular mazkur xalqlarning o'zaro madaniyat va odob-axloq tamoyillariga borib taqaladi. Masalan, inglizlar o'zlarining ish faoliyati va qadr-qimmatini kulgi ostiga olishni yoqtirsa, fransuzlar esa, o'zlarini masxara qilishni aslo yoqtirmaydilar. Biroq boshqalardagi g'ayrioddiy holatlarga duch kelganda ularni o'ta istehzoli tarzda muhokama qilishni boshlaydilar. Ulardagi tabassumning ozgina ishorasi holatning asl mohiyatini ochib berishga yordam beradi va raqibga javob berish uchun sharoit ham yaratadi<sup>2</sup>.

Fransuz frazeologiyasiga diqqat bilan e'tibor qaratisa, yumoristik, ya'ni kulgili frazeologik birliklar fransuz frazeologik fondining ko'pchilik qismini tashkil etadi. Masalan, quyida ularning ayrimlarini misol tariqasida keltirish mumkin:

<b>Fransuzcha YUFlar:</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasini:</b>	<b>O'zbekcha talqini :</b>
<i>Avoir les deux pieds dans le même sabot;</i>	Ikkala oyoqni ham bir kovushga tiqib olmoq;	<i>Ikki oyoqni bir etikka tiqib olmoq;</i>
<i>Parler français comme une vache espagnol ;</i>	Fransuz tilini ispan sigiriga o'xshab gapirmoq;	<i>Fransuz tilini bo'zib gapirmoq;</i>
<i>Clouer le bec de quelqu'un;</i>	Birovning tumshug'ini mixlab qo'yimoq;	<i>Birovning og'zini yopmoq;</i>
<i>Donner sa langue au chat;</i>	Tilini mushukka bermoq;	<i>shahar bermoq ;</i>
<i>Haut comme trois pommes;</i>	Uchta olmadek baland;	<i>Pakana;</i>
<i>Avoir un poil dans la main;</i>	Kaftida tuki bo'lmoq;	<i>Ishyoqmas, dangasa bo'lmoq;</i>

Hozirgi kungacha fransuz frazeologiyasidagi YUFlar bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari asosan ilmiy-amaliy masalalar yechimiga qaratilganligi sababli biz ham mazkur bo'limda fransuzcha YUFlarning aynan amaliy xususiyatlariga e'tibor qaratmoqchimiz. Shunga ko'ra ularning struktur-semantik turlarini

<sup>1</sup> Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // ГОЛ. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. М.: Прогресс, 1988. -С.281-309.

<sup>2</sup> Над чем смеются французы <https://wrabbit.ru/articles/page/fransmeh>

o'rganish nutqda ularni mazmun va shakl jihatdan o'zaro farqlash imkonini beradi. Fransuzcha YUFlarning bunday xususiyatlariga ko'ra fe'lli, sifatli, ravishli va o'tli YUFlarga ajratish mumkin. Shulardan fe'lli YUFlar eng ko'p uchraydigan birliklar sifatida xizmat qilsa, sifatli va ravishli va o'tli YUFlar esa frazeologiya fondidagi kam sonli YUFlar sanaladi. Masalan, quyidagi jadvalga e'tibor qilaylik:

<b>Fransuzcha YUFlar:</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasini:</b>	<b>O'zbekcha talqini :</b>
<b>Fe'lli yumoristik frazeologizmlar:</b>		
<i>Boire comme un trou</i>	Teshikdek ichmoq	<i>Upqondek sipqarmoq</i>
<i>Cracher dans la soupe</i>	Sho'rvaga tupirmoq	<i>Noshukrlik qilmoq</i>
<i>Être con comme un balai</i>	Supurgidek soqov bo'lmoq	<i>Ahmoq bo'lmoq</i>
<i>Se noyer dans un verre d'eau</i>	Bir stakan suvga chukmoq	<i>Ishga shung'ib ketmoq</i>
<b>Sifatli yumoristik frazeologizmlar:</b>		
<i>Maigre comme un crayon</i>	Qalamdek nozik	<i>Juda ozg'in</i>
<i>Haut comme trois pommes;</i>	Uchta olmadek baland;	<i>Pakana;</i>
<b>Ravishli yumoristik frazeologizmlar:</b>		
<i>En faire tout un fromage</i>	Butun pishloq tayyorlab	<i>Shovqin qilib</i>
<i>Quand les poules auront des dents</i>	Tovuqlarning tishi chiqqanda	<i>Hech qachon (tuyaning dumi yerga tekkanda)</i>
<b>O'tli yumoristik frazeologizmlar:</b>		
<i>Un ciel sans nuage</i>	Bulutsiz osmon	<i>Tashvishsiz hayot</i>

Fransuz tilidagi fe'lli YUFlar asosan, idiomalar yoki unilaterial iboralar tarzida namoyon bo'ladi. Ularning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi yaxlitlikdagi ajralmas subyekt va obyekt bo'laklari o'zlarining erkin sintaktik korrelyatlariga ega bo'lib, o'z ifoda vositalari orqali bir-birlaridan o'zaro farq qiladi. Ular o'zlarida aks

etgan harakat subyektini va obyektini nuqtai nazaridan quyidagicha o'zaro munosabat shakllarini ifodalay oladi:

- Subyekt – shaxs / obyekt – somatizm;
- Subyekt – shaxs / obyekt – predmet;
- Subyekt – shaxs / obyekt – meva;
- Subyekt – shaxs / obyekt – hayvon;
- Subyekt – shaxs / obyekt – hashorat;
- Subyekt – shaxs / obyekt – qimmatbaho modda; va boshqalar.

Agar YUFlar tarkibidagi yuqorida keltirilgan subyekt va obyekt komponentlarini umumlashtirgan holda quyidagicha to'rtta turkumga ajratish mumkin, ya'ni obyekt sifatida 1) shaxs komponentlari, 2) ijtimoiy olam, 3) hayvonot olami va 4) o'simliklar olamini inobatga olish lozim.

Fransuzcha fe'lli YUFlarning subyektini doimo shaxs bilan ifodalanishi, biroq ularning obyektlari esa xilma-xillikdan iborat bo'lishi mumkin. Bunday turfa obyektlar aksiyat hollarda somatizmlar, predmet va hayvon nomlaridan tashkil topadi. Masalan, subyektini faqat shaxsdan iborat bo'lgan fe'lli YUFlar obyektining xilma-xil ifoda vositalariga quyidagilarni keltirish mumkin:

Obyekt:	Fransuzcha YUFlar:	So'zma-so'z tarjimasini:	O'zbekcha talqini :
Somatizm	<i>Donner sa langue au chat</i>	Tilini mushukka bermoq	<i>Shahar bermoq</i>
Somatizm	<i>Mettre le pied dans le plat</i>	Idishga oyog'ini solib olmoq	<i>Xato qilib qo'yimoq.</i>
Predmet	<i>Être con comme un balai</i>	Supurgidek soqov bo'lmoq	<i>Ahmoq bo'lmoq</i>
Predmet	<i>Se noyer dans un verre d'eau</i>	Bir stakan suvga chukmoq	<i>Ishga shung'ib ketmoq</i>
Hayvon	<i>Peigner la girafe</i>	Jirafani tarab qo'yimoq	<i>Vaqtini behuda sarflamoq</i>
Hashorat	<i>Avoir le cafard</i>	Tarakanga ega bo'lmoq	<i>Tushkunlikka tushmoq</i>



Meva	<i>Tomber dans les <b>pommes</b></i>	Olma ichiga yiqilmoq	<i>Qochib qolmoq</i>
------	--------------------------------------	----------------------	----------------------

Fransuz frazeologiyasining yumoristik kategoriyasi kam o'rganilgan masalalardan biri sanaladi, deb hisoblash noo'rin bo'lmaydi. Chunki hozirgi vaqtda fransuz tilining hech qaysi frazeologik lug'atida yumoristik frazeologizmlar to'g'risida ma'lumot berilmagan. Ma'lum bir xalqning YUFlarini o'rganish o'sha xalq madaniyati va ularga xos hazil-mutoyiba olamini kashf etishga, shuningdek, ular mazmunini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Zero, frazeologik iboralarda aks etgan ma'nolar va hayotiy voqelikni tasvirlashda yumor, ya'ni kulgili yoki hazilomuz ma'nolardan foydalanishning o'zi YUFlarning kulgi bilan real olam o'rtasidagi o'zaro bog'lovchi vositalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Yumoristik xususiyatga ega frazeologik birliklarning eng muhim belgilaridan biri ularda hajviy ma'noning mavjudligidir. Bunday ma'no iboralardagi ma'lum bir estetik, lingvistik va qolaversa, psixologik xususiyatlar namoyon bo'lganda paydo bo'ladi. Iboralarga xos estetik xususiyatlar ularning ma'naviy barqarorligini, lingvistik xususiyatlar ibora ma'nosining tilda aks etish vositalarini va psixologik xususiyatlar esa iboraning tinglovchida hosil qiladigan kulgi refleksi o'z ichiga oladi. Ushbu o'rindagi kulgi refleksi kulgili voqea-hodisalarni idrok qilish va unga nisbatan hissiy munosabat bildirish qobiliyatidir.

Kulgi o'z navbatida ikki xil qarama-qarshi shakldan iborat bo'ladi, Ya'ni, tananing yayrab kulish holati va aqliy kulgi. Ularni boshqacha qilib, *tana kulgisi* va *aql kulgisi*, deyish ham mumkin. Tana kulgusida kishining quvonch va xursandchilik ifodasi, aql kulgisida voqelikni kulgili baholash ifodasi aks etadi<sup>1</sup>. Aynan real-voqea-hodisalarga nisbatan kulgili frazeologizmlar orqali baho berish jarayonida aql kulgisi namoyon bo'ladi.

### **3-§. Fransuzcha paremiyalarning yumoristik xususiyatlari.**

Fransuz tili frazeologiyasi yuzasidan olib borilgan mazkur bo'limda, ya'ni fransuzcha YUFlarning har tomonlama o'ziga xoslik

<sup>1</sup> Хрущева Е. Национально-культурная основа анекдота: сопоставительный анализ английского, французского и русского языков. Автореф.канд.фил.наук. –Москва, 2009. –С. 13./ -28 с.



jihatlarni o'rganish davomida yuqorida keltirilganidek, yumor tushunchasi nafaqat frazeologik iboralarda, balki, maqol, matal yoki hikmatli so'z va iboralarda ham keng uchraydi. Fikrimizning isboti sifatida ayrim tilshunoslar frazeologiya fondining maqol, matal, aforizm, topishmoq va hatto ma'naviy-axloqiy ertaklar ham hazil-mutoyiba orqali voqelanishi mumkinligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Shu sababli ushbu izlanish materiali sifatida nafaqat iboralar, balki maqollar yoki hikmatli so'zlarga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Fransuz tilidagi bunday frazeologik birliklar ayrim manbalarda quyidagi atamalar bilan nomlanadi<sup>2</sup> :

<b>Hikmatli so'z va iboralar:</b>	<b>Kulgili hikmatli so'z va iboralar:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>les expressions intelligentes;</i></li> <li>• <i>les expressions pleines de sens philosophiques ;</i></li> <li>• <i>les plus belles expressions ;</i></li> <li>• <i>les plus belles phrases ;</i></li> <li>• <i>les magnifiques phrases ;</i></li> <li>• <i>les citations ;</i></li> <li>• <i>les petits textes de sagesse ;</i></li> <li>• <i>les expressions imagée ;</i></li> <li>• <i>les petites phrases philosophiques ;</i></li> <li>• <i>les petites phrases morales pleines de sagesse ;</i></li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>les expressions humoristiques mais philosophiques;</i></li> <li>• <i>les expressions drôle mais philosophiques;</i></li> <li>• <i>les expressions comiques ;</i></li> <li>• <i>les expressions marrantes ;</i></li> <li>• <i>les expressions rigolotes;</i></li> </ul>

Fransuz tilidagi hikmatli so'z, maqol va iboralarni nomlashda asosan *expression* atamasidan foydalanilgani sababli biz ham ushbu bo'limda kulgili maqol va hikmatli so'zlarni ifodalash uchun *expressions humoristiques - yumoristik iboralar (keyinchalik YUllar)* atamasidan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

*Les expressions (proverbes) humoristiques*, ya'ni fransuz tilining yumoristik iboralari ma'lum bir hikmatomuz va dono fikrlarni yumor orqali ifodalaydi, biroq ularda aks etgan tushuncha falsafiy

<sup>1</sup> Середа П.В., Маркевич Ю.В. Лингвокультурные особенности юмористического дискурса русского языка. // Научные труды КубГУ, № 3, 2016. –С.131. / –С.129-137. <https://elibrary.ru/item.asp?id=25793642>

<sup>2</sup> *Les plus beaux textes à méditer et à partager* <https://www.correspondons.com/beaux-textes/>

nuqtayi nazardan chuqur ma'noga ega bo'ladi. Masalan, shunday YUllarga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

<b>Fransuzcha yumoristik iboralar:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>On ne peut pas forcer à boire un âne qui n'a pas soif.</i>	<i>Eshak chanqamasa unga majburlab suv ichirib bo'lmaydi. - Biror kimsani o'zi xohlamasa foydali ishni qilishga majburlay olmaslik.</i>
<i>L'expérience est comme un peigne fin pour un chauve.</i>	<i>Tajriba kal kishi uchun nozik taroqqa o'xshaydi. - Keksalar tomonidan to'plangan tajriba o'zlari uchun keraksizdir.</i>
<i>Le coq chante bien mais il ne pond pas d'œufs.</i>	<i>Xo'roz yaxshi qichqiradi, lekin tuxum qo'ymaydi. - Juda ko'p gapiradigan, lekin qo'lidan biror bir ish kelmaydigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi.</i>
<i>La culture c'est comme la confiture, moins on en a plus on l'étale.</i>	<i>Madaniyat murabboga o'xshaydi, u qancha kam bo'lsa, shuncha ko'p tarqatishni istaysan. - Aqlli va madaniyatli kishilar o'zlarining aql-zakovat va madaniyat sohiblari ekanliklarini boshqalarga isbotlashi shart emas.</i>

Yuqorida keltirilgan aforizmlarni o'zlarida ma'lum bir hikmatli ma'no va tushunchalarni aks ettirgani bois *yumoristik maqollar*, deb ham nomlash mumkin. Shuningdek, ular falsafiy ma'nolar ifodasini yorqin aks ettirganligi bilan alohida ajralib turadi. Xususan, bunday YUllar *hikmat, falsafiy ma'no* va *yumor* uchligi asosidagi umumiy yig'indini aks ettiruvchi frazeologik birliklar hisoblanadi. Bundan tashqari, ular asosan, fransuz tiliga sharq madaniyati orqali kirib kelgan maqol, aforizm va iboralardan iboratdir. Masalan, fransuz tilining frazeologik fondida arab xalqlaridan kirib kelgan maqollar ko'pchilikni tashkil etadi.

Bunday turdagi fransuzcha YUllar o'z ifodalayotgan ma'no ko'lamiga ko'ra bir qancha mavzularni aks ettirishi mumkin. Shunday mavzulardan biri muhabbat va ishqiy munosabatlar mavzusi bo'lib, ularning kulgili tarzda yumor orqali ifodalanishi real voqea-hodisalarning nechog'lik haqiqiy mazmun-mohiyatini ochib

berishga yordam beradi. Bunday YUllarning dastlab ko'zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri - ifoda shakllari, ya'ni ularning struktur-sintaktik xususiyatlari alohida tadqiqotni talab qiladi. Masalan, ular orasida asosan, maqol shaklidagi va fe'lli ibora ko'rinishidagi struktur turlari keng uchraydi. Masalan:

<b>Yumoristik maqollar :</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasini:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>Mariage plus vieux Mariage heureux !</i>	<i>Juda keksa nikoh- Baxtli nikoh!</i>	<i>Keksalikdagi nikoh – baxtli nikohdir! Kishi qanchalik hayotni yaxshi o'rganib, kech turmush qursa, o'sha oila baxtli bo'ladi.</i>
<i>Il n'y pas de belle rose sans épines.</i>	<i>Tikansiz chiroyli atirgul bo'lmaydi.</i>	<i>Atirgul tikansiz bo'lmaydi. Go'zal narsa yoki go'zal kishining ham dilni xira qiladigan kamchiliklari bo'ladi.</i>

<b>Yumoristik fe'lli iboralar :</b>	<b>So'zma-so'z tarjimasini:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>Donner son cœur à quelqu'un.</i>	<i>O'z yuragini birovga berib turmoq.</i>	<i>Birovga yuragini bermoq. Kimnidir qattiq sevisish unga to'liq taslim bo'lishdir.</i>
<i>Demander la main de quelqu'un.</i>	<i>Birovning qo'lini so'rab olmoq.</i>	<i>Birovning qo'lini so'ramoq. Birovdan turmushga chiqish uchun roziligini so'ramoq.</i>

“Muhabbat” haqidagi falsafiy ma'noli yumoristik maqollar boshqa maqollardan o'zlarining reduplikativ va qofiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, muhabbat mavzusining eng dominant leksik birliklari hisoblangan *mariage – nikoh; femme – ayol; aimer – sevmok;* kabi so'zlari bunday maqollar tarkibida takror tarzda qo'llanilishi yoki *-eux; -ette; -it;* singari so'z yasovchi morfemik qo'shimchalarning leksik birliklar oxirida qofiyaviy tarzda qo'llanilishi YUllar tarkibidagi ma'lum bir komponentlarga mazmun jihatdan urg'u berish uchun xizmat qiladi. Bu ikki xil struktur xususiyatning bir vaqtning o'zida bir YUI tarkibida birga qo'llanilishi ushbu maqol va iboralarning jarangdorligi, tezda

esda saqlanishi, ohangdorligi va mazmunning yetarli darajada tushunarli ekanligini ifodalaydi.

Bundan tashqari, *mariage – nikoh; femme – ayol*; leksemalari “muhabbat” mavzusining asl subyektiv komponentlari bo‘lib, YUllar matnining leksik aktualizatorlari sifatida xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, bu ikkala dominant leksemani “muhabbat” mavzusidagi maqollarning doimiy subyektiv sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu mavzu doirasidagi fe‘lli YUllarda esa doimiy subyektiv shaxsli komponentdan iborat bo‘ladi. Quyidagi misollarni kuzatish orqali yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar isbotini ko‘rish mumkin:

<b>Reduplikativ xususiyatlar :</b>	<b>Qofiyaviy xususiyatlar:</b>
<i><u>Mariage</u> pluvieux - <u>Mariage</u> heureux ;</i>	<i>Mariage <u>pluvieux</u> - <u>Mariage</u> <u>heureux</u> ;</i>
<i><u>Mariage</u> plus vieux-<u>Mariage</u> heureux ;</i>	<i>Mariage plus <u>vieux</u>- <u>Mariage</u> <u>heureux</u> ;</i>
<i>Qui <u>aime</u> un jour, <u>aimera</u> toujours ;</i>	<i>Qui aime <u>un jour</u>, <u>aimera</u> <u>toujours</u> ;</i>
<i><u>Femme</u> à lunettes, <u>femme</u> à <u>quéquette</u>!</i>	<i>Femme qui <u>rit</u> ... <u>bientôt</u> dans ton <u>lit</u> ;</i>
	<i>Femme à <u>lunettes</u>, femme à <u>quéquette</u>.</i>

Bunday YUllar ifodalayotgan yumoristik tushuncha va frazeologik ma‘nolarga e‘tibor qaratisa, ikkalasida ham subyektiv vazifasidagi “ijtimoiy hodisa” obyektiv vazifasidagi “ijtimoiy hodisa” bilan, “shaxs omili” obyektiv vazifasidagi “shaxs omili” bilan faollashadi. Masalan, ularning quyidagicha turlariga e‘tibor qarataylik:

- ***Mariage pluvieux - Mariage heureux.*** (Yomg‘irdagi nikoh–baxtli nikoh. Yomg‘irli kunda turmush qurish sevishganlarga baxt olib keladi.)

- ***Mariage plus vieux-Mariage heureux !*** (Keksalikdagi nikoh – baxtli nikoh! Kishi qanchalik hayotni yaxshi o‘rganib, kech turmush qursa, o‘sha oila baxtli bo‘ladi.)

- ***Femme qui rit ... bientôt dans ton lit.*** (Senga jilmaygan ayol tezda to‘shagaingdadir. Biror bir qiz yoki ayolni kuldirish uni yo‘ldan ozdirishdir.)

• **Femme à lunettes, femme à quéquette!** (Ko'zoynakli ayol – noz-karashmali ayol. Juda jiddiy va aqlli ko'ringan ko'zoynakli ayol erkak zotiga qiziquvchan bo'ladi.)

• **Donner son cœur à quelqu'un.** (Birovga yuragini bermoq. Kimnidir qattiq sevish unga to'liq taslim bo'lishdir.)

• **Demander la main de quelqu'un.** (Birovning qo'lini so'ramoq. Birovdan turmushga chiqish uchun roziligini so'ramoq.)

Fransuzcha *mariage* – nikoh; *femme* – ayol; komponentlari muhabbat mavzusidagi YUllarning leksik-semantik xususiyatlarini ham aks ettirgan holda yumoristik obyektlarning subyektivi vazifasida aktuallashadi va shunga asosan ularning birini YUllardagi ijtimoiy hodisa (*mariage* – nikoh;) va yana birini esa inson omili (*femme* – ayol;) sifatida o'rganish mumkin.

Fransuz tilidagi YUllarning mavzu ko'lami tahlil qilinganda nafaqat “muhabbat” mavzusi, balki “boylik”, “oila” va “oilaviy munosabatlar” mavzusi doirasidagi falsafiy mazmunga ega bo'lgan yumoristik iboralar ham ko'plab uchraydi. Masalan:

<b>“Boylik” mavzusidagi YUllar:</b>	<b>“Oila” mavzusidagi YUllar:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>L'argent ne tombe pas du ciel!</b> (Boylik osmondan tushmaydi. Boylik uchun ter tukib mehnat qilish kerakligi va mehnatning samarasi boylik ekanligiga ishora qilingan.)</li> <li>• <b>Jeter son argent par les fenêtres.</b> (Pulni derazadan uloqtirmoq. Pulni behuda sarflamoq.)</li> <li>• <b>Avoir le cœur sur la main.</b> (Qo'lining ustida yuragi bo'lmoq. Juda ochiq ko'ngil va saxiy bo'lmoq.)</li> <li>• <b>Être né avec une cuillère en or dans la bouche.</b> (Og'zida oltin qoshiq bilan tug'ilmoq. Boy va badavlat</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Si ce n'est toi, c'est ton frère.</b> (Agar sen bo'lmasang, bu - sening akangdir. Har qanday holatda kishini ayblovchi hukm.)</li> <li>• <b>Père trop généreux, fils ingrat!</b> (Juda saxiy ota va noshukr o'g'il. Ota-onalar juda mehribon, lekin farzandlar noshukrdir.)</li> <li>• <b>Les chiens ne font pas des chats.</b> (Itlardan mushuk yaralmaydi. Farzandlar ota-onalariga o'xshaydi. Yaxshi ota-onadan yomon farzand tug'ilmaydi.)</li> <li>• <b>Enfant trop gâté, parents non respectés.</b> (Juda erkalatilgan bola - hurmat</li> </ul>



<p><i>oiladan bo'lmoq.)</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Être né sous une bonne étoile.</b> (<i>Baxtli yulduz ostida tug'ilmoq. Baxtli bo'lmoq yoki hayotda barcha imtiyozlarga ega bo'lmoq.</i>)</li> <li>• <b>Avoir de l'or dans les mains.</b> (<i>Qo'lida oltin bo'lmoq. Qo'li gul, mohir hunarmand bo'lmoq va shu orqali ko'p pul topmoq.</i>)</li> </ul>	<p><i>ko'rmagan ota-ona. Ota-ona tomonidan farzandiga ko'rsatilgan moddiy e'tibor farzandni o'ta zolimga aylantiradi.)</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Marcher sur les pas de son père.</b> (<i>Otasining bosgan izidan yurmoq. Otasi hayotda qanday bo'lsa, farzandi ham shunday bo'ladi.</i>)</li> </ul>
---	--

Ko'rinib turibdiki, har bir mavzu doirasidagi YUllar o'ziga xos maxsus tadqiqot obyekti bo'la oladi. Masalan, "boylik" mavzusidagi *pulning osmondan tushishi, pulni derazadan uloqtirish, yurakning qo'l ustida bo'lishi, og'zida oltin qoshiq bilan tug'ilish, qo'lida oltin bo'lmoq* kabi kulgili holatlar orqali baxt va boylik mavzularining ifodalanishi yumor va lisoniy hodisalar o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjudligidan dalolat beradi va bunday muammolar tadqiqi esa tilshunoslikdagi ayrim frazeologik muammolar yechimiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar "boylik" va "oila" mavzusi doirasidagi falsafiy mazmunga ega bo'lgan YUllar struktur-semantik va funksional nuqtayi nazardan qiyoslanganda ular o'rtasidagi katta farq ko'zga tashlanadi. Xususan, YUllardagi "boylik" tushunchasi asosan, fe'lli frazeologizmlar bilan amalga oshsa, "oila" tushunchasi esa, faqat proverbial birliklar orqali amalga oshadi. Ya'ni "oila" tushunchasini kommunikativ birliklar tashkil etsa, "boylik" tushunchasi esa nokommunikativ birliklardan iboratdir. Bundan tashqari, ushbu mavzularni ochib berishda "boylik" tushunchasi uchun *argent - pul; or-oltin* leksemalari, "oila" tushunchasi uchun *parents - ota-ona; père-ota; frère-aka/uka; enfant-farzand* leksemalari asosiy leksik aktualizatorlar sifatida xizmat qiladi. Bu ikkala tushunchaning YUllarda voqelanish masalasini o'rganish nafaqat ularni voqelantiruvchi fundamental leksik aktualizatorlarni ajratish, balki, frazeologik ma'no va yumor o'rtasidagi leksik aktualizatorlarni ham o'rganish muhim sanaladi. Bu esa frazeologiya sohasida alohida tadqiqotni talab etadi.

Falsafiy ma'nodagi YUllar matnining ichki sistemasini tadqiq etish ularga xos yumoristik xususiyatning asosan qarama-qarshi tushunchalar orqali voqelanishini o'rganishga keng yo'l ochib beradi. Masalan, oila va oilaviy munosabatlar mavzusidagi quyidagi oppozitiv tushunchalarga e'tibor qilaylik:

- *Enfant trop gâté, parents non respectés.*

Juda erkalatilgan bola - hurmat ko'rmagan ota-ona. Ota-ona tomonidan farzandiga ko'rsatilgan moddiy e'tibor farzandni o'ta zolimga aylantiradi.

- *Père trop généreux, fils ingrat!*

Juda saxiy ota va noshukr o'g'il. Ota-onalar juda mehribon, lekin farzandlar noshukrdir.

Tuzilishi jihatdan yumoristik xususiyatga ega bo'lgan frazeologizmlar tarkibidagi bunday qarama-qarshi tushunchalar yuqorida ta'kidlanganidek, absurd va paradoksal ma'nolarni ifodalashi bilan bir qatorda, xalqning ijtimoiy-madaniy va tarixiy o'ziga xos an'analari hamda tarbiyaviy-ma'naviy xususiyatlarini ham tadqiq etish imkonini beradi.

Xulosa tariqasida shularni qayd etish lozimki, albatta, ushbu bo'limdagi fransuzcha yumoristik frazeologizmlarning tahlil ostiga olingan har bir xususiyati keng qamrovli alohida izlanishlarning to'laqonli tadqiqot obyekti bo'la oladi. Xususan, fransuzcha YUFlarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularga xos yumoristik xususiyatning semantik nomutanosibliigi masalasi, yumorni voqelantiruvchi leksik aktualizatorlar nomentklaturasi, yumor subyekti va obyektining o'zaro munosabati, metafora orqali ifodalangan yumoristik tushuncha hamda frazeologik ma'no o'rtasidagi aloqadorlik kabi masalalar shular jumlasidandir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yumor bizning nazarimizda oddiy kulgili hazillardan iborat bo'lishiga qaramasdan, o'ziga xos kognitiv, lingvistik, psixologik va ijtimoiy xarakterdagi xususiyatlari orqali har bir tadqiqotchining diqqat e'tiborini keng qamrovli ilmiy izlanish tomon yo'naltirishi mumkin.

### 3.4. FRAZEOLOGIYA VA ONOMATOPIYANING RUHIYAT TASVIRIDAGI O'ZARO SEMANTIK MUNOSABATLARI

#### 1-§. Frazеologiyada ruhiyat tasviri va onomatopik fe'llar tavsifi.

Tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan turli xil o'zgarishlar, hayotning rang-barang tasviri va undagi insonlarga xos xilma-xil munosabatlar kishi xarakteriga va ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Ana shunday turli tashqi ta'sirlar oqibatida kishi ruhiyatida har xil *shodlik, g'azab, xafalik, e'tiborsizlik* kabi turli qarama-qarshi emotsional holatlar vujudga keladi. Rus tilshunosi V.P.Belyanin ta'kidlaganidek, insonlarga xos ana shunday emotsional his-tuyg'ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biri esa tildir<sup>1</sup>.

Inson ruhiyatidagi har qanday o'zgarish, xususan, *xafa bo'lish, quvonish, qo'rquvga tushish* kabilar dastavval, insonlarning ichki kechinmalarida, ya'ni botiniy tarzda his qilinadi va shundan so'ng ular zohiriy tarzda inson tashqi qiyofasida aks etadi. Masalan, *qo'rquvdan tizzalari qaltirashi, rangi oqarib ketishi, uyalganidan qizarishi, ruhan tushkunlikka tushishi* kabilar shular jumlasidandir. Tilda ham emotsiyalar tasvirini ifodalovchi vositalar bir qancha bo'lib, bunday til birliklari o'rtasida oppozitsion munosabatlar mavjud va ularni doimo bir-biridan o'zaro farqlagan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Insonlarga xos his-tuyg'ularni ifodalovchi shu kabi til birliklari guruhi ham oppozitsion tarzda ijobiy va salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi leksik-semantik turlarga bo'linadi. Ularni birlashtiruvchi umumiy semantik xususiyatlar mavjud bo'lganligi sababli ushbu xususiyatlarni *ruhiyat tasviri* kabi yagona so'z bilan atash ehtimoli paydo bo'ladi. Agar ajratilgan leksik-semantik guruhlar boshqa biror bir katta hajmdagi guruh tarkibiga kirsam, ular ikki va undan ortiq umumiy ma'no xususiyatiga ega bo'lishi tabiiydir. Binobarin, salbiy emotsiya leksik-semantik guruhi tarkibidagi so'zlar uchun emotsionallik va salbiylik kabi semantik xususiyatlar umumlashuvi bir xilda mosdir<sup>2</sup>. Ruhiy holatni ifodalovchi leksik birliklar tilda ko'pchilikni tashkil etgani kabi emotiv FBlar orasida ham bunday birliklar son-sanoqsizdir. Biroq ular o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa leksik birliklardan ajralib turadi.

<sup>1</sup> Белянин В. П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). - М.: Тривола, 2000. - С.8.

<sup>2</sup> Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. -Тошкент: Фан, 2007. - Б.150.



Buyuk fransuz faylasuf yozuvchisi V.Gyugo fransuz tili borasida shunday deydi: *Fransuz tili harakatsiz to'xtab qolgan til emas va hech qachon bunday bo'lmaydi. Hech bir til qotib qolmaydi, tillar xuddi dengizdek chayqalib turadi*<sup>1</sup>. Vaholanki, tillar doimiy harakatda ekan, demak, unda yangidan-yangi FBlar ham to'xtovsiz paydo bo'laveradi. Qolaversa, ularni turli jihatdan o'rganish masalalari ham doimo tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shunday ekan, inson ruhiyatini ifodalovchi fransuzcha FBlarga xos ayrim xususiyatlar, xususan, hayvon va qushlarning tovushlarini ifodalovchi fe'llar, ya'ni *onomatopik fe'llar* asosida yasalgan fransuzcha FBlar tadqiqi va ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida mulohaza yuritish emotiv frazeologiyaning dolzarb masalalaridan biri bo'la oladi.

## 2-§. Onomatopik fe'llarning frazeologiyadagi emotiv

### ma'no ottenkalari.

Fransuz tilida turli xil hayvon va qushlarning tovushlariga taqlid qilish asosida yasalgan fe'llar juda xilma-xil bo'lib, ular FBlar yasash jarayonida sermahsul manbalardan biri hisoblanadi<sup>2</sup>. Masalan, fransuz frazeologiyasi nuqtayi nazaridan olib qaralganda *mushuk, qurbaqa, qarg'a, bo'ri* va *ot* kabi hayvonlarning o'ziga xos tovushlarini ifodalovchi fe'llar shular jumlasidandir:

- ***miauler*** (*le chat miaule — mushuk miyovlayapti*);
- ***coasser*** (*la grenouille coasse — qurbaqa vaqqillayapti*);
- ***croasser*** (*le corbeau croasse - qarg'a qag'illayapti*);
- ***hurler*** (*le loup hurle — bo'ri uvvillayapti*);
- ***hennir*** (*le cheval hennit — ot kishnayapti*) va hokazo.

Fransuz frazeologiyasida bu kabi hayvon va qushlarning ovozigacha taqlid qilish, ya'ni onomatopik fe'llar ishtirokida ko'plab quyidagicha maqol va frazeologik iboralarni uchratish mumkin:

- *Tous les chiens qui **aboient** ne mordent pas — Hurgan it qopmas;*
- *Les chiens **aboient**, la caravane passe — Karvon o'tar, it hurar;*
- ***aboyer** aux chasses de qn. — kimgadir tosh otmoq;*
- ***hurler** avec les loups — oqim bo'ylab harakat qilmoq (moslashmoq);*
- ***hurler** à gorge déployée — ovozining boricha baqirmoq;*

<sup>1</sup> Hugo V. Préface de Cromwelle. - Paris: Petits Classiques. Larousse, 2001. - P.13.

<sup>2</sup> Dictionnaire de français Larousse.-Paris: Petits Classiques. Larousse, 2010 . - P.717.

• *hurler à la mort* — qattiq g'azablanmoq va hk.

Yuqoridagi misollar kishilarning jismoniy xatti-harakatini tasvirlash orqali ularning ruhiy holatiga ishora qiladi, ya'ni, ushbu FBlarda *aboyer* va *hurler* fe'llari FBlarining markaziy elementi sifatida xizmat qiladi. Bu yerda paremiologik birlik tarkibida kelgan *aboyer* fe'li o'z ma'nosida, ya'ni *itning hurishi* ma'nosida qo'llanilgan, ammo uning umumiy frazeologik ma'nosi esa insonlarga nisbatan ishlatilib, ko'p *do'q-po'pisa* qilgan odamdan qo'rqmaslikka ishora qilinmoqda. Ya'ni, itning hurish harakatini ifodalovchi *aboyer* fe'li orqali insonlardagi *qo'pollik, baqiroqlik, darg'azablik* kabi salbiy xususiyatlar aks etmoqda. Onomatopik so'zlar ekstralingvistik xususiyatlarga tayangani bois uning tovushli tuzilishi ham tasodifiy emas albatta, negaki u tashqi dunyoning mos keladigan tovushidan hosil bo'ladi<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilgan keyingi misollardagi *hurler - uvillamoq* fe'li ishtirokidagi FBlar ko'chma ma'no kasb etgan holda *moslashmoq, baqirmoq* va *g'azablanmoq* ma'nolarida qo'llanilgan. Masalan, yuqorida tilga olingan FBlar tarkibidagi *aboyer - hurmoq* fe'li ko'p hollarda insonlarga xos asabiy ruhiy holatni ifodalashga xizmat qiladi. Qolaversa, itning hurish harakati zamirida ham *asabiy* yoki *darg'azab it* tasviri aks etadi. Quyidagi misollarga e'tibor qilaylik: *aboyer à la lune* — *bekordan-bekorga janjal ko'tarmoq, aboyer à faux* — *sababsiz g'azablanmoq*. Ushbu misollarning so'zma-so'z tarjimai va ifodalayotgan frazeologik ma'nolari o'rtasida ham ayrim o'xshash asoslar mavjud.

Fransuz tilida inson ruhiyatiga xos jarayonlarni ifodalashda nafaqat *aboyer* fe'li balki, *hurler* fe'li ham FBlar yasalishining muhim manbai sanaladi. Masalan: *hurler de terreur - dahshatdan qichqirmoq, hurler des injures - oshirib so'kmoq, hurler à gorge déployée - ovozining boricha baqirmoq, hurler à la mort* — *qattiq g'azablanmoq* va hokazo.

Ma'lumki, fransuz tilidagi *hurler* fe'li *bo'ri* va *shoqol* kabi hayvonlarga xos *uvillamoq* ma'nosini anglatadi. Biroq yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, u ma'lum bir FBlar tarkibida kelganda esa insonlarning asabiy ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ayrim hollarda esa mazkur onomatopik fe'l g'azabli ruhiy holatni emas, balki *itoatkorlik, bo'ysinuvchanlik, yakdillik, xayrixohlik* kabi

---

<sup>1</sup>Ёдгоров Ж. Онома топ ментал тафаккур самараси сифатида. / Истиқлол даври ўзбек тилшунослиги, адабиётшунослиги ва фолклоршунослигининг долзарб масалалари. Респ.илм.анжуман материаллари. – Б.202-211.

ma'nolarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, *hurler avec les loups* — oqim bo'ylab harakat qilmoq (moslashmoq).

Fransuz tilida hayvonlarga xos *hurler* onomatopik fe'lidan tashqari, *gueuler* fe'li ham mavjud bo'lib, u *sigir*, *ho'kiz* va *qo'y* singari hayvonlarning ma'rashiga nisbatan ishlatiladi. Biroq, ushbu onomatopik fe'l FBlar tarkibida cho'chqaga nisbatan qo'llanilganda o'ta salbiy ruhiy holat aks etadi. Ya'ni *gueuler comme un cochon* iborasida cho'chqaning yoqimsiz *xir-xir* qilishini ifodalashga xizmat qilayotgan *gueuler* fe'li insonlarning asabiylashgan holatini ifodalamoqda. Masalan, uning so'zma-so'z tarjimasi *cho'chqadek xirillamoq*, o'zbekcha talqini esa *cho'chqadek baqirmoq* ma'nosini anglatadi. Quyidagi badiiy asardan olingan misolga ham e'tibor qaratilsa, unda *gueuler comme un cochon* iborasi kishining o'ta yoqimsiz tarzda bor kuchi bilan baqirishini tasvirlagan: *Il gueule comme un cochon qu'on saigne*.<sup>1</sup> Nutqda fransuz tilidagi ushbu emotiv FB o'rniga uning sinonimi hisoblangan *crier comme un veau qu'on égorge* (so'zma-so'z tarjimasi: *Bo'g'izlanayotgan bo'zoqdek baqirmoq*) iborasini ham qo'llash mumkin. Biroq shu o'rinda inson ruhiy holatini aks ettiruvchi baqirish holati ham turli xil o'ziga xos maqsadli vaziyatlardan iborat ekanligini ta'kidlash lozim. Masalan, inson quyidagi hollarda baqirish ruhiy holatiga tushishi mumkin:

- g'azablanganda (jahli chiqqanda, norozilik kayfiyatida);
- qo'rqqanida (biror narsadan qattiq qo'rqqanda);
- azoblanganda (qattiq og'riqqa chiday olmasdan azoblanganda);
- hayajonlanganda (biror narsadan kuchli ta'sirlanib, hayajonlanganda).

Baqirish holatini ifodalovchi emotiv FB'larni qo'llash jarayonida ham ularning yuqoridagi kabi ma'no ottenkalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Fransuzcha *gueuler* fe'li uy hayvonlaridan tashqari, boshqa otlar bilan ham qo'llanilishi mumkin, masalan, *gueuler au charron* — haqqini talab qilmoq (so'zma-so'z tarjimasi: *aravaso'zga baqirmoq*) yoki *gueuler des chansons* — baralla qo'shiq kuylamoq. Ushbu onomatopik fe'l *kuchli og'riqdan baqirish* va *norozilik kayfiyatini namoyon qilishdagi g'azabli tarzda baqirish* kabi holatlarni ifodalashda ham yakka o'zi qo'llanilish xususiyatiga ega<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Frison G. Les Aventures du colonel Ronchonot. -Paris: Hachette, 1885. <http://www.philology.ru/linguistics>

<sup>2</sup> Dictionnaire de français Larousse.-Paris: Petits Classiques. Larousse, 2010 . -P. 495.

Uy hayvonlarining ma'rashini ifodalovchi fransuzcha onomatopik *gueuler* fe'lidan tashqari *beugler - ma'ramoq* fe'li ham mavjud bo'lib, u ko'proq eshaklarga nisbatan qo'llanilganda *hangramoq* ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *beugler comme un âne* iborasining so'zma-so'z tarjimasi: *eshakdek hangramoq* bo'lib, u frazeologik ma'noni ifodalaganda esa *birovga baqirmoq, o'dag'aylamoq, o'shqirmoq, birovni jerkimoq* ma'nosida talqin qilinadi. Yana shunday onomatopik fe'llar mavjudki, ular ham g'azablangan inson kayfiyatini tasvirlashda juda qo'l keladi. Ya'ni bular buqaning bo'kirishini ifodalovchi *mugir* va *sher, yo'lbars* kabi yirtqich hayvonlarning ovozini ifodalovchi *rugir* fe'llaridir. Masalan, *mugir de fureur*, ya'ni so'zma-so'z tarjimasi: *g'azabdan bo'kirmoq*; *rugir comme un lion* so'zma-so'z tarjimasi: *sherdek o'kirmoq* iboralari shular jumlasidandir. Insonlarga xos o'ta *darg'azablik* holati ushbu fransuzcha ikkala iboraning ham markaziy ma'no maydonini tashkil etadi. Biroq ayrim hollarda ushbu fe'llar nafaqat *g'azabdan baqirish*, balki *qattiq og'riqdan baqirish* holatini ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan, otning kishnashini ifodalovchi *hennir* fe'li ishtirokidagi *hennir de douleur* (so'zma-so'z tarjimasi: *og'riqdan kishnab yubormoq*) iborasi *kuchli og'riqdan dod-faryod solmoq* ma'nosida talqin qilinadi. Shuningdek, fransuz frazeologiyasida insonlarga xos ko'p gapirish holati ham yuqoridagi FBlar singari juda obrazli tarzda namoyon bo'ladi. Bunda qushlarga xos *siffler* va *jacasser* fe'llarini misol tariqasida keltirish mumkin. Masalan, *siffler comme un merle - olashaqshaqdek sayramoq* va *jacasser comme une pie* — *to'xtovsiz gapirmoq* ma'nosidagi FBlar orqali tinmasdan sayraydigan qushlar, ya'ni *olashaqshaq* hamda *zag'izg'on* kabilarning yoqimsiz tovushi inobatga olingan holda *vaysaqilik* xususiyati aks etadi.

Yuqorida tahlil qilingan g'azabni ifodalovchi FBlar o'z struktur xususiyatlariga ko'ra ma'lum bir o'xshashlik jihati bilan bir-birlariga juda yaqinligi ko'zga tashlanadi. U ham bo'lsa ularning obrazli o'xshatish hamda *comme* elementi orqali hosil bo'lishidir. Bunday FBlar esa fransuz frazeologiyasida juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: *gueuler comme un cochon*; *meugler comme un boeuf*; *jacasser comme une pie*; *brailler comme un damné de l'enfer*; *siffler comme un merle*; *rugir comme un lion* va boshqalar.

Ma'lumki, fransuz tilida *comme* grammatik elementi turli xil ma'nolarda kelishi bilan ajralib turadi. Jumladan, ravish, bog'lovchi,

qiyosni ifodalovchi predlog kabilar shular jumlasidandir. Onomatopik fe'llar ishtirokidagi FBlar tarkibida esa ushbu grammatik element faqat obrazli o'xshatish asosidagi qiyosni ifodalovchi predlog sifatida qo'llanilgan va unda *comme* elementi chap qurshovida ma'lum bir onomatopik fe'l, o'ng qurshovida esa hayvon yoki qush nomini ifodalovchi ot bilan birikkan holda ruhiy holat tasvirini aks ettiruvchi FB'larni hosil qilgan. Agar FBlar tarkibidagi onomatopik fe'l o'ziga tegishli hayvon nomi bilan birga qo'llanilsa undagi frazeologik ma'no ham, bo'yoqdorlik ham yanada kuchayadi. Binobarin, O.Frolova ham onomatopik so'zlar nutqda asosan, *gapirmoq, baqirmoq, kuylamoq* ma'nosidagi fe'lli shakllarda aks etishi orqali kishilar holati va harakati tasvirini kuchli ekspressiv tarzda ifodalay oladi, deb izohlaydi<sup>1</sup>. Keyinroq, tahlilimiz davomida fransuzcha onomatopik emotiv FB'larni aynan O.Frolovaning izohiga ko'ra *gapirmoq, baqirmoq, kuylamoq* ma'nosidagi shakllarining umumiy frazeologik manzarasini tasvirlashga harakat qilamiz.

Fransuz tilida *comme* elementidan tashqari *de, à, avec* kabi predloglar ham bunday FBlar hosil qilishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, ya'ni ular *aboyer à la lune; aboyer à faux; hurler de terreur; hurler des injures; hurler avec les loups* kabi iboralarda hayvon tovushlarini ifodalovchi fe'llarning asosiy birikuv vositasi sifatida xizmat qiladi. Ma'lumki, zamonaviy fransuz frazeologiyasi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan kanadalik tilshunos A.Polger ta'kidlaganidek, FBlar odatda tilning gapdagi ba'zi leksik va grammatik qoidalariga bo'ysunmaydigan birlik sanaladi<sup>2</sup>. Biroq onomatopik fe'llar ishtirokidagi FB'larning aksariyatida til elementlari o'rtasidagi bunday grammatik nomutanosiblik kuzatilmaydi.

Bu o'rinda tilshunos N.Mahmudov ta'kidlaganidek, kishilar ruhiy holatini obrazli tarzda ifodalovchi yuqoridagi o'xshatishlarda qiyoslash etaloni muhim ahamiyat kasb etadi va u har qanday til sohiblarining lisoniy xotirasida barqaror birlik sifatida saqlanib qoladi<sup>3</sup>. Yuqoridagi kabi FBlar so'zlashuv nutqida ham, badiiy nutqda ham birdek qo'llanilib, insonlarning turli xil kayfiyatini, ichki

---

<sup>1</sup> Фролова О.А. Онома topoэтические слова японского языка в функции экспрессивной характеристики человека и их системные связи. / Системные отношения на разных уровнях языка. - Новосибирск, 1988. - С. 65-70. <http://www.philology.ru/linguistics4/frolova-88.htm#>

<sup>2</sup> Polguère A. Lexicologie et sémantique lexicale. -Montréal: Les Presses de l'Université de Montréal, 2008. - P.164.

<sup>3</sup> Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент : Маънавият, 2013. - Б.10-11.

kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish orqali kitobxonda turli xil his-tuyg'ularni hosil qiladi. Ushbu emotiv FBlar semantik-stilistik vosita sifatida badiiy asarlarning keng stilistik imkoniyatini namoyon etuvchi birlik vazifasini bajaradi.

Ma'lum bir semantik guruhga kiruvchi emotiv FBlarining ham umumiy semantik xususiyatlari ularni boshqa guruhlardan farqlash uchun asos bo'la oladi. Masalan, ushbu holatni yuqorida keltirilgan salbiy his-tuyg'uni ifodalovchi emotiv FBlar guruhida ham ko'rish mumkin. Bunday vaziyatda salbiylik xususiyati ijobiylik xususiyatiga qiyoslanadigan ma'lum bir leksik-semantik guruhni ajratuvchi semantik belgiga aylanadi<sup>1</sup>. Fransuz tilida hayvon va qushlarning ovozi ifodalovchi fe'llar asosida yasalgan emotiv FBlarini bu jihatdan o'rganganimizda ularning ko'pchiligi salbiy ruhiy holatni ifodalovchi FBlar ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki FBlar tarkibidagi *aboyer, hurler, gueuler, rugir, mugir, hennir* kabi onomatopik fe'llar ifodalayotgan ma'nolar ko'lami ham inson ichki kechinmalaridan biri hisoblangan *g'azab* ruhiy tasviri doirasida namoyon bo'ladi.

Ijobiy va neytral ruhiy holatni ifodalovchi FBlar borasida ma'lum bir xulosaga kelish esa tilda o'ziga xos izlanishni taqozo etadi. Binobarin, onomatopik fe'llar ishtirokidagi FBlarining barchasi ham salbiy ruhiy holat tasvirini doimo birdek ifodalay olmaydi. Balki, aksincha, insonlarga xos ijobiy ruhiy kayfiyatni ham ifodalashi mumkin. Masalan, qushlarning sayrashini ifodalovchi *siffler* — *chug'urlamoq* onomatopik fe'li yoki *chanter* — *kuylamoq* fe'llari sayroqi qushlar hisoblangan *un pinson* yoki *une fauvette* kabi qush nomlari bilan birga qiyosiy shakllarda ishlatilganda *ko'p gapirmoq, bidirlamoq* kabi ma'nolardan tashqari, *xursandchilik* tasvirini ham ifodalashi mumkin, masalan, *siffler comme un pinson* — *xursand holatda gapirmoq*; va *chanter comme une fauvette* — *yoqimli ovozda kuylamoq* kabi FBlar. Biroq, *siffler* — *chug'urlamoq* onomatopik fe'li yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, insonga xos salbiy ruhiy holatni ham ifodalashda qo'llaniladi. Bu holat esa *siffler* fe'lining qanday qush turi bilan birga qo'llanilishiga bog'liqdir, ya'ni bu fe'l *un merle* — *olashaqshaq* (yoki *qorayaloq* deb ham tarjima qilinadi) qush nomi bilan birgalikda *comme* qiyoslash vositasi orqali FB hosil qilganda salbiy ruhiy holatni aks ettiradi. Xususan, ushbu FBda g'azabdan

---

<sup>1</sup> Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. -Тошкент: Фан, 2007. - Б.150.

o'zini to'xtata olmasdan asabiylashgan holatda vaysash jarayoni aks etadi. Binobarin, qadimdan *olashaqshaq*, *qorayaloq* va *qarg'a* kabi qushlar aksariyat hollarda ertak, afsona, matal va maqollarda ham *yomonlik timsoli* yoki *shum xabar jarchisi* sifatida tasvirlangan. *Bulbul*, *chug'urchuq* kabi sayroqi qushlar esa bog'i-bo'ston, chaman gulzorlar sohibi timsolida talqin qilingan. Demak, fransuzcha FBlar tarkibidagi qushlarning sayrashini ifodalovchi *siffler*, *jacasser* kabi onomatopik fe'llari ham o'zlarining qiyoslash obyektiga qarab salbiy va ijobiy ruhiy holat tasvirini aks ettirishi mumkin. Zero, tilshunos N.Mahmudov ta'kidlaganidek, xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatidagi bunday turg'unlashgan va etalonlashgan obrazlar milliy idrok hissini aks ettiradi<sup>1</sup>. Yuqoridagi tahliliy mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosaviy tasavvurni keltirish mumkin:

Emotsiya turi:	Onomatopik ifodasi:	FBlarda birga qo'llaniladigan zoonimlar:
<b>G'AZAB</b> (baqirmoq)	<i>Aboyer</i> - hurmoq;	-
	<i>brailer</i> - qichqirmoq;	-
	<i>hennir</i> - kishnamoq;	-
	<i>hurler</i> - uvillamoq;	-
	<i>mugir</i> - bo'kirmoq;	-
	<i>meugler</i> - ma'ramoq;	<i>un boeuf</i> - ho'kkiz
	<i>gueuler</i> - xirillamoq;	<i>uncochon</i> - cho'chqa
	<i>beugler</i> - hangramoq;	<i>un âne</i> - eshak
	<i>rugir</i> - o'kirmoq;	<i>un lion</i> - sher
<b>VAYSASH</b> (gapirmoq)	<i>gueuler</i> - xirillamoq;	-
	<i>hurler</i> - uvillamoq;	<i>le loup</i> - bo'ri
	<i>jacaser</i> - qichqirmoq;	<i>une pie</i> - zag'izg'on
	<i>siffler</i> - sayramoq;	<i>un pinson</i> - tovus
<b>QUVONCH</b> (kuylamoq)	<i>gueuler</i> - xirillamoq;	-
	<i>siffler</i> - sayramoq;	<i>merle</i> - olashaqshaq
	<i>shanter</i> - kuylamoq;	<i>fauvette</i> - kakku

<sup>1</sup> Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент : Маънавият, 2013. - Б.10.

Fransuz frazeologiyasida ruhiy holatni ifodalovchi FBlarning yasashida onomatopik fe'llar ham o'ziga xos etalon, ya'ni yetakchi fe'l vazifasida xizmat qilishi mumkin. Bunday FBlar inson ruhiy holatining *g'azablanish, jahllanish, baqirish, vaysash, zavqlanish* kabi shakllarini ifodalashda keng foydalaniladi. Xususan, insonlarning *qattiq g'azablanish* ruhiy holatini tasvirlashda *arslon, ho'kiz* kabi hayvonlarning o'kirish holatiga qiyoslansa, *jahl qilish* ruhiy holati esa, *bo'ri, eshak, it* singari hayvonlarning o'ziga xos tovush chiqarish jarayoniga qiyoslanadi. Shu tariqa insonlarga xos ruhiy olam tasvirining salbiy jihatlarini frazeologiyada onomatopik fe'llar orqali ifodalash imkoniyati kengayib boradi. Ushbu tadqiqotda keltirilgan barcha misollar maxsus fransuzcha frazeologik lug'atdan olingan bo'lib, ular fransuz milliy qadriyatlari va urf-odatlariga asoslangan va ulardagi ruhiy holat tasviri ham aksariyat hollarda milliylik tamoyillariga tayanilgandir<sup>1</sup>. Ular xususidagi qisqacha umumiy tavsifni misollar asosida quyidagicha aks ettirish mumkin:

<b>G'azab qilish:</b>	<b><i>rugir</i></b> - o'kirmoq (yo'lbars, arslon;) - <b><i>rugir</i></b> comme un lion ;
	<b><i>Meugler</i></b> -ma'ramoq (sigir, ho'kiz, bo'zoq, qo'y;) - <b><i>meugler</i></b> comme un boeuf;
<b>Jahl qilish:</b>	<b><i>hurler</i></b> - uvillamoq (bo'ri;) - <b><i>hurler</i></b> à gorge déployée; <b><i>hurler</i></b> à la mort; <b><i>hurler</i></b> de terreur; <b><i>hurler</i></b> des injures ;
	<b><i>beugler</i></b> - ma'ramoq (sigir, ho'kiz, qo'y, eshak;) - <b><i>beugler</i></b> comme un âne;
	<b><i>aboyer</i></b> - hurmoq (it;) - <b><i>aboyer</i></b> aux chausses de qn; Tous les chiens qui <b><i>aboient</i></b> ne mordent pas. Les chiens <b><i>aboient</i></b> , la caravane passe.
<b>Dahshatli qichqirish:</b>	<b><i>brailler</i></b> - qichqirmoq (tovus) - <b><i>brailler</i></b> comme un damné de lenfer;
	<b><i>crier</i></b> - baqirmoq ; - <b><i>crier</i></b> comme un veau;
	<b><i>gueuler</i></b> -baqirmoq ; <b><i>gueuler</i></b> comme un cochon;
<b>Vaysash:</b>	<b><i>jacasser</i></b> - sayramoq (zag'izg'on, olashaqshaq, qarg'a;) - <b><i>jacasser</i></b> comme une pie;
	<b><i>siffler</i></b> - sayramoq ; hushtak chalmoq; - <b><i>siffler</i></b> comme un merle;

<sup>1</sup> Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. - Paris: Les usuels de Robert, 1997. -P.14.



	<i>siffler</i> comme un pinson;
<b>Zavqla- nish:</b>	<i>chanter</i> - kuylamoq (bulbul va boshqa sayroqi qushlar;) - <i>chanter</i> comme une fauvette;
	<i>gueuler</i> - baqirmoq; - <i>gueuler</i> des chansons ;
<b>Azobla- nish:</b>	<i>hennir</i> - kishnamoq (ot;) - <i>hennir</i> de douleur;

Har bir mavzuli qator ushbu guruhga kiruvchi FBlar o'rtasida taqsimlanadigan umumiy ma'no doirasini qamrab oladi. Bu qator doirasidagi har bir so'z ma'nosi boshqasirikiga moslashadi. Ular semantik umumiylikka ega va ayni paytda bir-biridan farq qiladi<sup>1</sup>. Ushbu tasnifdan kelib chiqqan holda fransuz frazeologiyasida inson ruhiyati tasviri onomatopik fe'llar va ularga nisbatan qisman yoki to'liq mos keladigan hayvon nomlari faollashuvi bilan bog'liq, deyish mumkin. Bu kabi xususiyatlar tilning ichki tuzilishida namoyon bo'ladi va shuning uchun ham ularga xos ayrim lisoniy tasniflar ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Biroq bunday frazeologik birliklarni bir-biridan farqlovchi lisoniy belgilarni qidirish va ularni tizimlashtirish fransuz frazeologiyasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. -Тошкент: Фан, 2007. – Б.149.

## 4.1. INTERNATSIONAL FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

### 1-§. Internatsionallik - til va madaniyat o'rtasidagi aloqa natijasi sifatida

Maqol, matal va frazeologik iboralar tilning eng madaniy belgilarga boy bo'lgan va milliy-madaniy xususiyatlarni tilda yanada kuchaytirib ko'rsatishga xizmat qiladigan eng kichik matn turi bo'lib hisoblanadi. Bunday frazeologik birliklar o'zlarining milliy-madaniy xususiyatlari orqali ma'lum bir millat va xalqqa tegishli ekanligini ko'rsatishi bilan bir qatorda, xalqlar va tillar o'rtasidagi umumiylikni ham ifodalash xususiyatiga ega. Ularni internatsional maqol, matallar va frazeologizmlar deb atash mumkin. Tilda o'zining ekspressiv vositalari bilan ko'zga tashlanadigan bunday internatsional FBlar orqali xalqlarning umumiylikka ega bo'lgan madaniyati va urf-odatlarini yaxshiroq tushunish mumkin<sup>1</sup>. Mazkur bo'limda biz ham bunday internatsional FBlarni to'rt til, ya'ni fransuz, o'zbek, rus va ingliz tillari misolida qiyoslab tahlil qilishni maqsad qildik. Zero, har bir tilning o'ziga xos jihatlari uni ikkinchi til bilan qiyoslash natijasida yanada yaqqol namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Ma'lumki, hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi ko'plab tadqiqotlarda e'tiborga olinishiga qaramasdan, frazeologiya doirasida ham o'z yechimini to'laqonli darajada topmagan muammolar zanjiri hanuz mavjuddir. Shu o'rinda V.N.Teliya tomonidan qayd etilgan FB va madaniyat o'rtasidagi ikkiyoqlama aloqaga etibor qaratish lozim<sup>3</sup>, ya'ni ularni o'rganish davomida FBlarning tashqi shaklida aks etgan madaniyat tili hamda frazeologik ma'nolarning bunday FBlar tegishli bo'lgan til sohiblarining madaniy kompetensiyasiga ko'ra amalga oshadigan

<sup>1</sup> Сувонова Н. Интернационал фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлилига доир (француз тили материалида). / Хоржий filologiya №2 (87), 2023, -Б.29. / -Б. 29-36.

<sup>2</sup> Умарова З. Фраземаларнинг лингвомаданий тадқиқи (турли системадаги тиллар мисолида) / RESEARCH FOCUS, VOLUME 1. ISSUE 1 / 2022 ISSN: 2181-3833. -Б. 266 / - Б. 265-268. <https://cyberleninka.ru/article>

<sup>3</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М.: Языки русской культуры, 1996. - С.251. / - 284 с.

talqinini e'tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi. Har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning struktur va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir <sup>1</sup>. Shu tarzda har bir millat ongida yoki madaniyatida zoonim va somatizmlar o'ziga xos ramzlarga ega bo'lib, ular internatsional FBlar mazmunida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday frazeologizmlar tilda juda ko'pchilikni tashkil etgani bois ulardan faqat *zoonim* va *somatizmlar* ishtirokidagi FBlar xususida to'xtalmoqchimiz. Binobarin, bunday turga mansub FBlar o'zlarida internatsionallik xususiyatlarini keng tarzda aks ettira oladi. Ularni quyida qiyosiy aspektda to'rt til (fransuz, o'zbek, ingliz va rus tillari) misolida taqqoslab o'rganishga harakat qilamiz.

Bunday FBlarni aynan internatsionallik xususiyatiga ko'ra tasniflashga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Darhaqiqat, A.Nosirov fransuz tilidagi frazeologizmlarning o'ziga xosligini shakl va mazmun munosabati nuqtayi nazaridan quyidagi xosliklar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi<sup>2</sup>:

1) boshqa tilda turg'un birikma shaklidagi muqobili bo'lmagan frazeologizmlar mavjudligi;

2) bir xil ma'nodagi FBlar obrazlilik, strukturasi jihatidan mos kelishi, lekin leksik tarkibiga ko'ra farqlanishi;

3) fransuz tilidagi proverbial frazeologizmlar tarkibida «somatizm»lar, ya'ni inson tana a'zolariga doir leksik birliklarning mavjudligi.

Internatsional FBlarni ikki til misolida, ya'ni fransuz va rus tillari misolida qiyoslab o'rgangan fransuz tadqiqotchisi S.Ossekin ularni uch guruhga ajratadi<sup>3</sup>:

1. Bir xil komponentlar orqali aynan bir xil ma'noni ifodalovchi FBlar, ya'ni har tomonlama to'liq mos keluvchi internatsional FBlar (*Locutions phraséologiques coïncidentes complètement*). Ular maxsus qoliplashgan frazeologizmlar, deb ham ataladi. Masalan:

---

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: "Сангзор", 2006. –Б.65.

<sup>2</sup> Носиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмлар / Ўзбекистонда хорижий тиллар, № 2/2014. –Б. 22-31.

<https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/article-3755-6297.pdf>

<sup>3</sup> Ossekin S. Étudier les locutions phraséologiques - c'est passionnant! <http://www.expressio.fr/expressions>

fransuz tilida:	o'zbek tilida:	ingliz tilida:	rus tilida:
<i>être sale comme un cochon</i>	<i>cho'chqadek iflos bo'lmoq</i>	<i>dirty as a pig</i>	<i>грязный как свинья</i>
<i>être fort comme un bœuf</i>	<i>bo'qadek kuchli bo'lmoq</i>	<i>as strong as an ox</i>	<i>сильный как бык</i>
<i>être comme chien et chat</i>	<i>it-mushuk bo'lmoq</i>	<i>like cat and dog</i>	<i>быть как кошка с собакой</i>
<i>ouvrir la bouche</i>	<i>og'zi ochilib qolmoq</i>	<i>Open mouth</i>	<i>Открыть рот</i>

2. Ma'nosi bir xil, lekin ifodalovchi komponentlari turlicha bo'lgan internatsional FBlar, ya'ni qisman mos keluvchi internatsional FBlar (*Locutions phraséologiques coïncidentes partiellement*). Masalan:

fransuz tilida:	o'zbek tilida:	ingliz tilida:	rus tilida:
<i>un mouton à cinq pattes</i>	<i>Anqoning urug'i</i>	<i>rare bird</i>	<i>белая ворона</i>
<i>avoir des yeux de lynx</i>	<i>Burgut ko'z bo'lmoq</i>	<i>to be eagle eyed</i>	<i>глаз как у орла</i>

3. Ma'nosi bir xil, lekin asosiy ifodalovchi komponentlar birida mavjud bo'lsa, boshqasida mavjud bo'lmagan internatsional FBlar. (*Les locutions phraséologiques contenant le nom d'un animal et les locutions des autres langues ne le contiennent pas.*) Masalan:

fransuz tilida:	o'zbek tilida:	ingliz tilida:	rus tilida:
<i>Chercher des poux à qqn-dans la tête de qqn.</i>	<i>tirnoq ostidan kir qidirmoq</i>	<i>to try to make trouble for sb.</i>	<i>придураться к кому-л., из-за пустяков</i>
<i>Donner sa langue au chat</i>	<i>Shahar bermoq</i>	<i>to give up(in) the ghost</i>	<i>отказаться отвечать на что-л.</i>

## 2-§. Tillarda to'liq mos keladigan internatsional FBlar.

Yuqorida keltirilgan tasniflardan umumiy mulohaza chiqargan holda biz ham quyida fransuz tadqiqotchisi S.Ossekin tasnifining

birinchi va ikkinchi turi, ya'ni har tomonlama to'liq mos keluvchi hamda qisman mos keluvchi internatsional FBlar to'g'risida fikr yuritmoqchimiz. Shuningdek, A.Nosirov tasnifiga ko'ra leksik tarkibi faqat somatizm va zoonimlardan tashkil topgan internatsional FB'larga alohida e'tibor qartishni maqsad qildik.

Bir xil komponentlar orqali aynan bir xil ma'noni ifodalovchi FBlar, ya'ni har tomonlama to'liq mos keluvchi internatsional FB'larni uch xil mezon birligi asosida hosil bo'lgan FBlar, deb hisoblash mumkin. Ya'ni ularda ma'no, shakl va zoonim komponent birligi aks etadi. Masalan, fransuz tilidagi *A cheval donné, on ne regarde pas les dents* maqolini oladigan bo'lsak, o'zbek tilida ham *Tortiq qilingan otning tishini sanamaydi*, ingliz tilida ham *Never look a gift horse in the mouth*, rus tilida ham *хам Дарёному коню в зубы не смотрят* variantlari mavjud bo'lib, ularning internatsionallik xususiyati FB'larning ma'no, shakl va zoonim komponentlarning aynan o'xshashligi orqali namoyon bo'ladi, ya'ni:

- ma'no – to'rtala tilda ham *sovg'aga berilgan otning tishini sanamaslik* ma'nosi ifodalangan;
- shakl – shaxsi noma'lum tarzda ifodalangan aniqlovchili gap;
- zoonim komponentlar – *cheval / ot / horse / kon*, ya'ni to'rtala tilda ham *ot* zoonimi orqali ifodalangan.

To'rtala tildagi internatsional FBlar tahlil qilinganda ular orasida birinchi guruhga mansub quyidagi FB'larni keltirish mumkin. Ular bir xil mazmun, bir xil model va bir xil zoonimli internatsional FBlar sanaladi:

Fransuz tilida:	Ingliz tilida:	Rus tilida:	O'zbek tilida:
<i>Bouche serrée, mouche n'y entre</i>	<i>A closed mouth catches no flies</i>	<i>В рот закрытый глухо, не влетит муха</i>	<i>Yopiq og'izga pashsha kirmas</i>
<i>Chien qui aboie ne mord pas;</i>	<i>A barking dog never bites;</i>	<i>Не бойся собаки брехливой, бойся молчаливой;</i>	<i>Hurgan it qopmas.</i>
<i>répéter qch. comme un</i>	<i>To repeat as parrot</i>	<i>повторять как попугай</i>	<i>To'tidek takrorlamoq</i>

<i>perroquet</i>			
<i>Ouvrir la bouche</i>	<i>Open mouth</i>	<i>Открыть рот</i>	<i>Og'zi ochilib qolmoq</i>
<i>être comme chien et chat</i>	<i>Fight like cat and dog</i>	<i>быть как кошка с собакой</i>	<i>It-mushuk bo'lmoq</i>
<i>être doux comme un agneau</i>	<i>to be as gentle as a lamb</i>	<i>кроткий как ягнёнок</i>	<i>Qo'ydek yuvvosh bo'lmoq</i>
<i>être sale comme un cochon</i>	<i>To be dirty as a pig</i>	<i>грязный как свинья</i>	<i>Cho'chqa kabi iflos bo'lmoq</i>
<i>être fort comme un bœuf</i>	<i>To be as strong as a horse (an ox)</i>	<i>сильный как бык</i>	<i>Buqadek kuchli bo'lmoq</i>

Ularning internatsionalligi dastlab, mazmun birligida namoyon bo'lsa, undan so'ng bir xil model va bir xil zoonimli obraz orqali aks etishidir. Xususan, *ehtiyotkorlik* (har qanday gapni gapirmaslik), *qo'rqmaslik*, *maxmadonalik*, *angrayish*, *dushmanlik*, *yuvvoshlik*, *isqirtlik* va *kuchlilik* kabi ma'nolari to'rt tilda ham bir xil mezonlar asosida ifodalangan. Ushbu ma'nolarning tasviriy vositalari ma'lum bir zoonim yoki somatizm birligidan iborat bir xil struktur-semantik modellarni o'z ichiga oladi. Bunda :

- *qo'rqmaslik* – it va qo'rqmaslik;
- *mahmadonalik* - to'tiqush va takrorlash;
- *yuvvoshlik* – qo'y va yuvvoshlik;
- *isqirtlik* – cho'chqa va ifloslik;
- *dushmanlik* – it-mushuk bo'lish;
- *kuchlilik* - buqa va kuchlilik kabi zoonim obraz hamda harakat/holatlar orqali ifodalangan.

Shuningdek, somatizmlilik shakllar ham mavjud bo'lib, ular *angrayish* – *og'iz* va *ochish*, *ehtiyotkorlik* (har qanday gapni gapirmaslik) – *ochiq og'iz* va *pashsha* holatlari yordamida aks etgan.

Bunday obrazli internatsional FBlar asosan, zoonimlarning referensial xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yasalgan, ya'ni to'tiqushning tinimsiz bir narsani takrorlayverishi, qo'zichoqning yuvvoshligi, cho'chqaning iflosligi, bo'qaning kuchliliigi kabi har bir

hayvonning o'ziga xos xususiyatlari internatsional FBlar hosil bo'lishining asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Bundan tashqari, ushbu guruhga mansub internatsional FBlar faqat uch til, ya'ni fransuz, o'zbek va rus tillari doirasida bir xil tarzda mos kelishi va unda FBlarning inglizcha varianti esa qolgan tildagilari bilan qisman mosligi bilan ajralib turishi ham mumkin. Masalan:

Fransuz tilida:	O'zbek tilida:	Rus tilida:	Ingliz tilida:
<i>Avoir une dent contre qqn.</i>	<i>Birovga qarshi tish qayramoq</i>	<i>Иметь зуб на кого-л.</i>	<i>Have a grudge against smb.</i>
<i>Loin des yeux, loin du cœur.</i>	<i>Ko'zdan yiroq-qalbdan yiroq</i>	<i>С глаз долой, из сердца вон.</i>	<i>Out of sight, out of mind.</i>
<i>Autant de têtes, autant d'avis.</i>	<i>Har kallada har xayol.</i>	<i>Сколько голов, столько умов.</i>	<i>Too many cooks spoil the broth.</i>
<i>faire d'une mouche un éléphant.</i>	<i>Pashshadan fil yasamoq</i>	<i>Делать из мухи слона.</i>	<i>Make mountains out of mole hills</i>

Ko'rinib turibdiki, *tish*, *ko'z*, *qalb* (*yurak*) va *bosh* somatizmlari fransuz, o'zbek va rus tillarida bir xil mazmun va model asosida internatsionallashtirilgan. Faqat ingliz tilida *tish* - *g'araz*, *ko'z* - *nigoh*, *qalb* (*yurak*) - *ong* va *bosh* - umuman mos kelmaydigan *oshpaz* (*sho'rva*) obrazlari orqali bir xil mazmun, bir xil tushuncha ifodalangan. Lekin, ayrim hollarda somatizmlarning qo'llanilish modeli farq qilish hollari ham uchraydi. Masalan, o'zbek tilidagi *boshdan-oyoq* iborasi boshqa tillarda teskarisiga, ya'ni *oyoqdan boshga* (rus tilida: *с ног до головы*, ingliz tilida: *from foot to head*, fransuz tilida: *de pied en cap*,) tarzida beriladi. Shu o'rinda ushbu iboraning fransuzcha varianti tarkibidagi *cap* so'ziga alohida etibor qaratish lozim. Ushbu so'zga lug'atlarda shunday izoh berilgan:

CAP[kap] n.m. - XIII mot de l'ancien occitan "tête" latin *caput*

I.Tête.- chef. MOD.LOC. *De pied en cap*: des pieds à la tête. *Complètement. Armés de pied en cap.*

II.1. (1387) Pointe de terre qui s'avance dans la mer.-*bec, pointe, promontoire.*



2.LOC.FIG. *Franchir, passer, dépasser un cap, une certaine limite* (comportant l'idée de difficulté).

3.Direction d'un navire, d'un avion. *Mettre le cap sur*: se diriger vers<sup>1</sup>.

Bu soʻz hozirgi kunda eskirgan hisoblanib, hozirgi zamon fransuz tilida *bosh* maʼnosida qoʻllanilmaydi. Lekin qadim zamonlarda u *bosh* maʼnosida qoʻllanilgan va shu asosda *de pied en cap* iborasi paydo boʻlgan va bu ibora hozirgi kunda undagi tarkibiy komponentlarning eskirganligiga qaramasdan, oʻz maʼnosini saqlagan holda ishlatilib kelinadi.

Shuningdek, ikki til doirasida internatsionallashtgan FBlar ham mavjud boʻlib, ular ikki tilda ham bir xil semantik qolip asosida shakllangan iboralar sanaladi. Masalan, fransuz tilidagi *être dans la bouche de tout le monde* iborasi oʻzbek tilida *hammaning ogʻzida boʻlmoq* shaklida mavjud boʻlib, ular *ogʻiz - bouche* somatizmi orqali ikkala tilda ham har tomonlama aynan bir xillik kasb etadi. Xuddi shu iboraning inglizcha va ruscha variantlari esa bir-birlari bilan oʻzaro aynan oʻxshashlikda namoyon boʻladi, yaʼni *ogʻiz* somatizmi *lab* maʼnosidagi inglizcha *lips* va ruscha *уста* soʻzlari bilan bir xil somatizimli komponent orqali oʻxshash struktur modelga ega. Biroq ushbu iborani fransuz, oʻzbek va rus tilida bir xil modeli internatsional ibora deb ham atash mumkin. Chunki rus tilida *уста* soʻzi hozirgi kunda eskirgan soʻz hisoblanib, ikki xil maʼnoni ifodalagan, yaʼni *lab* va *ogʻiz* maʼnolari<sup>2</sup>: *быть у всех на устах = on everybody's lips = être dans la bouche de tout le monde = hammaning ogʻzida boʻlmoq*.

Xuddi shunday faqat ikki til doirasida internatsionallashtgan iboralardan fransuz tilidagi *avoir des fourmis dans les jambes* iborasini rus tilidagi shakliga eʼtibor qaratsak, *иметь мурашки в ноге* iborasi ham bir xil qoliplashgan hisoblanadi. Ushbu iboraning ingliz va oʻzbek tillaridagi shakllari esa ulardan struktur va komponentning xilma-xilligi bilan farqlanadi. Yaʼni, *to have pins (needles) in one's legs* va *oyoqlar uyushib qolmoq*. Bu erda toʻrtala tilda ham *oyoqlar* somatizmi saqlangan, biroq ikkinchi komponent hammasida turli xil leksemalar bilan ifodalangan: fransuz va rus tillarida: *oyoq – chumoli*, ingliz tilida: *oyoq – igna*, oʻzbek tilida *oyoq – uyushish*.

<sup>1</sup> Robert P. Le Petit Robert. –Paris, 2015. –P. 349. / -1220 p.

<sup>2</sup> Морфологические и синтаксические свойства ус-та / <https://ru.wiktionary.org/wiki/>



Ushbu guruhga tegishli yana shunday internatsional FBlar mavjudki, ular fransuz va ingliz tillarida bir xillik kasb etsa, rus va o'zbek tillarida yana alohida o'xshashlik kasb etadi. Masalan, fransuz tilidagi *Ventre affamé n'a point d'oreilles* va ingliz tilidagi *A hungry belly has no ears* maqollari hamda rus tilidagi *Голодное брюхо к учению глухо* hamda o'zbek tilidagi *och qoringa gap yuqmas* maqollarini keltirish mumkin. Ularning modellari esa *och qorin - quloqqa ega bo'lmaslik / och qorin - eshitmaslik*. Biroq ulardagi *quloqqa ega bo'lmaslik* va *eshitmaslik* tushunchalari bir xil ma'no kasb etgani bois to'rtala tilda ham bir qolipli va bir mazmunli internatsional maqollar bo'lib hisoblanadi.

Ushbu tillar doirasida faqat uch til o'xshashligini o'zbek tilidagi *bo'rini gapirsang qulog'i ko'rinadi* iborasida uchratish mumkin, ya'ni fransuz tilida: *quand on parle du loup, on en voit la queue* va rus tilida: *про волка речь, а волк на встреч*. Lekin uch tilda ham *bo'ri* zoonimi asosida hosil bo'lgan mazkur iboraning ikkinchi darajali komponenti turlicha ekanligi bilan farqlanadi: fransuz tilida *bo'ri - dum*, o'zbek tilida: *bo'ri-qo'loq*, rus tilida *bo'ri-bo'ri* tarzida hosil bo'lgan. Ushbu iboraning ingliz tilidagi varianti esa *speak of the devil and he appears* bo'lib, unda *bo'ri* zoonimi o'rniga *shayton - the devil* ishlatilgan. Shuning uchun ham uning inglizcha varianti o'zining ushbu differensialligi bilan to'rtala tilda ham to'liq mos modeli va to'liq mos komponentli internatsional FBlar turkumiga kirmaydi.

Ushbu turdagi iboralarni o'rganish orqali internatsional FBlar o'rtasida turli universallik va muqobillik xususiyatlari mavjudligini ko'rish mumkin. Bu esa turli xalqlarning madaniy hayoti o'rtasidagi o'xshashlikni ham ko'rsatadi. Chunki til va undagi har qanday frazeologik birlik xalq ma'naviy hayotining ko'zgusi bo'lib xizmat qila oladi.

### **3-§. Tillarda qisman mos keladigan internatsional FBlar.**

Quyida internatsional FB-larning tillararo (fransuz, ingliz, rus va o'zbek) qisman mos turlari to'g'risida fikr yuritamiz. Ularning internatsionallik xususiyati mazmun o'xshashligi, biroq shakl va zoonim yoki somatik komponentlarning qisman o'xshashligi orqali namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *anqoning urug'i* iborasi fransuz tilida - *un mouton à cinq pattes*, ingliz tilida - *rare bird* va rus tilida - *белая ворона* tarzida ifodalanadi. Ushbu iboraning ma'nosi

sira topilmaydigan yoki g'oyat kam uchraydigan narsa haqida bo'lib, *anqo* - oti bor, o'zi yo'q afsonaviy qush, go'yo Qof tog'ida qushlarning podshohi bo'lib yashaydigan qush timsolida tavsiflanadi<sup>1</sup>.

Ushbu ma'no boshqa tillarda ham mavjud bo'lib, ularning noyoblikni ifodalovchi vositalari boshqa zonimlar orqali ifodalanadi. Masalan, fransuz tilida: *un mouton à cinq pattes* – *besh panjali qo'y*, ingliz tilida: *rare bird* – *noyob qush* va rus tilida: *белая ворона* – *oq qarg'a* timsolida aks etadi. Bu esa har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, fransuzlar uchun *qo'y* zoonimi iboralar hosil qilishning asosiy manbalaridan biri sanalsa, rus hamda ingliz tillarida esa noodatilik xususiyati aynan mavjud bo'lmagan *oq qarg'a* timsolida berilgan. XIX-asrlarda paydo bo'lgan ushbu ibora dastlab badiiy asarlar matnida ko'zga tashlangan va shundan so'ng uni tez-tez ishlatish odat tusiga aylangan<sup>2</sup>. Mazkur internatsional iboraning boshqa tillar (fransuz, o'zbek, rus va ingliz tillari) frazeologiyasida qisman moslik xususiyati quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- ma'no o'xshashligi – to'rtala tilda ham *noodatiy noyoblik* ma'nosi ifodalangan;
- funksional turi – nominativ FB;
- zoonim komponentlar – tillarda turlicha : fransuz tilida – *qo'y*, o'zbek tilida – *afsonaviy qush*, rus tilida – *qarg'a*, ingliz tilida – *qush* zoonimlari orqali ifodalangan.

Ulardagi qisman moslik asosan zoonim komponentlarning turfa ko'rinishlari vositasida aks etgan. Xuddi shunday qisman o'xshash internatsional FBlarga tahlil qilinayotgan tillar bo'yicha quyidagi birliklarni keltirish mumkin:

Fransuz tilida:	Ingliz tilida:	Rus tilida:	O'zbek tilida:
<i>demeurer bouche close</i>	<i>hold one's tongue</i>	<i>держатъ язык за зубами</i>	<i>Tilini tiymoq</i>
<i>tomber sous la dent de qqn.</i>	<i>fall into smbd's hands</i>	<i>попасть кому-либо в лапы</i>	<i>Qo'lga tushmoq</i>

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.89. / -680 б.

<sup>2</sup> Значение и происхождение фразеологизма "белая ворона" / <https://na-dostupnom.ru/belaya-vorona/>

<i>avoir des yeux de lynx</i>	<i>to be eagle eyed</i>	<i>иметь глаз(а) как у орла</i>	<i>Burgut ko'z bo'lmoq</i>
<i>Les loups ne se mangent pas entre eux</i>	<i>There is honor among thieves</i>	<i>Ворон ворону глаз не выключает</i>	<i>Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.</i>

Bu kabi iboralardagi o'xshashlikni ta'minlovchi somatik komponentlar har tilda turlicha shakllarga almashinishi mumkin, masalan, fransuz tilida *og'iz* somatizmi boshqa tillarda *til* somatizmi bilan almashinishi yoki fransuz tilida *tish* somatizmi boshqa tillarda *qo'l / panja* somatizmlari bilan almashinishi mumkin. Bundan tashqari, bir iboraning o'zida ham zoonim, ham somatizm orqali ifodalangan shakllari ham mavjud bo'lib, masalan, ularda fransuz tilida *sirtlon* va *ko'z* ishlatilgan bo'lsa boshqa tillarda esa *burgut* va *ko'z* komponentlari orqali ifodalanishi mumkin: fransuz tilida - *avoir des yeux de lynx*, ingliz tilida - *to be eagle eyed*, rus tilida - *иметь глаз(а) как у орла*, o'zbek tilida - *Burgut ko'z bo'lmoq*.

Yuqorida keltirilgan *Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi* mazmunidagi maqolda esa o'zbek va rus tillari birdek o'xshash tarzda, ya'ni maqol mazmuni *qarg'a* timsolida tasvirlangan bo'lsa, fransuz tilida esa ushbu mazmun *bo'ri* timsolida ifodalangan, ingliz tilidagi variantida esa umuman o'zgacha timsol, ya'ni *o'g'ri* obrazi yordamida mazmun birligi saqlangan. Internatsional FBlar tarkibidagi somatik va zoonim komponentlarning turlicha bo'lishi albatta, har bir xalqning o'ziga xos milliy – madaniy xususiyatlari, joylashish o'rni va o'ziga xos urf-odatlar ta'sirida xilma-xillik kasb etadi.

Fikrimiz dalili sifatida yana shunday bir internatsional iborani keltirish mumkinki, bu fransuz tilidagi *un froid de canard*, rus tilidagi *собачий холод*, ingliz tilidagi *beastly cold* va o'zbek tilidagi *qora (izg'irin) sovuq* iborasidir. Fransuz va ruslarda havoning o'ta kuchli sovuq shakli sovuqqa chidamli bo'lgan hayvon (*it - sobaka*) va qush (*o'rdak - canard*) nomlari orqali ifodalanishiga asosiy sabab ularning geografik joylashuvi, iqlimi hamda hayvonot olami bo'lib, *it* va *o'rdak* boshqa hayvonlarga qaraganda o'ta sovuq havo haroratida ham o'z tanasida issiqlikni saqlab turuvchi, ya'ni sovuqqa chidamli hayvonlar sanaladi. Biroq, o'rdak panjasining muzlab qolishi yoki itlarning sovuqqotishi darajadagi ob-havo aynan o'ta izg'irinli sovuq havodan

dalolat beradi. Shu sababli ham *izg'irinli sovuq* ma'nosidagi FBlarda bu ikki xalq tilida ushbu zoonimlardan foydalanilgan. Ushbu ibora boshqa xalqlar tilida ham turlicha talqinga ega, masalan, nemis va shvedlarda *"cho'chqa kabi sovuq"*, gollandlarda *"ayiq kabi sovuq"* va amerikaliklarda esa o'ta obrazli qilib *"jodugarning siynasi kabi sovuq"* deyishadi. O'zbek va ingliz tillarida esa hech qanday zoonimli komponentlar yordamida emas, balki, oddiy kvalifikativ birliklar (*beastly* va *qora*) orqali ifodalangan. Bu esa albatta, har bir xalqqa xos milliy koloritni aks ettiradi.

Xulosa tariqasida shularni ta'kidlash mumkinki, turli xalqlar frazeologik fondiga mansub internatsional frazeologizmlar xalqlar o'rtasidagi umummadaniylikni, umumijtimoiy xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi til birliklari hisoblanib, ularga xos lingvomadaniy jihatlarni qiyosiy aspektda o'rganish natijasida internatsional FBlarning mazmuniy semantikasini yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Turli milliy-madaniy konnotatsiyalarni ifodalovchi FBlarni internatsionallik nuqtayi nazardan o'rganish bir tomondan, turli xalqlar frazeologiyasining tizimli munosabatini tadqiq etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, shu tilda so'zlashuvchi millat dunyoqarashining o'ziga xos milliylikni farqlash imkonini beradi. Ya'ni, ushbu til sohiblari ongini, fikrlash mezonlarini, dunyoqarash ko'lamini, turmush tarzi, milliy urf-odatlarini kabilarni FBlar orqali o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday milliy-madaniy mezonlar orqali internatsional FBlarning o'ziga xos ekspressivligini, ularning kishilar o'rtasida turli xil kommunikativ maqsadlarda foydalanish xususiyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Demak, internatsional FBlar o'zlarida xalqlar o'rtasidagi umumiy xususiyatlarni aks ettira olgani bois milliy-madaniy fenomen bo'lib hisoblanadi.

## **4.2. "OQ RANG"NING FRAZEOLOGIK TALQINI**

### **1-§. "Rang" tushunchasining umumiy talqini.**

Qadim zamonlardan buyon insonlar rang va ularning amaliy, nazariy, ma'naviy, hamda psixologik xususiyatlariga alohida qiziqib kelishgan. Xususan, antik davrlarda mashhur faylasuflar Empedokl, Demokrit, Aflotun va Aristotellar ranglar borasida ilmiy va amaliy qarashlarni ilgari surgan, ya'ni ular o'sha davr estetik normalaridan kelib chiqqan holda ranglarni tabiiy-ilmiy, diniy hamda mavhum

ramziy ma'nolari nuqtayi nazaridan tavsiflaganlar<sup>1</sup>. Hozirgi kunda ham ranglarni turli soha nuqtayi nazaridan o'rganish bilan bir qatorda, ular to'g'risidagi ilmiy g'oyani rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotchilar diqqat markazidan o'rin olmoqda. Xususan, ranglarning o'ziga xos turli-tuman rang-baranglik asosidagi ko'zni qamashtiradigan jilosi san'atshunoslik, falsafa, fizika, fiziologiya, psixologiya hamda tilshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan keng tadqiq qilib kelingan. Bunda san'atshunoslik fani rangni tasviriy san'at va dizaynerlik nuqtayi nazardan, falsafa fani real borliqdagi ranglarning inson ong va tafakkuriga bo'lgan ta'siri nuqtayi nazaridan, fizika fani ularni texnik nuqtayi nazardan tadqiq etsa, psixologiya fani esa, insonning sevimli rangi va uning ruhiy qarashlari, xarakteri hamda odob-axloqiga bo'lgan ta'siri kabi xususiyatlarni, tilshunoslik fani esa ranglar jilosini tilda qay yo'sinda aks ettirishdagi lisoniy vositalarni o'rganish masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratgan.

Bundan shuni anglash joizki, turli soha tadqiqotchilarining tadqiqot obyekti bir xil, ya'ni "rang" tushunchasi bo'lishidan qat'iy nazar, ularga xos rang-barang xususiyatlarning, jumladan, estetik, ma'naviy, falsafiy, texnik, psixologik, diniy, tasviriy, lisoniy kabi turli xil jihatlarining tadqiq etilishi ranglarni o'rganuvchi fanlarning xilma-xilligidan dalolat beradi. Masalan, "rang" tushunchasining asl sohibi hisoblangan rassom rang orqali butun borliq yoki xayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikni ko'rsatishi, shuningdek, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y-xayollarni aks ettirishi mumkin<sup>2</sup>. Rassomning ijod mahsuli hisoblangan bunday rangli tasvirdagi turfa buyoqlar insonlarning o'z xarakteridan kelib chiqqan holda kishilar ongiga qanday ta'sir qilishi psixologlar tomonidan o'rganilsa, undagi voqea-hodisalar qay tarzda tasvirlanganligi esa so'zlar orqali tilshunoslar tomonidan o'rganiladi.

Shunday ekan, ranglar jilosini nafaqat, san'atshunoslik sohasi doirasida, balki, tilshunoslikda va psixologiyada aks ettirish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, keyingi o'n

---

<sup>1</sup> Цвет в античной культуре. Древняя Греция и Древний Рим. <http://cvet-psy.ru/tsvet-v-antichnoj-kulture-drevnyaya-grets>

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси. –Б. 67.

Yil mobaynida filologiya sohasida rang va uning tildagi tasviri muammosiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ya'ni, tilshunoslikda ranglarning kommunikativ, kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari doimo tadqiqot markazida ekanligi ushbu sohaga nisbatan tadqiqotchilar qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tilshunoslik fani ham ranglar masalasiga boshqa fanlar singari alohida o'rganish obyekti sifatida yondashadi. Ranglarning psixologik turfa jihatlarini lisoniy hodisalar bilan o'zaro bog'lagan holda tadqiq etish ancha kengqamrovli sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Binobarin, R.M. Frumkina ta'kidlaganidek, "ranglar olami" – sof psixik hodisa hisoblanib, tabiatda mavjud yorug'lik to'lqinlari insonlar ko'zi orqali turli xil jilolanib, inson miyasiga ta'sir ko'rsata oladi<sup>1</sup>. Shunday ekan, rang va uning real borliqdagi serjilo tasvirini psixologik va lisoniy talqin qilish bilan bir qatorda ranglarning diniy talqini bilan birga o'rganish ham fanda rang borasidagi g'oya va qarashlar mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanida ham diniy ilmni chuqur o'rganish va undan to'g'ri oziqlanish xususida ko'plab teran tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Qur'oni Karim» va undagi g'oyalar tavsifini zamonaviy fanlar nuqtayi nazaridan so'z san'ati hamda inson ruhiyati masallari bilan o'zaro bog'liq tarzda ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlar ekanmiz, islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi<sup>2</sup>.

Mazkur bo'limda ranglar tasvirining fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik ma'no ottenkalari psixologiya fani hamda islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da keltirilgan ranglarga nisbatan tavsifi bilan hamohangligini tahlil qilishga, ya'ni, tilshunoslik, psixologiya va teologiya fanlarida ranglarning o'zaro mazmuniy aloqadorligini aniq misollar asosida qiyosiy tarzda o'rganishga harakat qilamiz.

---

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.6.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь

Ranglar madaniyati va uning boshqa fanlar, xususan, psixologiya, fiziologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi N.V.Serovning "Свет культуры. Психология, культурология, физиология." <sup>1</sup> nomli kitobida kengqamrovli tarzda aks etgan bo'lib, unda ranglarning madaniy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, psixologik, semantik va boshqa xususiyatlari borasidagi ma'lumotlar qomusiy majmua tarzida aks etgan. Biroq, ushbu masala aynan noqardosh tillar kesimida frazeologiya sohasida biroz e'tibordan chetda qolayotgandek.

Rang borasidagi mazkur mavzuni tadqiq etish maqsadida G'arb va Sharq olami madaniyati va tilini qiyosiy o'rganishdan kelib chiqqan holda bir-biriga nisbatan noqardosh tillar hisoblangan fransuz va o'zbek tilining "rang" tushunchasi doirasidagi lug'at boyligi hamda "rang" xususidagi psixologik va diniy qarashlar e'tiborga olinadi.

Ushbu bo'limda fransuz va o'zbek tilida rang tushunchasini tavsiflash uchun oq rang ishtirokidagi frazeologik birliklar tanlab olingan. Ushbu rangning o'ziga xos qonuniyatlarini turli tillar asosida o'rganish borliqni idrok etish mexanizmini to'g'ri tushunish, baholash hamda tafakkurning o'ziga xosligini anglash imkonini beradi.

Oq rangning psixologik tavsifiga e'tibor qilsak, u *poklik, aybsizlik, quvonch, sadoqat, tenglik, ochiqlik, ravonlik* va *osonlik* timsoli sifatida talqin qilinadi<sup>2</sup>. Shuningdek, oq rangning «Qur'oni Karim»dagi ma'nolariga to'xtaladigan bo'lsak, u asosan, *yorug'lik, quyosh nuri, tong, jannat ahlining yuzi, jannat ichimligining rangi* kabi ijobiy tushunchalarda o'z aksini topadi<sup>3</sup>. Ushbu rang hech qaysi manbada salbiy tavsifga ega emas. Biroq oq rang inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik iboralar tarkibida qo'llanilganda yuqorida keltirilgan tushunchalarga nisbatan batamom teskari ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, *qo'rquv, sarosima* va *g'azab* holatlari shular jumlasidandir<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Серов Н.В. Цвет культуры : психология, культурология, физиология. – Санкт -Петербург: Речь, 2003. - 672 с.

<sup>2</sup>Psixologik ranglarning ma'nosi/ <https://uz.tierient.com/>

<sup>3</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Қуръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. – Тошкент : «Шарқ» НМАК, 2011. – Б. 45-187.

<sup>4</sup> Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi. // Хорижий филология №4, 2020. – В. 129 -136 [Электрон ресурс: [http:// samxorfil.uz/](http://samxorfil.uz/) maqola / arxiv ]

## 2-§. Oq rangning fransuz tilidagi frazeologik ma'no ottenkalari.

Oq rangning tillardagi ma'nosi xususida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu rang fransuz tilidagi frazeologik iboralar tarkibida *blanc*, *blanche* sifati va *blanchir* fe'liga xos grammatik shakllar asosida juda keng tarzda qo'llaniladi va u fransuz frazeologiyasida qo'llanilish chastotasiga ko'ra ranglar ichida qora rangdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi<sup>1</sup>. Mazkur kichik ilmiy izlanish uchun esa 150ga yaqin fransuzcha frazeologik birliklar tahlil qilindi.

Tahlil qilish davomida oq rang fransuz frazeologiyasida turli xil ma'nolarda qo'llanilishi ko'zga tashlanadi. Masalan, uning frazeologik iboralar ichida eng dominant ma'nolaridan *bum-bo'sh*, ya'ni *to'ldirilmagan hujjat, yozilmagan varaq yoki yozuvda tashlab ketilgan bo'sh joy* kabi ma'nolari ko'plab o'rinlarda uchraydi:

Fransuzcha frazeologizmlar:	Talqini:
<i>chèque en blanc ;</i>	summasi yozilmagan chek;
<i>signer en blanc ;</i>	oq qog'ozga imzo qo'yimoq;
<i>billet blanc ;</i>	saylovdagi to'ldirilmagan byulleten;
<i>feuille en blanc ;</i>	bir tomoniga yozilgan qog'oz;
<i>à blanc ;</i>	interval;
<i>laisser un blanc ;</i>	yo'zuvda bo'sh joy qoldirmoq;
<i>bureaux en blanc ;</i>	bo'sh ofislar ;
<i>sortir avec le bâton blanc ;</i>	ikki qo'li bum-bo'sh chiqib ketmoq;

Oq rang ma'nosidagi *blanc* so'zining *bum-bo'sh* ma'nosi nafaqat qog'ozlardagi yozilmagan holat, balki, boshqa obyektlarning ham bo'shligini yoki suhbat jarayonidagi jim sukunat holatini ham ifodalaydi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

Fransuzcha frazeologizmlar:	O'zbekcha talqini:
<i>bureaux en blanc ;</i>	bo'sh (egasiz) ofislar ;
<i>avoir un blanc ;</i>	sukut saqlamoq;

<sup>1</sup> Гатауллина Л. Р. Роль цветообозначений в концептуализации мира: на материале фразеологизмов английского, немецкого, французского, русского и татарского языков. Автореф. диссер. кан. филол. Наук. – Уфа, 2005. –С.18.



<i>silence blanc ;</i>	sukunat;
<i>laisser une marge blanche</i>	jim sukut saqlamoq;
<i>blanche mémoire</i>	sust xotira (bum-bo'sh xotira);

Tilda oq rang ma'nosidagi leksik birlikning qo'llanishi va ular bilan bog'liq ekspressiv-emotsional xususiyatlarning aynan frazeologiya sohasida ham tadqiq etish inson ichki kechinmalari va ruhiyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, frazeologik iboralarda ranglarning qo'llanilishi ichki ruhiyatni tashqi ruhiyatda aks ettirish jarayonini ancha osonlashtiradi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, ruhiyat olamidagi ichki his-tuyg'uning rangin manzarasini «ko'ra olish»ga yordam beradi. Bu borada faylasuf Taftazoniy inson ichki his-tuyg'usi tashqi hissiyot asosida paydo bo'lishini qayd etadi<sup>1</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida inson ruhiyatini ifodalovchi frazeologik birliklarning o'ziga xos semantikasini, ularning nutqda qo'llanishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning paydo bo'lish xarakteri, davomiylik darajasi hamda nutqda qo'llanish darajasi va ma'no ottenkalarini tahlil qilish tilimizning ifoda imkoniyatlari va uning boyligini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi<sup>2</sup>.

Tilda insonlarning ichki ruhiy olamini rang leksemalari orqali ekspressiv-emotsional tarzda tasvirlash jarayonida ruhiyat va ranglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ularning metaforik va metonimik xususiyatlari doirasida amalga oshadi. Turli xil emotsional vaziyatlarda insonlar yuzining rangi qizarishi, oqarishi yoki ko'karishi mumkin. Bunday tashqi ruhiyat tasvirini ifodalashda fransuzcha *blanc*, ya'ni oq rang ma'nosidagi so'z o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu rang ishtirokidagi frazeologik iboralar *qo'rquv*ga doir ma'nolarni ifodalaydi. Masalan:

<b>Fransuzcha frazeologizmlar:</b>	<b>O'zbekcha talqini:</b>
<i>être blanc comme un linge ;</i>	dokadek oqarib ketmoq;
<i>être blanc comme un mort ;</i>	murdadek oqarib ketmoq;
<i>être blanc comme un mur ;</i>	devordek oqarib ketmoq;

<sup>1</sup> Тафтазоний, Саъдуддин Масъуд ибн Умар. e-tarix.uz>shaxslar/483-taftazoniy.html

<sup>2</sup> Сувонова Н., Долиева Л. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири. // Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2020, No 2 (31), 65-79 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215

<i>blanc comme un linceul;</i>	nihoyatda oqarib ketgan;
<i>blanc comme un cire;</i>	rangi murdadek oqarib ketgan;
<i>blanc comme un cachet d'aspirine;</i>	rangi dokadek oqargan;
<i>avoir les fois blancs;</i>	joni xalqumiga kelmoq;

Ushbu misollar qo'rquv emotsional holatining tashqi ruhiy tasvirini ifodalovchi iboralar hisoblansa, yana bir turkum iboralar mavjud bo'lib, ular ushbu holatning o'zini ifodalovchi nominativ frazeologizmlar sifatida xizmat qiladi. Masalan, *peur blanche*; - dahshatli qo'rquv; *voix blanche*; - qo'rquvdan chiqmagan ovoz; *soldat de fer blanc*; - qo'rqoq odam; kabilar shular jumlasidandir. Emotsional holatning qo'rquvdan tashqari azob chekish (*cracher blanc*); tushkunlikka tushmoq (*être blanc*); ko'r-kurona rashk (*jalousie blanche*); ruhini kutarmoq (*monter le blanc en neige*); *colère blanche* (qattaq g'azab) singari ma'nolari ham kam sonli bo'lsa-da, oq rang - *blanc* orqali ifodalanadi.

Quyida oq rang ma'nosidagi *blanc* leksemasining frazeologiyadagi yana boshqa salbiy va ijobiy ma'no ottenkalarini keltirib o'tamiz:

<b>"blanc" so'zining frazeologiyadagi ma'no ottenkalari</b>			
<b>Ijobiy ma'no:</b>		<b>Salbiy ma'no:</b>	
Yaxshilik va ezgulik:	<i>âme blanc;</i> <i>blanche main;</i> <i>magie blanche;</i>	Soxtalik:	<i>sourire blanc;</i> <i>mariage blanc;</i> <i>faire blanc de qch.;</i>
Aybsizlik:	<i>sortir blanc;</i>	Qadrsizlik:	<i>raide à blanc;</i>
Bilimdonlik:	<i>donner dans le blanc;</i>	Aldov:	<i>traiter des blancs;</i> <i>messe blanche;</i>
Imtiyoz:	<i>carte blanche;</i> <i>montrer patte blanche;</i>	Zo'ravonlik:	<i>bâton blanc;</i> <i>armes blanches;</i> <i>être tout à blanc armée;</i>
Baxt:	<i>voir tout en blanc;</i> <i>fils de la poule blanche;</i>	Mag'lubiyat, omadsizlik:	<i>arborer le drapeau blanc de son épée;</i> <i>choux blanc;</i> <i>faire du blanc;</i>
Maqtov:	<i>se faire blanc de son épée;</i>	Qat'iyatsizlik:	<i>aller du blanc au noir;</i>

Toza, yangi:	<i>eau blanche ; page blanche;</i>	Qoloqlik:	<i>n'avoir pas du sang blanc; ne connaitre ni le blanc, ni le noir ;</i>
Tantanali :	<i>marquer de blanc;</i>	Yomon illat:	<i>oie blanche; aigle blanc; avoir une ivresse blanche;</i>
A'lo, zo'r :	<i>boule blanche;</i>	Zarar:	<i>éléphant blanc;</i>
		Azob :	<i>cracher blanc ;</i>
		Uyqusizlik :	<i>nuit blanche;</i>

Tilshunos olim Sh. Safarov ta'kidlaganidek, tashqi dunyodagi turli voqea va predmetlar xususiy ko'rinishdagi belgi, xususiyatlarga ega. Lisoniy tafakkur faoliyatining kognitiv bosqichidan lisoniy voqelanish bosqichiga o'tishda qiyoslash, tahlil va sintez amallari muhim rol o'ynaydi. Shu amallar vositasida umumiylik va xususiylik farqlanadi<sup>1</sup>. Shunga binoan, agar oq rangning fransuz frazeologiyasidagi bu kabi semantik ma'no ottenkalari umumiy tarzda tahlil qilinsa, ularni ikki katta guruhga, ya'ni "HAYOT ZAVQI" va "HAYOT AZOBI" singari turkumlash mumkin. Masalan, hayotda kimgadir doimo yaxshilik qilish (*âme blanc ; blanche main ;*), ezgulik yo'lidan borish (*magie blanche ;*), o'zining aybsiz ekanligini isbotlash (*sortir blanc ;*), o'tkir zehn bilan o'z bilimini namoyon etish (*donner dans le blanc ;*), o'z ustun bo'lib turgan bir paytda biror imtiyoz yoki imkonga ega bo'lish (*carte blanche ; montrer patte blanche*), hayotda baxt nashidasi bilan yashash (*voir tout en blanc ; fils de la poule blanche ;*) boshqalar tomonidan o'zingga nisbatan maqtov eshitish (*se faire blanc de son épée;*), hayotning zavqli damlarini tantanali nishonlash (*marquer de blanc;*), samimiy qilingan harakat uchun a'lo, zo'r natijaga erishish (*boule blanche;*) kabi vaziyatlar haqiqatdan ham "HAYOT ZAVQI" tushunchasini ifodalaydi.

Ushbu ma'nolarning aksi hisoblangan, ya'ni o'zi bila turib, soxta ishlarni amalga oshirish (*sourire blanc ; mariage blanc; faire blanc de qch. ;*), hayotda qadrsizlanish (*raide à blanc;*), yashashdan maqsadsiz tarzda qoloq insonga aylanib qolish (*n'avoir pas du sang blanc; ne connaitre ni le blanc, ni le noir ;*), har bir harakat yoki so'zda qat'iyat yetishmasligi (*aller du blanc au noir ;*), hayot so'qmoqlarida mag'lubiyat yoki omadsizlikka duch kelish (*arborer le drapeau blanc*

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.229.

*de son épée; choux blanc; faire du blanc ;*), zo‘ravonlik qilish (*armes blanches; être tout à blanc armée; bâton blanc ;*), yomonlik yo‘lidagi aldovlar (*traiter des blancs ; messe blanche ;*), biror narsadan zarar ko‘rish (*éléphant blanc;*), hayot tashvishlaridan azob chekish (*cracher blanc ;*), turli xil illatlarni o‘ziga doimiy odat qilish (*oie blanche; aigle blanc; avoir une ivresse blanche;*), nosog‘lom turmush tarziga xos uyqusizlik (*nuit blanche;*) kabi vaziyatlar esa, bir so‘z bilan aytganda “HAYOT AZOBI” tushunchasini aks ettiradi. Ya’ni, fransuz frazeologiyasida oq rang (*blanc*) ma’nosi parallelizm asosidagi ikki xil qarama-qarshi tushunchani, ya’ni ijobiy ma’noda *hayot zavqi* va salbiy ma’noda *hayot azobi* tushunchalarini ifoda eta oladi.

Oq rang (*blanc*) ishtirokidagi fransuzcha frazeologik birliklar orasida ijobiy va salbiy tushunchalardan tashqari, oraliq, ya’ni neytral ma’nodagi tushunchalar ham mavjud. Masalan, “bum-bo‘sh” tushunchasi (bu xususda yuqorida batafil to‘xtalib o‘tildi), bir qarorga kela olmasdan ikkilanish (*dire blanc et noir ;*), juda yosh bo‘lish (*blanc bec;*), biror narsani tag-tomiri bilan tozalash (*couper un arbre à blanc estoc; comme une tornade blanche; coupe blanche ;*), har bir ishda ehtiyotkorona harakat qilish (*mettre des gants blancs;*), biror narsani sinab ko‘rish (*examen blanc; faire passer une col blanche;*) kabilar shular jumlasidandir.

Fransuzcha maqollar mazmunida ham oq rang (*blanc*) o‘ziga yarasha ma’no kasb etadi. Masalan :

Ijobiy :	yaxshilik	<i>Bave du crapaud n’atteint pas la blanche colombe.</i>
Salbiy:	ahmoqlik	<i>La muraille blanche est le papier des sots.</i>
Neytral:	tashqi mohiyat	<i>Noire geline pond blanc œuf. Les mains noires font manger le pain blanc.</i>

Oq rang fransuz tilida yuqoridagi kabi ijobiy, salbiy va neytral tushunchalardan tashqari, borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni metaforik va metonimik tarzda nomlash xususiyatiga ham ega. Masalan:

- oq libos yoki ichki kiyim (*vêtu de lin blanc ; magasin de blanc ;*)
- kasallik turlari (*mal blanc ; canne blanche; nègre blanc; n’y voir que du blanc ;*)

-kasb nomlari (*les hommes en blanc ; cornette blanche ; cul blanc ; col blanc ;*)

-tabiat hodisalarining nomlari (*marée blanche; gelée blanche;*)

-obyektlarning oqligiga ishora qilingan oq rang ma'nosi (*cheveux blancs ; loup blanc ; sable blanc ; fromage blanc ; fée blanche ; un blanc lime ;*)

-qiyoslangan va kuchaytirilgan oppoq rang tushunchasi (*blanc comme albâtre; blanc comme plâtre; blanc comme neige ; blanc comme un cygne*) kabilar oq rangning nominativ xususiyatlarini namoyon etishga yordam beradi. Quyida mazkur mavzuni fransuz tiliga noqardosh bo'lgan til, ya'ni o'zbek tili misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

### 3-§. Oq rangning o'zbek tilidagi frazeologik ma'no ottenkalari.

Oq rang ma'nosini ifodalovchi sifat o'zbek tilida "oq" tarzida, harakat ma'nosida esa "oqarmoq" fe'li ko'rinishida ifodalanadi. O'zbek xalqi oq rangga yaxshilik timsoli sifatida qaraydi. Shu asosda mazkur leksema yordamida, asosan, ijobiy ma'noli frazeologizmlar shakllangan<sup>1</sup>. Biroq, boshqa tillaragi kabi o'zbek tilida ham oq rangning ham ijobiy hamda ham salbiy ma'no ottenkalari mavjuddir:

O'zbek tilidagi "oq" so'zining frazeologiyadagi ma'no ottenkalari			
Ijobiy ma'no:		Salbiy ma'no:	
Mehr-oqibat:	<i>oq ko'ngil; oq yuvib oq taramoq; ko'zining oqi qorasi; oq yo'l; Oq ko'ngillining yuzi ko'rkam;</i>	G' azab :	<i>ko'zi ola-bo'la bo'lmoq; og'ziga oq it kirib, qora it chiqmoq; ko'zlarining oqini o'ynatmoq; ko'ziga oq-qora ko'rinmaslik; oq kaltak-qora kaltak bo'lmoq;</i>
Baraka-mollik:	<i>oq-qorani tanimoq; oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq;</i>	Xasis-lik:	<i>Oq uyim – qoq uyim, tevarak chetiga boq uyim; Oppoq bo'lgan oq uyim, osh-noni yo'q qoq uyim;</i>

<sup>1</sup> Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. –Тошкент: Наврўз, 2019. –Б.156.



Rozilik:	<i>oq fotiha; ona sutini oqlamoq; tuzini oqlamoq;</i>	Noro-zilik:	<i>oqpadar ; oq qilingan farzand; oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq;</i>
Aybsizlik:	<i>sudda oqlanmoq; yuzi oqarmoq; oqlovchi;</i>	Baraka-sizlik:	<i>Kosasi oqarmaslik;</i>
Rizq :	<i>og'zi oqqa tegmoq; oqlik bor uyga og'riq dorimas;</i>	Fosh bo'lish:	<i>Oq tovuq somon sochar, o'z ketini o'zi ochar;</i>
Sog'lik:	<i>Oqi – oq, qizili – qizil;</i>	Lagan-bardorlik:	<i>“oq” desa-oq, “ko'k” desa – ko'k;</i>
Baxt:	<i>manglayi oq bo'lmoq;</i>	Beva-folik:	<i>Oq boshdan o'tin bo'lmas, uynashdan – xotin;</i>
Hurmat:	<i>soqolining oqini hurmat qilmoq;</i>		

Agar oq rangning o'zbek frazeologiyasidagi bu kabi semantik ma'no ottenkalari umumiy tarzda tahlil qilinsa, ularni ikki katta guruhga, ya'ni “FAZILATLI SHAXS” va “ILLATLI SHAXS” sifatida turkumlash mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi “oq” so'zining frazeologiyadagi ma'no ottenkalaridan insonlar bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi (*oq ko'ngil; oq yuvib oq taramoq;*), hayotning barcha past-balandliklarini anglab yetadigan barkamol shaxs tarzida ulg'ayishi (*oq-qorani tanimoq;*), ota-onaga bo'lgan hurmat yuzasidan hayot mazmuni sifatida ota-onani rozi qilish (*oq fotiha; ona sutini oqlamoq;*), hayotning qing'ir ishlaridan hazar qiluvchi sofdil inson (*sudda oqlanmoq; yuzi oqarmoq;*), hayotda rizq-nasibali bo'lish (*og'zi oqqa tegmoq; oqlik bor uyga og'riq dorimas;*), o'z tanasiga biror dard – kasal yuqtirmasdan sog'lom yurish (*oqi – oq, qizili – qizil;*), baxtli inson bo'lish, ya'ni Allohdan baxt berilishi (*manglayi oq bo'lmoq;*), o'zidan kattalarni hurmat qilish (*soqolining oqini hurmat qilmoq;*) kabi ma'no tushunchalari tasavvurimizda “FAZILATLI SHAXS” obrazi gavdalanishiga yordam beradi.

Ushbu obrazning qarama-qarshi aksi esa, o'zini aql bilan

boshqara olmaydigan g'azab talvasasiga tushib qolish (*ko'ziga oq-qora ko'rinmaslik; oq kaltak-qora kaltak bo'lmoq;*), ota-onasini norozi qilish (*oqpadar ; oq qilingan farzand;*), o'z ishi bitguncha laganbardorlik qilish ("*oq*" *desa-oq, "ko'k" desa – ko'k;*), birovga biror narsa berishni istamasdan xasislik qilish (*Oppoq bo'lgan oq uyim, oshnoni yo'q qoq uyim;*), o'zini-o'zi kirdikorlarini ochib, fosh qilishi (*Oq tovuq somon sochar, o'z ketini o'zi ochar;*), hayotda shuncha mehnat qilib, ko'p pul topsa ham oila va ro'zg'orda Alloh barakasining yo'qligi (*kosasi oqarmaslik*) kabi insonlarga xos salbiy xususiyatlar tasavvurimizda "ILLATLI SHAXS" obrazining gavdalanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek tilida ham neytral tushunchalarni ifodalovchi frazeologizmlar mavjud bo'lib, ular qatoriga "sir saqlash"ni ifodalovchi (*Oq tuya ko'rdingmi yo'q, ko'k tuya ko'rdingmi yo'q; tishining oqini ko'rsatmaslik*), "kishining asl kimligi"ni ko'rsatuvchi (*Oq badan, qora badan suvga tushganda ma'lum; Oq uyda bo'lgan kishi olachiqda ham bo'ladi; Oq it qora it baribir it; Oq qo'y ham o'z oyog'idan osiladi, qora qo'y ham;*), "qora kunga oz-ozdan mablag' to'plash" ma'nosidagi (*Oq tanga – qora kunga;*), "har bir kishi o'z tengi bilan do'st tutinishi" lozimligi (*Oq ishtonning balog'i qora ishtonga yarashmas;*), "kishilar o'rtasidagi ijtimoiy farq" ma'nosidagi (*oq tanli; oqsuyak;*), ayollarda ko'p uchraydigan tannozlik yoki nafislik xususiyati (*oq badan; oq yuzli; oq bilak;*), keksayish jarayoni (*sochi oqarmoq; sochiga oq oralamoq;*), tabiiy jarayon sifatida tongning yorishib otishi (*g'ira-shira oqarmoq;*), yangi, toza va pokiza (*oqqa ko'chirmoq; oqsuv;*) kabi ma'nolarni ifodalovchi iboralarni kiritish mumkin.

Oq rang o'zbek tilida ham ijobiy, salbiy va neytral tushunchalardan tashqari, borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni metaforik va metonimik tarzda nomlash xususiyatiga ham egadir. Bunda frazeologik birliklarning yasalishi narsa yoki voqea-hodisalarning oq rangli xususiyatiga asoslangan holda amalga oshadi. Masalan, qor yoqqanda ishlatiladigan *yerlar oqarmoq;* paxta tolasi uchun qo'llaniladigan *oq oltin;* tog'da o'sadigan o'simlik nomi *oqparchoy; oqquyruq;* kishilarning yuz va soch rangidan kelib chiqqan *oq-sariq; oq soch;* kabi iboralar shular jumlasidandir.

Ikkala til misolida olib borilgan mazkur tahlil oq rangining quyidagicha lingvo-kognitiv xususiyatlarini taqqoslash imkonini beradi. Quyidagi jadvalga e'tibor qilaylik:

<b>Fransuz va o'zbek tilidagi "blanc" - "oq" leksemasining frazeologiyadagi ma'no ottenkalari</b>			
<i>Fransuz tilida :</i>		<i>O'zbek tilida:</i>	
<b>Ijobiy ma'no:</b>	<b>Salbiy ma'no:</b>	<b>Ijobiy ma'no:</b>	<b>Salbiy ma'no:</b>
Ezgulik	Qo'rquv	Mehr-oqibat	G'azab
Yaxshilik	Ahmoqlik	Hurmat	Norozilik
Aybsizlik	Aldov	Aybsizlik	Laganbardorlik
Bilimdonlik	Qadrsizlik	Barkamollik	Xasislik
Imtiyoz	Soxtalik	Rozilik	Bevafolik
Baxt	Zo'rvonlik	Baxt	Kasallik
Maqtov	Mag'lubiyat	Sog'lik	Motam
Toza, yangi	Qat'iyatsizlik	Rizq-nasiba	Fosh bo'lish
Tantanali	Qoloqlik		Barakasizlik
A'lo, zo'r	Yomon illat		
	Zarar		
	Azob		
	Uyqusizlik		
<b>"HAYOT ZAVQI"</b>	<b>"HAYOT AZOBI"</b>	<b>"FAZILATLI SHAXS"</b>	<b>"ILLATLI SHAXS"</b>

Fransuz tilida oq rang hayotdagi kengqamrovli ijobiy va salbiy vaziyatlar ifodasi uchun qo'llanilsa, o'zbek tilida esa asosan, shaxs fazilati va illatiga xos tor doiradagi vaziyatlar ifodasi uchun ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, fransuz tilidagi "blanc" so'zi yordamida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning semantik ma'no maydoni umumiy obyektida (hayotning turli jabhasida) faollashsa, o'zbek tilidagi "oq" so'zi yordamida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning semantik ma'no maydoni esa xususiy obyektida (faqat shaxs faoliyati doirasida) faollashadi.

Fransuz va o'zbek tilidagi "blanc" - "oq" so'zining frazeologiyadagi neytral ma'no ottenkalari qiyosiy tahlil qilinganda esa qo'yidagicha holat namoyon bo'ladi:



<b>Fransuz tilida :</b>	<b>O'zbek tilida:</b>
Bum-bo'shlik	Tenglik
Sukunat	Sir saqlash
Ikkilanish	Ertani uylash
Tajribasizlik	Poklik
Tozalash	Ijtimoiy farq
Ehtiyotkorlik	Tannozlik / nafislik
Sinov	Keksalik
Mohiyat	Mohiyat
	Yangi
	Yorug'lik

Fransuz tilida oq rang ishtirokidagi neytrallik tushunchasi asosidagi frazeologizmlar asosan, “*mavjudsizlik*”, ya’ni “*yo‘qlik*” ma’nosini ifodalaydi. Binobarin, yuqorida keltirilganidek, “bum-bo’sh”, bir qarorga kela olmasdan “ikkilanish”, jim-jitlikdagi “sukunat”, “tajribaning yo‘qligi”, biror narsani tag-tomiri bilan “tozalab yo‘qotish” kabi tushunchalarning tub mohiyatida “*mavjudsizlik*” tushunchasi aks etgan. O‘zbek tilida esa, ma’lum bir obyekt, ya’ni shaxsga qaratilgan turli xususiyat, holat va vaziyatlar o‘z ifodasini topgan. Xususan, insonlar o‘rtasidagi “tenglik”, “sir saqlash”, “ertani uylash”, “poklik”, “ijtimoiy farq”, “tannozlik”, “nafislik” va “keksalik” kabi tushunchalar umumiy ma’noda “*ijtimoiylik*” tushunchasini ifodalay oladi.

Oq rang turli xil xalq madaniyatida turlicha talqin qilinadi. Masalan, Amerikada “*tozalik*”, Fransiyada “*neytrallik*”, Misrda “*shodlik*”, Hindistonda “*motam*”, Xitoyda esa “*motam / tozalik*” ma’nosini anglatadi, deydi A.Xrolenko<sup>1</sup>. Ushbu ro‘yxatni mantiqan davom ettirgan holda yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, oq rang o‘zbek xalqida asosan, “*yaxshilik*” tushunchasini ifodalaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Fransuz xalqida esa oq rang “*neytrallik*”ni ifodalashi yuqorida tahlil qilinganidek, aksariyat fransuzcha frazeologik iboralardagi qog‘oz va hujjatlarga nisbatan “*bum-bo’sh*” ma’nosida keng tarzda ishlatilishi, shuningdek, ham ijobiy va ham salbiy tushunchalarni ifodalashi ushbu fikrni yanada mustahkamlaydi. Turli millat egalarining oq rangga nisbatan bunday

<sup>1</sup> Хроленко А. Т. Основы лингвокультурологии. [Электрон ресурс] : учеб. пособие – Электрон. дан. – Москва : ФЛИНТА, 2016. – С.18. – URL: <https://e.lanbook.com/book/>

qarashlari mazkur xalqlarning o'z qadriyatlari asosidagi milliy qarashlari zahirida paydo bo'lgan. Xususan, olim Sh.Safarovning ta'kidlashicha, inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat va milliy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar va tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir<sup>1</sup>.

Oq rangning til (fransuz va o'zbek tili), psixologiya va diniy qarashlardagi ma'no ottenkalari o'zaro taqqoslanganda tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu rangning ifodalayotgan ma'no turlari tilda ko'plab xilma-xil xususiy ma'nolardan iborat bo'lib, ular psixologik va diniy nuqtayi nazardan ancha umumiydashgan tarzda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, oq rang orqali ifodalangan insonlarga xos xususiy fazilatlar faqat ijobiy xislatlar nuqtayi nazaridan olib qaralganda psixologiyada ma'lum darajada umumlashadi va «Qur'oni Karim»da esa ancha yaxlit ma'noni ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi insonlarga xos *mehr-oqibat, hurmat, barkamollik, rozi-rizolik, aybsizlik, baxt, sog'lik, va rizq-nasiba* kabi ma'nolar hamda fransuz tilidagi *ezgulik, yaxshilik, aybsizlik, bilimdonlik, baxt, maqtov* va *imtiyoz* tushunchalari psixologiyada umumlashgan holda *qalb pokligi, yaxshilik* va *ezgulik* ma'nosi ostida jam bo'lsa, «Qur'oni Karim»da esa bularning barchasi *yuz yorug'ligi (jannat ahlining yuzi)* ma'nosi ostida yaxlitlangan. Ya'ni oq rangning "shaxs" va "real borliq" o'rtasidagi izchil ifodasi diniy, psixologik va tilga xos xarakterlarda ketma-ket tarzda faollashgan deyish mumkin. Ushbu holatni quyidagi jadval orqali shunday tasvirlash mumkin :

<b>«Qur'oni Karim»da:</b>	<b>Psixologiyada:</b>	<b>Fransuz tilida:</b>	<b>O'zbek tilida:</b>
<i>-yuz yorug'ligi (jannat ahlining yuzi)</i>	<i>-qalb pokligi -quvonch -aybsizlik -sadoqat -tenglik -osonlik</i>	<i>-ezgulik -yaxshilik -bilimdonlik -aybsizlik -baxt -maqtov -a'lo, zo'r -toza, yangi</i>	<i>-mehr-oqibat -hurmat -barkamollik -rozi-rizolik -aybsizlik -baxt -sog'lik -rizq-nasiba</i>

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.54.

		-tantanali -imtiyoz	
--	--	------------------------	--

Yuqorida keltirilgan ushbu tahlil oq rangning ijobiy xususiyatlariga asoslangan. Biroq uning salbiy xususiyatlariga kelsak, bu xususda uchlik mezon, ya'ni til, psixologiya va ilohiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilishning iloji yo'q. Negaki, oq rangning salbiy ma'nolari ilohiyot va psixologiyada mavjud emas. Binobarin, oq rangning salbiy ma'nolari faqat tildagina mavjuddir. Neytral ma'nolar xususida to'xtalsak, oq rangning uchlik mezon doirasidagi talqini ancha xilma-xil bo'lib, ularni ma'lum bir ma'nolar turkumida umumlashtirish esa mumkin emas.

Shuni qayd etish lozimki, oq rang ifodalayotgan ma'nolar ko'lami faqat, hayotning turli xil vaziyatlarida va shaxslarning turli xarakter shakllarida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, oq rang asosan "ijtimoiy hayot" va "shaxs" kategoriyalarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tabiatda mavjud turfa ranglar va ularning har birini tilshunoslik, psixologiya, teologiya va boshqa fanlar bilan yuqoridagi singari qiyosiy tarzda o'rganish orqali tilshunoslik fanida "ranglar olami" hamda "ranglar tili"ni keng tadqiq etish imkoni yanada kengayadi.

### **4.3. FRAZELOGIYADA RO'ZG'OR BUYUMLARI LEKSIKASINING AYRIM REFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

#### **1-§. FBlarda ro'zg'or buyumlari leksikasining ifodalanishi.**

Fransuz frazeologiyasining leksik qatlami o'ziga yarasha xilma-xil bo'lib, ular orasida uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi ham ko'plab frazeologik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, uy-ro'zg'or buyumlaridan ayniqsa, oshxona buyumlari, ya'ni idish-tovoqlar (*le couteau - pichoq, la fourchette - sanchqi, la cueillère - qoshiq, l'assiette - likopcha, le plat - tovoq, le chaudron - qozon* va hk.) va uy jihozlari nomlari (*le lit - to'shak, le balai - supurgi, le drap - choyshab, la chaise - o'rindiqlik, la table - stol* va hk.) fransuz frazeologiyasining ancha faol leksik qatlamlaridan bo'lib hisoblanadi. Bunday komponentli frazeologik birliklarni, ya'ni turg'un birikma, maqol va matallarni har

qanday xalq tilida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, **fransuz tilida:**

- *assiette (likopcha)* so'zi bilan - *Perdre son assiette* - Muvozanatni yo'qotmoq;
- *couteau (pichoq)* so'zi bilan - *Tel couteau, tel fourreau* - Pichog'iga yarasha g'ilofi;
- *fourchette (sanchqi)* so'zi bilan - *Marquise da la fourchette* - Xizmatkor ayol;
- *balai (supurgi)* so'zi bilan - *Hasard sur les balais* - Noyob topilma; Anqoning urug'i;

### **o'zbek tilida:**

- *supurgi* so'zi bilan - *Yumshoq supurgi; qo'li kosov, sochi supurgi;*
- *pichoq* so'zi bilan - *Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovg.*
- *qozon* so'zi bilan - *Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar.*
- *qoshiq* so'zi bilan - *Quruq qoshiq og'iz yirtar.*
- *elak* so'zi bilan - *El og'ziga elak tutib bo'lmas. Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor va hokazo.*

Xuddi shunday frazeologik birliklar (*keyinchalik FBlar*) orasida ro'zg'or buyumlaridan oshxona asbobi hisoblangan *le couteau – pichoq* leksemasi frazeologiyada turli xil ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan, *qo'rqitish, qadr-qimmat, ikkiyuzlamachilik, zo'ravonlik, kelishmaslik, azoblash, ishonch, ahmoqlik* kabi ma'nolar shular jumlasidandir. Ushbu ma'nolarni ifodalovchi fransuzcha FBlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- *qo'rqitish: Avoir le couteau sous la gorge -tahdid qilmoq;*
- *qadr-qimmat : Tel couteau, tel fourreau -pichog'iga yarasha g'ilofi;*
- *ikkiyuzlamachilik: Couteau de tripère - ikkiyuzlamachi, riyokor odam;*
- *zo'ravonlik: Jouer du couteau- zo'ravonlik qilmoq;*
- *kelishmaslik: Être à couteaux tirés – qirpichoq bo'lmoq; ziddiyatda bo'lmoq;*
- *azoblash: Retourner le couteau dans la plaie – ruhan azoblash;*
- *ishonch: Un second couteau – kimningdir chap (o'ng) qo'li (ishongan odami) bo'lmoq;*
- *ahmoqlik: Être bête à couper au couteau – o'ta ahmoq bo'lmoq;*

- qalinlik, quyuqlik: *Coupé au couteau*- juda qalin; quyuq;
- uzunchoqlik : *Visage en lame de couteau* – ovalsimon aft-bashara;
- imkoniyat: *Travailler au petit couteau* – imkoni boricha harakat qilmoq;
- urush: *Guerre au couteau* – qirg'in urush;
- jangovorlik: *Aiguiser ses couteaux* – jangga hozirlik ko'rmoq;
- epchillik : *Avoir le couteau facile* – qo'li chaqqon;
- ega bo'lish: *Avoir le pain et le couteau* –barcha zaruriy narsalarga ega bo'lmoq;
- qo'rquv : *Être sous le couteau* – joni garovda bo'lmoq;
- janjal :*Jouer des couteaux* – pichoqlashmoq;
- tayyorlik: *Mettre le couteau sur table* – taom tortishga tayyor turmoq;
- ehtiyotkorlik: *Ce couteau là coupe comme le genou de grand-mère* – o'tmas pichoq qo'l kesar.

O'zbek tilida ham ro'zg'or buyumi, aniqroq qilib aytganda, oshxonaning eng faol asbobi sanalgan *pichoq* so'zi yordamida hosil bo'lgan bir qator frzeologik ibora, maqol va matallarni sanab o'tish mumkin:

- nomuvofiqlik: *O'tmas pichoqqa* - oltin sop.
- afzallik: *Oltindan omoch bo'lmas, misdan* – pichoq.
- ehtiyotkorlik: *O'tmas pichoq qo'l kesar.*
- omadsizlik: *Kambag'alning ho'kizi o'lsa pichoq topilmas.*
- qo'shxotinlilik: *Ikki pichoq bir qinga sig'mas.*
- nodonlik va donolik:*Jahl-pichoq, aql-tayoq.*
- qadr-qimmat: *Yo'qolgan pichoqning sopi* - oltin.
- yaxshi / yomon munosabat: *Yaxshi gap bilan ilon izidan, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.*
- mehnatidan bebahra bo'lish: *Usta pichoqqa yolchimas, etikdo'z bigizga.*
- jangovorlik: *Chopqir ot* – o'tkir pichoq.
- so'z o'tkirligi: *Ota so'zi* - pichoq, *ona so'zi* – qumaloq.
- o'z yaqinlariga teginmaslik: *Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham o'z sopini kesmaydi.*
- yomonlik qilmaslik: *Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovga.*

- tengi topilishi: *Po'lat pichoq – qinsiz qolmas.*
- yomon munosabat: *Yomon so'z – pichoqdan o'tkir.*
- makonsizlik: *Oshpichoqning qini yo'q, bitbildiqning ini yo'q.*
- janjal qilish: *Qirpichoq bo'lmoq;*
- kesish: *Pichoq tortmoq (yoki qo'ymoq) Pichoq bilan kesmoq, so'ymoq;*
  - bardoshi yetmaslik: *Pichoq (borib) suyakka yetmoq (yoki taqalmoq);*
  - miqdor: *Pichoq uchiday / ozgina, zig'irday;*
  - arzimaslik: *Pichoqqa ilinmaydi / pichoqqa dasta bo'lmaydi;*
  - o'tkir so'zli: *Pichog'i keskir;*
  - zo'r daromadli: *Pichog'i moy ustida;*
  - azob: *Pichoqsiz so'ymoq - chidab bo'lmas darajada ruhan azoblamoq.*

Yuqorida keltirilgan ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, mazkur oshxona asbobi o'zbek tilida paremiyalar hosil qilishning asosiy leksemalaridan biri hisoblanadi. Fransuz tilida esa aksincha asosan, frazeologik iboralar yasashda *couteau – pichoq* referentidan keng foydalanilgan. Shuningdek, fransuz tilida *couteau – pichoq* buyumiga asoslanib yasalgan FBlar, jumladan, maqol va matallar o'zbek frazeologiyasi bilan qiyoslanganda ancha sanoqli ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, fransuz tilining aksariyat frazeologik lug'atlarida<sup>1</sup> jami 20ga yaqin FBlar keltirilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi frazeologik manbalarda<sup>2</sup> esa 30dan ziyod FB'larni uchratish mumkin.

## **2-§. FBlarda *le couteau - pichoq* leksemasining referentsial xususiyatlari.**

Frazeologik ibora, maqol va matallarning paydo bo'lishida kundalik turmushda doimo asqotadigan asbob hisoblangan pichoqning turli xalqlar madaniyati, urf-odati va turmush tarzi bilan bog'liq faktlar ham sababchidek ko'rinadi. Xususan, qadimda o'zbek xalqining har bir mard yigiti o'z yonlarida doimo g'ilofli pichoq olib

<sup>1</sup> Гак В.Г.и др. Французско-русский фразеологический словарь. /Под ред. Я.И.Рецкера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.; Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris : Dictionnaires Le Robert, 2003. – 1086 p.; Назарян А. Г. Словарь устойчивых сравнений французского языка = Dictionnaire des locutions comparatives de la langue française : с примерами, переводом и эквивалентами в рус. яз. – М. : Изд-во Рос.ун-та дружбы народов, 2002. –334с.


<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -407 б.; Шомақсудов Ш., Шарахмедов Ш. Маънолар маҳзани. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. - 477 б.

yurishgan. Bu odat hozirgi kunga kelib, yo'qolib ketgan, ya'ni hozirda pichoq olib yurish – sovuq qurol olib yurish bilan barobar sanaladi. Oldingi zamonlarda bu odat bir tomondan, erkaklarning har qanday vaziyatda undan foydalana oladigan darajadagi mardligi va jasoratini anglatga, yana boshqa tomondan, turli holatlarda, masalan, kundalik turmushda taomlanishda asqotadigan keskir asbob sifatida foydalanganidan dalolat beradi. Bu esa tilda o'zaro muloqot jarayonida mazkur tig'li asbobga asoslangan ko'plab FBlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Fransuz va o'zbek frazeologiyasi bo'yicha keltirilgan mazkur misollarda *pichoq* referentining funksional vazifasidan kelib chiqqan *kesish* tushunchasi diqqatni tortadi. Bunday tushuncha FBlardagi barcha ma'nolarda ham birdek aks etmaydi. Ya'ni, birida kesish ma'nosi mavjud bo'lsa, boshqasida esa bunday mazmun umuman ifodalanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi majoziy mazmunli chidab bo'lmas darajada ruhan azoblash ma'nosidagi *pichoqsiz so'ymoq* iborasida yoki fransuz tilidagi o'ta ahmoqlik ma'nosidagi *être bête à couper au couteau* iborasida *pichoq-couteau* referenti o'zining funksional xususiyatidagi *kesish / so'yish* harakati bilan birga qo'llangan holda frazeologik ma'no kasb etgan.

Ushbu holatning teskari ko'rinishi, ya'ni FBlar komponentlari tarkibida *kesish / so'yish* harakatining mavjud emasligi, xususan, *pichoq-couteau* referentining o'ziga xos ikkinchi darajali boshqa xususiyatlari bilan birga ifodalanishi ham FBlarning frazeologik ma'nolarini boyitishga xizmat qiladi. Misol tariqasida o'zbek tilidagi *arzimastik* ma'nosini ifodalovchi *pichoqqa ilinmaydi / pichoqqa dasta bo'lmaydi*; iborasi yoki fransuz tilidagi qadr-qimmatni ifodalovchi *Tel couteau, tel fourreau - pichog'iga yarasha g'ilofi* kabi FBlarda ushbu oshxona asbobining boshqa xususiyatlariga tayanilgan holda frazeologik ma'no hosil qilingan.

Agar biz mazkur ro'zg'or buyumining funksional vazifasi yoki xususiyatlarini FBlar bo'yicha tahlil qilmoqchi bo'lsak, dastavval uning, ya'ni *couteau – pichoq* referentining umumiy kvalifikativ xususiyatlarini aniqlashtirib olishimiz lozim bo'ladi va bu uning quyidagicha o'ziga xosligini namoyon qiladi:



Ushbu o'tkir tig'li referentning bizga ma'lum bo'lgan 1ta asosiy vazifasi va 11ta kvalifikativ xususiyatlari frazeologiyada bir xil darajada aks etmaydi. Ushbu holatni quyida ikki til misolida ko'rib o'tamiz.

Fransuz va o'zbek tillarida pichoqning asosiy vazifasidan kelib chiqqan *kesish/so'yish* ma'nosi FBlar ifodalayotgan ma'nolarda deyarli aks etmaydi. Biroq uning bu ma'nosini FBlardagi alohida komponentlarda kuzatish mumkin, ya'ni fransuzcha: *Ce couteau là coupe comme le genou de grand-mère; Coupé au couteau;* o'zbekcha: *Pichoqsiz so'ymoq -chidab bo'lmas darajada ruhan azoblamoq; Pichog'i keskir; O'tmas pichoq qo'l kesar; Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham o'z sopini kesmaydi; Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovga; Pichoq tortmoq (yoki qo'ymoq); Pichoq (borib) suyakka yetmoq (yoki taqalmoq)* kabi FBlarda o'tkir tig'li pichog'ning kesish xususiyati inobatga olingan.

Pichoqning ikkinchi darajali kvalifikativ belgilari ham ikki til misolida o'rganilganda, ulardan faqat o'tkirlik (*Aiguiser ses couteaux – jangga hozirlik ko'rmoq; Yomon so'z – pichoqdan o'tkir;*) va g'ilofli (*Tel couteau, tel fourreau -pichog'iga yarasha g'ilofi; Ikki pichoq bir qinga sig'mas;*) xususiyatlari ikki tilda ham birdek inobatga olingan, biroq ushbu keskir buyumning uzun shaklli (*Visage en lame de couteau – ovalsimon yuz;*) va kichik (*Travailler au petit couteau – imkoni boricha harakat qilmoq;*) belgilari faqat fransuz tilida e'tiborga olinsa, uning o'tmaslik (*O'tmas pichoqqa - oltin sop;*), g'ilofsizlik (*Oshpichoqning qini*



yo'q, bitbildiqlning ini yo'q;), uchlilik (Pichoq uchiday / ozgina, zig'irday;), dastalik (Pichoqqa dasta bo'lmaydi;), po'latdan yasalganligi (Po'lat pichoq – qinsiz qolmas) esa faqat o'zbek tilida e'tiborga olingan. Qolgan belgilar ikkala tilda ham deyarli aks etmaydi. Ushbu tahlil natijasini ikkala til misolida quyidagi jadval orqali ifodalashga harakat qilamiz:

Pichoqning kvalifikativ belgilari:	<i>o' tkirlik</i>	<i>o' tmaslik</i>	<i>g' ilofli</i>	<i>g' ilofsiz</i>	<i>uchlilik</i>	<i>dastali</i>	<i>uzun shaklli</i>	<i>yaltiroq</i>	<i>katta</i>	<i>kichik</i>	<i>po' latdan</i>
Fransuz tilida :	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
O'zbek tilida:	+	+	+	+	+	+	-	-	-	-	+

Shu tariqa *pichoq* referenti fransuz frazeologiyasida *o'tkir, g'ilofli, uzun yoki kichik shakldagi oshxona asbobi* sifatida talqin qilinsa, o'zbek frazeologiyasida esa bir muncha kengqamrovli tarzda *o'tkir yoki o'tmas, g'ilofli yoki g'ilofsiz, uchli, dastali, katta yoki kichik shakldagi po'latdan yasalgan oshxona asbobi* sifatida talqin qilinadi, ya'ni frazeologiyada pichoqning mazkur belgilariga ishora qilinishi FBlar komponentlari o'rtasidagi idiomatiklik xususiyatining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, fransuz tilidagi *Aiguiser ses couteaux*; iborasini to'g'ri ma'noda *pichoqlarini charxlamoq*; ko'chma ma'noda esa *jangga hozirlik ko'rmoq*; tarzida, o'zbek tilidagi *Pichoqqa dasta bo'lmaydi*; iborasini ham to'g'ri ma'noda *biror narsaning pichoqqa dasta bo'lmashligini*, ko'chma ma'noda esa *hech narsaga arzimashlik*; tarzida qabul qilish mumkin.

Bundan tashqari, frazeologiyada pichoqning yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular ham alohida tahlilni talab qiladi va shu sababli ularni keyingi izlanishlarimizda tahlil qilishga harakat qilamiz. Chunki, ushbu bo'limda tor doirada olib borilgan kichik kuzatuvlar natijalari bilan chegaralanishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Ma'lumki, fransuz va o'zbek tillarining grammatik qurilishi bir-biridan keskin farq qiladi. Jahon xalqlari tillarida aynan bir xil yoki ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan maqol va matallarni ko'plab uchratish mumkin. Tafakkurning bunday o'ziga xos mahsuli fransuz va o'zbek

tillari uchun ham mushtarakdir<sup>1</sup>. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa tariqasida pichoq referentli FBlarning ma'no ko'lami va qo'llanilish xususiyatlarini kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish ham ularning struktur-semantik va funksional aspektlarini nafaqat tilda, balki, milliy-madaniy hodisalardagi o'ziga xosligini namoyon etishga yordam beradi.

#### **4.4.O'ZBEK XALQ MAQOLLARINI FRANSUZ TILIGA**

#### **TARJIMA QILISHNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

#### **1-§.Maqollar – milliy olam tasviri sifatida.**

Turli xalqlar madaniyati va ularning milliy qadriyatlar olami ushbu xalqqa mansub til shakllarida ham keng tarzda o'z aksini topadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblangan maqollar bunday milliy olam tasvirini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularda milliylikning aks ettirilishi o'ziga xos mantiqiylikka asoslangan qadriyat, an'ana va urf-odatlar negizida paydo bo'lib, ularning tildagi ifoda birliklari har qanday millatda o'ziga xos shakl va ma'no zamirida shakllanadi. Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir<sup>2</sup>. Bu esa ma'lum bir milliy xususiyatlarni ifodalovchi maqol va matallarni xorijiy tillarga tarjima qilish jarayonida o'ziga xos ayrim murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ularni o'zga tilga tarjima qilishdagi bunday qiyinchiliklar ikkala til o'rtasidagi milliy farq hamda xalqlarning o'ziga xos milliy qadriyatlari, kishilarning turmush tarzi va undagi urf-odatlar, qolaversa, ushbu tillarga xos turli xil naqlarining mavjudligi asosida paydo bo'ladi. Bunday faktik asoslar tarjima qilingan maqollarning mazmun mohiyatini tushunishda muammolar uyg'otishi mumkin. Shunga o'xshash holatlarga aniqlik kiritish maqsadida ushbu bo'limda o'zbekcha milliy maqollarni fransuz tiliga tarjima qilishning o'ziga xos ayrim jihatlari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Xalq maqollari har qanday tilda obrazlilik va yorqin ko'tarinkilikni ifodalab, ular xalqning milliy xususiyatlarini tasvirlaydi, Shuningdek, turli xildagi ekspressiv bo'yoqdorlikni o'zida mujassam

---

<sup>1</sup> Сувонова Н.Н. Некоторые проблемы перевода узбекских пословиц на французского языка// Ученый XXI века, 2016. С.-47

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах : Сангзор, 2006. –Б.55. / -91 б.

etadi hamda ular kontekst ta'siri ostida qo'shimcha ma'noni anglatib keladi. Ma'lumki, ikki xil tilning umumiy xususiyatlari va farqli jihatlarini o'rganish mazkur tilda so'zlashuvchi xalqlarning milliy dunyoqarashini tushunishga yordam beradi. Bu borada G.F.Ustinning fikricha: *"Umumiy madaniy muloqot jarayonidagi asosiy to'siq o'zaro muloqotga kiruvchi turli madaniyatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlariga bog'liqdir"*<sup>1</sup>.

Har qanday xalqning ma'naviy-ma'rifiy hamda ijtimoiy hayotida maqollar keng tarzda qo'llaniladi. Dastlab, ularni o'rganishda maqollar frazeologiya tarkibiga kiritilmagan, ya'ni bunda frazeologiyaning hajmini toraytirgan holda faqat iboralarning o'zini o'rganish lozim, deb maqol, matal va hikmatli so'zlarni frazeologiyadan tashqari holda o'rganish taklif qilingan. Boshqa bir fikr tarafdorlari esa aksincha, ya'ni iboralar bilan bir qatorda maqol-matallarni ham, aforizmlarni ham frazeologiyaning hajmi doirasiga kiritishgan. G'.Salomov *"Frazeologizmlar(maqol, matal va iboralar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi"* degan fikrlari bilan qaysidir ma'noda frazeologiya chegarasini belgilab bergan edi<sup>2</sup>.

Binobarin, til frazeologik sistemasining har tomonlama eng boy va serqirra manbai bo'lib hisoblangan maqol va matallar A.V.Kunin tomonidan frazeologik birlik sifatida talqin etiladi. Shuningdek, A.V.Kunin maqollarni kommunikativ xususiyatga ega bo'lgan frazeologik birliklar tarzida tavsiflaydi<sup>3</sup>.

Maqollarning o'ziga xos milliy xususiyatlari borasida A.Nosirov aniq va ravshan ta'rifni keltirib o'tadi: *"Maqollarning asosiy belgilari turg'unlik, ko'chma ma'nolilik, nutq jarayonida tayyor holda qo'llanilishi, semantik tutashlilik, ekspressiv-emotsionallik, ifodalilik bo'lib, ular milliy leksikaning o'ziga xosligini yorqin aks ettiradi. ... ular nutq jarayonida tayyor holda namoyon bo'ladigan, to'liq yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatiladigan, strukturasi gapga teng, semantik yaxlit, kontekst tarkibida mustaqil ma'no anglata oladigan, kinoya-qochirimli, nasihatomuz fikrni ifodalovchi maqol, matal, hikmatli so'z,*

---

<sup>1</sup> Устин Г.Ф. Этноколлективное бессознательное как детерминанта социально-политического развития. // Вестник ВГУ. Серия -7, 2007. -С.76. / -С. 76-79.

<sup>2</sup> Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Т., Ўқитувчи, 1983. – Б. 118.

<sup>3</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: ВШ, 1986. – 336 с.

*aforizm, naql, o'git, yumuq iboralardan tarkib topgan turg'un birikmalar hisoblanadi."*<sup>1</sup>

Ushbu ta'rifda ham maqollardagi milliy leksikaga ham e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki, har bir millat maqollariga xos milliy leksika ularning butun ma'no va mazmunini idrok qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, A.Nosirov maqollar tafakkurning badiiy-mantiqiy shakli ekanligi, muayyan millatning o'ziga xos belgilarini saqlashi, milliy folklorning eng kichik janri, o'ziga xos grammatik shaklga egaligi va umumlashtiruvchi, didaktik fikrning mavjudligi kabi kategorial belgilarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tadi<sup>2</sup>.

## **2-§. O'zbek xalq maqollarini fransuz tiliga tarjima qilishning leksik-semantik xususiyatlari.**

Tilimizning, qolaversa, nutqimizning ziynati hamda ko'rki hisoblangan maqollarning tilda tutgan o'rnini, ya'ni ularning lingvistik mohiyatini aniqlash va ularni tavsiflash orqali frazeologiyaning kommunikativlik aspekti namoyon bo'ladi. Zero, frazeologiyadagi kommunikativlik xususiyatini esa aynan paremiologik birliklar, ya'ni maqol va matallar aks ettiradi. Nutqimizni tilda mavjud maqol va matallarsiz tasavvur qilish qiyin ekan, demak maqollar keng tarzda qo'llanilgan o'zbek durdona asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilishda aynan o'zbek xalq maqollarini bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish vazifasi ham dolzarb sanaladi.

Maqollar frazeologiya sistemasiga xos kommunikativlik hodisasining eng asosiy namunasi, qolaversa, tayanch nuqtasi ekan, ularni tarjima qilish jarayonida ularga xos barcha xususiyatlar majmuini hamohanglikda qamrab olish talab etiladi. O'zbekcha milliy maqollarni o'rganish va ularni fransuz tiliga tarjima qilish ushbu tillarni o'rganish va o'rgatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, badiiy matnlarni o'qib tushunish jarayonida, ularni tarjima qilish davomida, shuningdek, tilni o'rgatish jarayonida ham katta

---

<sup>1</sup> Nosirov A. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. 10.00.06. Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. Фил.фан.док.... автореферати. -Т., 2016. - Б.14. / -95 б.

<sup>2</sup> Nosirov A. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. 10.00.06. Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. Фил.фан.док.... автореферати. -Т., 2016. - Б.14. / -95 б.

yordam berishi mumkin. Shu bilan birgalikda, maqollarni chuqur o'rganish og'zaki nutqimizning rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi.

Maqollar ijtimoiy va maishiy hayotning turfa sohalarini qamrab olgan holda tilda xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida namoyon bo'ladi. Zero, o'zbek milliy maqollarini fransuz tiliga tarjima qilishda ularga xos xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy va falsafiy qarashlarini qisqa satrilarda qay yo'sinda badiiy tarzda ifoda etishni inobatga olish zurrur. Xususan, maqollarni tahlil qilish jarayonida bir necha turfa mavzularni o'zida mujassam etgan maqollarga duch kelish mumkin. Masalan, vatan va vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va o'g'rilik, yaxshilik va yomonlik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, tinchlik va notinchlik, botirlik va qo'rqqoqlik, donolik va nodonlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik va baxillik, go'zallik va xunuklik, kamtarlik va manmanlik, baxt va baxtsizlik, epchillik va noshudlik, sabr va sabrsizlik, muhabbat va bevafolik, tamagirlik va ochko'zlik, umid va ishonchsizlik, taqdir va hayot, imkon va imkonsizlik, ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik va boshqalar shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

Ma'lumki, «paremiologiya» atamasi ostida turg'un birikma shaklida tarjima qilinadigan, biroq frazeologik birliklardan farqli ravishda, nisbiy tugallikka ega bo'lgan maqol va matallar, hikmatli so'zlar, topishmoq va tez aytishlar nutqning monologik, dialogik ko'rinishlarida, badiiy asar tarjimasida keng foydalaniladi va ularni tarjima qilishda albatta, ularga xos tugal fikr ifodasini tasvirlash yanada muhim hisoblanadi. O'z-o'zidan tushunarliki, tilga oid bunday birliklarni tarjimada talqin etilishi tarjimondan katta mahorat talab etadi. Chunki bunday paremiologik birliklarning aksariyatini so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Shuningdek, bunday birliklarni tarjima qilishda har bir mamlakatning milliy urf-odatlarini, ma'naviyat va madaniyati, turmush tarzidan kelib chiqqan holda ularga semantik tomondan to'g'ri yondasha bilish zarurdir. Xususan, yuqorida ta'kidlanganidek, maqollarni tarjima qilishda, so'zma-so'z tarjima ijobiy samara bermaydi.

Maqollarni bir tildan boshqa tilga o'girishda uning muqobil variantidan, ya'ni tarjima qilinayotgan tilda ma'nosiga ko'ra muvofiq

---

<sup>1</sup> Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент : Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. -512 б.

keluvchi boshqa bir maqoldan foydalanish ham mumkin. Bunday muqobilli maqollar umumbashariy proverbial frazeologizmlar, ya'ni, fransuz, o'zbek va rus hamda boshqa xalqlar ijodida bir-biriga ma'no jihatidan mos bo'lgan internatsional maqollar hisoblanadi<sup>1</sup>. Ular o'zlarida umuminsoniy, xususan, barcha millatga xos insoniy fazilatlarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak ular ma'lum bir xalqqa xos milliy maqollar hisoblanmaydi, negaki, bunday mazmundagi maqollarni barcha tilda uchratish mumkin. Masalan, quyidagi maqollar shular jumlasidandir:

<b>O'zbek tilida:</b>	<b>Fransuz tilida:</b>	<b>Rus tilida:</b>
<i>Do'st og'ir kunda sinaladi.</i>	<i>Au besoin on connaît l'ami.</i>	<i>Друзья познаются в беде.</i>
<i>Birovga choh qazisang o'zing yiqilasan.</i>	<i>Qui creuse la fosse à un autre, y tombe lui même.</i>	<i>Не роѝ другому яму – сам в нее попадѝш.</i>
<i>So'rab-so'rab Makkani topibdi.</i>	<i>Qui langue a, va à Rome.</i>	<i>Язык доведѝт до Киева.</i>

O'zbek milliy qadriyatlarini ifodalovchi xalq maqollarini o'rganish o'zbek xalqining hayoti va madaniyati bilan tanishishga yordam beradi. Shuningdek, ular hayotda turli xil holatlardagi fikr va g'oyalarning ikki xil xalq madaniyati misolida bir-biriga o'xshashligi yoki farqli ekanligini o'rgatadi.

Maqollarning ko'pchiligi qofiyadoshlik asosida tuzilishi, ulardagi obrazlilik hamda ritmik qatorlarning mavjudligi tufayli ular tezda esda saqlanadi va tilning barcha ko'rinishlarida aks eta oladi. Shu bilan birga, maqollarning turli-tumanligi ularni istalgan yoshdagi shaxsga, istalgan toifadagi kishilarga nisbatan qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Bu qisqa fikrlardagi chuqur mazmun o'quvchilarning tafakkurinigina rivojlantirib qolmasdan, balki, muhim tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Maqollarning yodda saqlanishi, albatta, ularning yagona umumiy leksik sintaktik ma'noni berishi hamda ularning deyarli barchasi boshqa tilda o'z muqobiliga ega ekanligiga ko'ra birmuncha oson kechadi.

<sup>1</sup> Носиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. 10.00.06. Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. Фил.фан.док.... автореферати. –Т., 2016. –Б. 12. / –95 б.

Bizga ma'lumki, har bir xalq o'zining milliy olami bilan boshqa bir xalqdan ajralib turadi. Ba'zan shunday maqol va hikmatli so'zlarga duch kelamizki, ularning aynan boshqa tilga o'z asli kabi tarjima qilishga imkoni bo'lmaydi. Chunki unda keltirib o'tilgan elementlar aynan shu xalqning o'zigagina tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida mavjud *Oti-ulug', supراسi-quruq* maqoliga e'tibor qilsak, undagi *supra* uy-ro'zg'or buyumi fransuz xalqida mavjud emas. Shu sababli ushbu maqolni fransuzchaga o'girishda albatta qiyinchilik tug'iladi. Quyida M. Ergashev va I. Niyozovlar<sup>1</sup> tomonidan tarjima qilingan shunga o'xshash o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifodalovchi bir nechta maqollarni fransuzcha tarjimasini bilan keltirib o'tamiz:

O'zbek xalq maqollari:	Fransuzcha tarjimasini yoki talqini:
<i>Sichqon sig'mas iniga, g'alvir boylar dumiga.</i>	<i>La souris ne rentre pas son trou, mais elle attache à sa queue un <b>tamis</b>.</i>
<i>Qaytib ochar qopqangni qattiq yopma.</i>	<i>Ne claque pas <b>la porte</b> dans la maison où tu es susceptible de revenir.</i>
<i>Pichoq o'tkir bo'lsa ham, o'z-sopini kesmaydi.</i>	<i>Le couteau bien aiguisé ne doit pas couper son <b>étui</b>.</i>
<i>Palovning qamchisi-choy.</i>	<i>Le thé, c'est la cravache du <b>pilaf</b>.</i>
<i>Oti-ulug', supراسi-quruq.</i>	<i>Son titre est supérieur, sa <b>table</b> est maigre.</i>
<i>Mullaning aytganini qil, qilganini qilma.</i>	<i>Fait ce que le <b>mollah</b> te dit, ne fait pas ce que le mollah fait</i>

Yuqorida keltirilgan maqollar o'zbek xalq milliy maqollari bo'lib ularda keltirib o'tilgan elementlar hech bir xalq maqolida uchramasligi mumkin. Misol uchun maqollarda keltirib o'tilgan *g'alvir, qopqa, sop, palov, supra, mulla* so'zlari aynan o'zbek tiliga mos va ular milliylikni bildiruvchi so'zlar hisoblanadi. Ularni fransuz tiliga tarjima qilishda unga yaqin yoki ma'nodosh bo'lgan leksik birliklardan foydalanish mumkin. Ya'ni:

O'zbek tilida:	<i>g'alvir</i>	<i>qopqa</i>	<i>sop</i>	<i>palov</i>	<i>supra</i>	<i>mulla</i>
Fransuz tilida:	<i>un tamis</i>	<i>la porte</i>	<i>étui</i>	<i>pilaf</i>	<i>table</i>	<i>mollah</i>
O'zbekcha tarjimasini :	<i>elak</i>	<i>eshik</i>	<i>g'ilof</i>	<i>palov</i>	<i>stol</i>	<i>mulla</i>

<sup>1</sup> Ergashev M., Niyozov I. Proverbes et Dictons d'Ouzbékistan. –Paris : EDITIONS GEORAMA, 2006. -96 p.



Bundan ko‘rinib turibdiki, milliy ramz sifatida xizmat qiluvchi elementlarni tarjima qilish jarayonida ma‘no jihatdan yaqinroq bo‘lgan so‘zlar masalan, *g‘alvir* o‘rniga *elak*, *supra* o‘rniga *stol* kabi ma‘nosi o‘xshash birliklardan foydanish mumkin. Shuningdek, tarjimada yana bir e‘tiborli jihat mavjudki, milliylikni ifodalovchi so‘zlarni ayrim hollarda umuman muqobili mavjud bo‘lmasa ularning asl shaklida ham berilishi maqsadga muvofiq, masalan, *palov – pilaf yoki mulla - mollah* tarzida.

O‘zbek xalq maqollarini fransuz tiliga tarjima qilishda asosan, ulardagi asosiy mazmun va mohiyat o‘z sofligini yo‘qotmasligi lozim. Maqol zamirida qanday ma‘no yotganligi imkon qadar aniq va tushunarli tarzda ifodalanishi tarjimaning yutug‘i hisoblanadi. Zero, o‘zbek milliy maqollarining o‘ziga xosligi ham bevosita o‘zbek xalqining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotini ko‘rsatib berish, toponimika, o‘simlik va hayvonlar dunyosi ishtirok etishda, o‘zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishida, urf-odat va marosimlarning mavjudligida hamda adabiy-badiiy tilda aks etadi<sup>1</sup>.

### **3-§. Maqollarni tarjima qilishdagi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq struktur xususiyatlar.**

Maqollardan inson nafaqat odob ahloqni balki shu xalqqa doir urf-odat va madaniyatni ham o‘rganishi mumkin. Masalan, quyidagi o‘zbek xalqi milliyligiga xos maqollarga va ularning fransuzcha tarjimasiga e‘tibor qilaylik :

<b>O‘zbek xalq maqollari:</b>	<b>Fransuzcha tarjimasi yoki talqini:</b>
• <i>Mehmon-otangdan ulug‘.</i>	• <i>L’invité est plus respecté que ton père.</i>
• <i>Qari bor uyning zari bor.</i>	• <i>La maison où vivent les vieux possède le trésor.</i>
• <i>Osh- kattadan, suv-kichikdan.</i>	• <i>Quand on mange c’est le vieillard qui commence, quand on sert de l’eau c’est le jeune qui commence</i>
• <i>Ovsinlar inoq bo‘lsa, og‘a-</i>	• <i>Si les belles-soeurs s’entendent</i>

<sup>1</sup> Носиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. 10.00.06. Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. Фил.фан.док.... автореферати. –Т., 2016. –Б. 28. / -95 б.



<i>inilar chinoq bo'lmas.</i>	<i>bien, les frères ne se battront pas.</i>
• <i>Otalar so'zi-aqlning ko'zi.</i>	• <i>Les paroles des pères sont les yeux de l'esprit.</i>
• <i>Onasiga qarab, qizini ol.</i>	• <i>Avant d'épouser une fille, fais connaissance avec sa mère.</i>
• <i>Oyda yegan to'q bo'lur, kunda yegan suq bo'lur.</i>	• <i>Celui qui mange une fois par mois est rassasié, celui qui mange tous les jours ne se rassasie jamais</i>

